

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA

UNIVERSITETI

A.Nurmonov, N.Mahmudov

## **O'ZBEK TILINING NAZARIY GRAMMATIKASI**

(o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabalari uchun  
o'quv qo'llanmasi)

T O S H K E N T - 2 0 0 7

## GAPNING MAZMUNIY TUZILISHI

Har qanday lisoniy belgi shakl va ma'no birligidan iborat. Lekin an'anaviy sintaktik nazariyalarda asosan gapning shakliy tuzilishi o'rganib kelindi. Faqat ayrim o'rinnardagina (gapning kommunikativ maqsadiga ko'ra turlarini belgilashda, ikkinchi darajali bo'laklarning ichki tasnifida, masalan, holning o'rin, payt, maqsad va boshq. turlarga bo'linishida; aniqlovchilarining sifatlovchi, karatuvchi," izohlovchilarga ajratilishida va boshq.) semantikaga murojaat qilinadi. Gapning ma'no xususiyati va uning tarkibi ham, gapning mazmuniy tiplari ham, sub'ekt va predikatlarning mazmuniy tiplari ham, gapning shakliy va mazmuniy tuzilishlarining o'zaro munosabatlari ham yaqin yillargacha maxsus o'rganish ob'ekti bo'lmay keldi.

N.D.Arutyunovaning ta'biri bilan aytganda, 60-yillarning o'rtalariga kelib, gap semantikasiga "shturm" boshlandi . Gap semantikasiga qiziqishning uyg'onishiga lingvistik nazariya rivojiga ta'sir ko'rsatgan bir qator omillar: lingvistikaning gap mazmuni - propozitsiyaga alohida diqqat qiluvchi mantiq bilan munosabatining yangi pog'onaga ko'tarilishi, til va nutqniig ma'no tomoniga umumiyl burilishi, nutk faoliyatining pragmatik komponentiga e'tiborning kuchayishi, gapga o'zining maxsus ma'nosи bo'lgan til belgisi sifatida qarashning vujudga kelishi hamda gaplarning mazmuniy ekvivalentligi tushunchasiga tayanadigan sintaktik transformatsiya nazariyasining vujudga kelishi singari omillar turtki bo'ldi.

O.Espersen ham tilshunoslikda shaklni mazmundan ajratishga harakat kilgan G.Suit va boshqa tilshunoslarni tanqid qilar ekan, shakl va mazmun o'zaro uzviy bog'liq ekanligini, lisoniy hodisaning bu ikki tomoniga e'tibor berish har qanday tilshunoslikning asosiy vazifasi ekanligini uqtiradi. Uning fikricha, har bir tilshunos hodisani ikki tomonlama - shakldan ma'noga yoki ma'nodan shaklga qarab tekshirishi mumkin . Birinchisi semasiologik, ikkinchisi onomasiologik o'rganish ob'ekti bo'ladi.

Hozirgi kunda semantika deyarli hamma tilshunoslар tomonidan e'tirof etilsa ham, ammo sintaktik semantika maqomi masalasida bir xillik yo'q.

N.Yu.Shvedovaning fikricha, sintaktik semantikaning asosiy vazifasi shakliy-sintaktik modellarning xususiy ma'nolarini aniqlashdan iborat bo'lishi kerak. Bunga ko'ra, gap tuzilishi sxemasining umumlashtirilgan ma'nosi va ular o'rtasidagi munosabat gap sintaktik tuzilishining asosi bo'lib xizmat qiladi. N.Yu.Shvedovaning konsepsiyasiga muvofiq, gapning suniy tuzilishi deganda, tipiklashtirilgan ma'no elementlarining mavhumlashgan holda til sistemasida aks etgan mazmuni tushuniladi . U gap mazmunini estralingvistik omillarsiz, sof til materiallariga tayangan holda o'rganishga harakat qiladi. Tilning har qanday sath birliklari, jumladan, gapning tuzilish sxemalari ham undagi kategoriya va konkret ma'nolar munosabatlaridan hosil bo'lgan mazmuniy o'ziga xoslikka ega bo'ladi.

Ikkinchchi yo'nalish tarafdorlari asosan gapning nominativ minimumi uzvlarining leksik ma'nolariga asoslanadilar. Bunga muvofiq, gapning mazmuniy tuzilishi tuzilish sxemalar chegarasida emas, balki undan tashqarida ajratiladi. Tuzilish sxema va mazmuniy tuzilishlar bir-birini kesishmaydigan parallel qatorlarga teriladi. Bunday qarash O.I.Moskal'skaya ishlarida namoyon bo'ldi .

Sintaktik semantika bo'yicha Ye.P.Paduchevaning ham izlanishlari o'ziga xosdir. Uning fikricha, gap ma'nosi leksema ma'nolaridan, so'z shakllarining grammatik ma'nolaridan va sintaktik qurilmalarning ma'nolaridan tashkil topadi. Shuning uchun ham leksik va morfologik semantika bir butun gap semantikasining komponenti bo'lishi kerak . V.G.Gak gapni to'liq til belgisi hisoblab , gap referenti vaziyatdir, ya'ni "gapisirish" momentida ob'ektiv borliqdagi so'zlovchi ongida mavjud bo'lgan va gapning o'zini shakllantirish jarayonida til elementlarini tanlashga ma'lum darajada sharoit yaratuvchi elementlar yig'indisidir, deydi .

Vaziyat va uni ifodalovchi gap o'rtasidagi munosabat ikki yo'nalishda - ifoda planidan ma'no planiga qarab va, aksincha, ma'no planidan ifoda planiga qarab o'rganiladi. Birinchisi nutqiy faoliyatning tushunish aktini, ikkinchisi esa ifodalash aktini namoyon qiladi. Bunga muvofiq, sintaktik semantikada ham o'zaro bog'langan va ayni yo'nalishga ko'ra bir-biriga zid bo'lgan ikki aspekt: semasiologiya va onomasiologiya ajratiladi . Birinchisi ma'lum sintaktik birlik nimani aks ettirishini, ikkinchisi ma'lum vaziyat qanday ifodalanganini o'rganadi.

Birinchi yo'nalish gap ma'nosini ob'ektiv borliq bilan bog'langanligi uchun, vaziyatni aiiqlashga va tahlil qilishga alohida ahamiyat beradi va uni gapning denotativ yoki nominativ aspekti ham deyiladi.

Gapning denotativ aspektini ifodalash uchun ko'p hollarda "propozitsiya" terminidan foydalaniladi. Bu termin tilshunoslikka mantiq va falsafiy tadqiqotlar ta'sirida kirib keldi. U.Kuayn logik qurilishda propozitsiya tushunchasining roli haqida to'xtalib, ma'lum gap va uning boshqa tilga qilingan tarjimasi o'rtasidagi yoki bir til ichida turlichalishlar o'rtasidagi umumiylilikni aks ettirishni ko'rsatadi. Propozitsiyaga qiziqishning o'sishi bilan uning talqinida ham xilma-xillik orta boradi.

Klassik mantiq propozitsiya yoki mantiqiy hukm deyilganda borliqning ma'lum predikatlari haqida tasdiq yoki inkor yo'li bilan axborot beruvchi fikr shakli tushunilgan. "Propozitsiya" termini tilshunoslar tomonidan dastlab xuddi shu ma'noda hukmning ifodalanish shakli bo'lgan darak gaplarga, keyinchalik gapning hamma turlariga nisbatan qo'llaniladi. Gap termini ham lotincha "hukm" terminidan kal'ka yo'li bilan rus tilidagi "predlojeniye" orqali hosil bo'lgan.

Ramziy mantiq klassik mantiqdan farqli ravishda, o'zining tushunchalarini, inson ongida aks etishini chetlab o'tgan holda bevosita borliq kategoriyalari bilan munosabatini belgilashga intiladi. Propozitsiya tushunchasining bu umumiyligi tendensiyasi natijasida keyinchalik u tafakkurdan ob'ektiv reallikka, sub'ektiv omildan ob'ektiv omilga "burildi". Natijada u tafakkur shakliga emas, balki uning mazmuniga, u orqali

ifodalanadigan ob'ektiv reallikka nisbatan qo'llanila boshlandi. Sub'ektiv modallik kategoriyasidan ozod bo'lib, vaziyatni ifodalashga o'tdi. Propozitsiya xuddi shu ma'nosi bilan tilshunoslikka kirib keldi.

Gapning nominativ nazariyasi dastlab G.Frege asarlarida aks etdi. Uning fikricha, har qanday gap mazmun (smo'sl) va ma'no (znacheniye) ga ega. Mazmun uning signifikati, konnotatsiyasi; ma'no esa denotati. Anglashiladiki, gap mazmuni ma'noga nisbatan kengroqdir. Shunday qilib, G.Frege har qanday gapda fikr (mazmun) sathidan referensiya sathiga (ma'noga) qadam qo'yiladi, shu bilan ayrim ma'nolarning tasdiq yoki inkor qilish akti sodir bo'ladi, deydi. Referent sath uchun u propozitsiya terminini ishlatadi.

Propozitsiya tushunchasi B.Rassel asarlarida yanada konkretlashdi. Uning fikriga ko'ra, propozitsiya real borliq (fakt) strukturasiga o'xshashlikka ega bo'lgan aktual faktidir. Propozitsiya haqida Ch.Fillmor shunday deydi: "Gapning asosiy strukturasida "propozitsiya" deb nomlash mumkin bo'lgan strukturani, ya'ni gapning modal qismidan ajralgan fe'l bilan otlar o'rtasida zamondan tashqaridagi munosabatlar majmuasini kuzatamiz. Gapning modal qismi uning butun xarakteristikasini belgilaydigan inkor, zamon, mayl va tus kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi".

Hozirgi kunda ko'pchilik tilshunoslar propozitsiya termini ostida gapning ssmantikasida o'z ifodasini topgan ob'ektiv mazmunni tushunadilar. O.I.Moskal'skaya gapning bu denotativ tomonini gapning mazmuniy markazi deb hisoblaydi.

Propozitsiya faqat gaplar orqali ifodalanishi shart emas. U so'z birikmasi va so'zlar orqali ham ifodalanishi mumkin. Masalan: Karim keldi-Karimning kelishi. Demak, ma'lum bir sintaktik struktura gap bo'lishi uchun ma'lum propozitsiyani ifodalashdan tashqari, ya'ni boshqa belgilarga-kommunikativ mustaqillik va modallik belgilariga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Shuning uchun ham har qanday gap ot pozitsiyasiga transpozitsiya qilinganda, uning kommunikativ bo'linishi (tema - rematik bo'linish) va ideal xususiyati yo'qoladi, ammo nominativ mazmuni eskicha saqlanib qoladi. Yana solishtiring:

Bola kitobni o'qiyapti - bolaning kitob o'qishi

Uning kelishi xavfli - uning kelishining xavfliligi

Yuqoridagi solishtirilayotgan konstruksiyalarning mazmuniy yaqinlashtirilishiga ulardagи markaziy elementlarning umumiyligi asos bo'ladi. Transpozitsiya jarayonida kommunikativ birlik sifatidagi gapning markaziy elementi - kesimi nominativ birlikning markaziga aylanadi . Propozitiv nominatsiya mohiyati uchun gapning kommunikativ tarkibi ham e'tibordan tashqarida bo'lmaydi. Gapning kommunikativ tuzilishni uning nominativ tuzilishiga ham ta'sir qiladi. Shunday ta'sir qiladiki, gapning kommunikativ markazi, bir vaqtning o'zida, nominativ asos vazifasini o'taydi.

Har qanday gap semantikasida propozitiv mazmundan tashqari, so'zlashuvchining kommunikativ niyati va mumkin bo'lgan modallikkdan biri ishtirok etishi kerak bo'ldi. Boshqacha aytganda, propozitsiyadan real

gap mazmuniga o'tish uchun propozitiv ramkadan tashqari, yana ikki ramkani - modallik va kommunikativ ramkani qo'shish zarur bo'ladi. Keyingi har ikki ramka har qanday gap mazmuniy tuzilishining zaruriy uzvi hisoblanadi . Shunday qilib, har qanday gapning mazmuniy tuzilishi murakkab, ko'p qirrali xarakterga ega bo'lib, unda eng kamida uch uzb: 1) propozitiv, 2) modal, 3) kom-munikativ uzvlar ishtirok etadi. Gapning mazmuniy tuzilishini tashkil etgan yuqoridagi uzvlardan eng asosiysi ob'ektiv borliqdagi ayrim vaziyat yoki voqealarni aks ettiruvchi propozitiv tuzilishdir.

## **GAP SEMANTIKASINING PROPOZITIV ASPEKTI**

Yuqorida ta'kidlanganidek, har qanday gap mazmunida uch aspekt ishtirok etadi: 1) propozitiv (nominativ) aspekt, 2) modal (ob'ektiv modallik) aspekt , 3) kommunikativ (tema-rematik) aspektlar. Bulardan til birligi sifatidagi gap semantikasida faqat propozitsiya va ob'ektiv modallik mavjud bo'lsa, nutq birligi sifatidagi gap (jumla) semantikasida esa ulardan tashqari, albatta, kommunikativ aspekt va ba'zan sub'ektiv modallik ham ishtirok etadi.

Ayrim tilshunoslar esa, gap mazmunida tildan tashqaridagi ekstralengvistik omilni rad etmagan holda, til ifodasining ob'ektiv borliq, vaziyat bilan bevosita emas, balki inson ongida mavjud bo'lgan "ob'ektiv borliq obrazlari" orqali bog'lanishiga asoslanib, "vaziyat" terminini ruhiy makon va ruhiy zamonda joylashgan ruhiy vaziyatga nisbatan qo'llaydilar. Bunga muvofiq, "gap" termini ostida ayrim vaziyatlarni kodlashtiradigan tovush obrazlarining zanjiri tushuniladi . A.Vejbitskayaning fikricha,

semantika predmeti real borliq emas, balki shu real borliqning ongdagi aksi bo'lishi kerak. Chunki til ob'ektiv borliqni faqat ong orqali ifodalaydi. Hozirgi sintaktik semantikada denotativ (referensional) aspekt o'rinni olmoqda. Bunga ko'ra aktuallashgan, ya'ni nutqiy elementlarning vaziyat elementlariga munosabati e'tiborga olinadi . Ammo tilshunoslar o'rtasida vaziyat elementlari masalasi ham bir xil emas. I.P.Raspopov ta'kidlaydiki, semantik struktura bilan shug'ullangan hamma tilshunoslar gapning semantik strukturasi (nominativ aspekt jihatidan) o'zi ifodalagan ob'ektiv reallik strukturasi bilan bir xildir, degan asosga tayanadilar . "Gapning semantik strukturasini tildan tashqaridagi vaziyatdan topishga urinish ma'lum qiyinchiliklarga olib keladi, - deydi G.A.Zolotova. -Chunki ekstralengvistik plan strukturasi, bo'linishi va umumlashish darajasi tavsif erkinligiga yo'l beradi... Izomorflik haqida qo'rmasdan shuning uchun gapirish mumkinki, vaziyat strukturasini, uning bo'linishini biz til ko'nikmamizda qanday aks ettirsak, shunday tasavvur etamiz" . g'

Semantik struktura (Sems) nazariyasining shakllanishida alohida o'rinni egallagan. Ch.Fillmor Semsni ichki struktura (GS) deb nomlaydi va uning asosi sifatida bevosita ishtirokchilar (NS) grammatikasidan emas, balki ramziy mantiqning predikat - argument prinsipidan foydalanadi. GS ni  $u \ z \ q \ t \ Q \ r$  formulasi bilan ko'rsatadi. Bu yerda 5-gap, t-modallik ifodalovchisi, R-propozitsiya. Propozitsiya  $R-u \ Q \ SQ\dots Q \ Sp$  tarzida kengayishi mumkin deydi (Bu o'rinda V - fe'l s - argumentning predikatga bo'lgan munosabatini ifodalovchi ichki kelishiklar).

Fillmorning ichki tuzilish nazariyasi ayrim kamchiliklariga qaramay, gap mazmunini bir xil aks ettirishga ancha yaqinlashdi. Fillmorning ichki - kelishik konsepsiyasiga V.G.Gakning konsepsiysi uzviy ravishda bog'lanadi. Gak ham GS terminidan foydalanib, uni vaziyat bilan bir xil bo'lgan leksik - sintaktik tuzilishdir, deb hisoblaydi. GS vaziyatning to'g'ridan-to'g'ri nomi: PS (tashqi struktura) esa vositali nomi sifatida talqin qilinadi).

GS predikat bilan birga quyidagi yetti aktantni o'z ichiga oladi, deydi: 1) sub'ekt, 2) ob'ekt, 3) adresat, 4) jarayonning yuzaga chiqishi uchun yordam beradigan yoki to'sqinlik qiladigan substansiya (initiator, quroq, sabab), 5) fazoviy konkretlashtiruvchi (harakatning yuzaga chiqishi, yoki tugash o'rni) qarashi yoki bir qismi sub'ekt yoki ob'ektni tashkil qilgan substansiya.

Semantik strukturaking original konsepsnyasi VI. P.Susov tomonidan ilgari surildi. Unikg qarashicha, real haqiqat bir necha vaziyatlardan tashkil topadi. Inson ongi konkret vaziyatlarni aks ettiradi, umumlashtiradi va ularni siteflarga birlashtiradi. Inson ongida umumlashgan vaziyatga yoki uning sinfiga ichki til shakllari mos qo'yiladi. Uni hosil qilish uch bosqichda bo'ladi; umumlashgan vaziyatga muvofiq bo'lgan tuzilishni hosil qiluvchi relyasion bosqich; relyasion strukturaga sub'ekt - predikat munosabatini qo'shadigan predikatsion bosqich, predikatsion strukturaga temporgllik, modallik, personallik va boshqa qo'shimcha ma'nolarni yuklaydigan modifikatsion bosqich.

Relyasion struktura Fillmorning Semsini eslatgan holda, relyatemalardan tashkil topadi. Sakkiz relyatema farqlanadi: agentiv, agentiv bo'limgan, patsiyentiv, atraktiv, lokativ, ablativ va instrumental.

Ko'rinib turibdiki, Sems maqomi haqida hozirgi kunda tilshunoslar o'rtasida bir xillik yo'q. Bu narsa Sems realligini inkor qilish yoki uydirmaligiki tasdiqlash natijasida emas, balki uning favqulodda murakkab tuzilma ekanligi natijasidir.

I.P.Susov gapning lisoniy belgi ekanligini e'tirof etgan holda uning konkret (yoki gapnint tashqi tuzilishi) va abstrakt (gapning ichki tuzilishi) gaplarga ajratadi. Birinchisi ikkinchisini namoyon qiladi. Ikkinchisi har qanday konkret gapning zaruriy asosi hisoblanadi . Uning fikricha, abstrakt gap sintaktik fakti xususan, pozitsion tuzilishni, ya'ni leksik birliklar, morfologik ko'rsatkichlar, intonatsion elementlar bilan to'ldirilmagan, konkret gapni shakllantiruvchi barcha momentlar ishtirok etmagan sub'ekt va predikat pozitsiyalarni ifodalaydi. Boshqacha aytganda, abstrakt gap gapning tuzilish sxemasidir. Abstrakt gap sintaktik na'no ifodalaydi. Aksincha, konkret gap esa yuqoridagi ko'rsatilgan barcha qo'shimcha momentlarni aks ettirib, sintaktik ma'nogagina emas, balki supersintaktik ma'noga ham ega bo'ladi .

Konkret gap ko'p bosqichli xarakterga ega bo'lib, gap hosil qilish (onomasiologiya) jarayonining oxirgi, yakuniy bosqichidir. Konkret gap oxirgi hosila sifatida ko'p bosqichli barcha ichki tuzilishlarga (nominativ, relyasion va boshqa) qarama-qarshi qo'yiladi.

Gap hosil qilishning boshlang'ich nuqtasi alohida vaziyatlarning abstrakt bosqichda denotativ-referensional ma'no ifodalovchi mazmuniy o'xshashliklarni belgilashdan iborat. Shuning uchun ham har qanday gap semantikasining tahlili vaziyat elementlari va ularning aks ettirish bosqichidagi muqobillarini aniqlashdan boshlanishi kerak.

## VAZIYAT ELEMENTLARI

Ongning paydo bo'lishi nutqning vujudga kelishi bilan bevosita bog'liqdir. Nutq faoliyat bo'llib, u til yordami bilan, aloqa vositalarining muayyan sistemasi bilan ro'yobga chiqadi. Ong bilan nutq o'zaro chambarchas bog'langan. Ong voqelikni aks ettiradi, nutq esa ana shu ongda aks etgan voqelikni bildiradi. Tilning asosiy birligi-so'zning ma'nosi predmet, harakat-hodisalarini aks ettiradi hamda hissiy va aqliy obrazdan iborat bo'ladi. Til yordamida jonli mushohadadan, hissiy bilishdan umumlashgan, mavhum tafakkurga o'tiladi.

O'zaro munosabatda bo'lgan predmet, hodisa, xususiyat, harakat va hokazo birligidan tashkil topgap ob'ektiv borliqning alohida elementlari tilning asosiy birliklari - so'zning, alohida elementlar ansambl esa gapning denotati hisoblanadi. Gap denotati bo'lgan alohida elementlar ansambl ko'pchilik adabiyotlarda vaziyat (situatsiya) termini bilan nomlanadi. Har qanday vaziyat turli elementlarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan bir butunlik - sistemadir. Vaziyat elementlari predmetlar va belgilardan iborat . Predmetlar ob'ektiv olamdag'i ma'lum belgi xususiyatga ega bo'lgan mustaqil mohiyat - kishilik, o'simliklar, hayvonot olami, tabiat olami va h. ga mansub elementlar sanalsa, belgilar mustaqil mohiyat qatoriga kirmaydigan, uning xususiyati, holati, harakati, munosabatlarini bildiruvchi elementlar hisoblanadi.

I.P.Susov tilarning mantiq nazariyasiga amal qilgan holda predmetlarni nol' tipidagi elementlar, belgilarni esa nol' bo'lмаган (birinchi, ikkinchi va h.) tipdagi elementlarga kiritadi. Elementlarning birinchi tipiga predmet belgilari, ikkinchi tipiga predmet belgilarining belgilari, uchinchi tipiga esa predmet belgini belgisining belgisi oid bo'ladi.

Anglashiladiki, har bir vaziyat elementlar darajalanishidan tashkil topgan.

I.P.Susov vaziyatni bazis va bazis bo'lмаган vaziyatlarga ajratadi. Bazis vaziyat bir, ikki yoki uchta nol' tipidagi elementlardan tashkil topsa, bazis bo'lмаган vaziyat o'z sostavida nol' tipidagi elementga ega bo'lmaydi.

Bazis vaziyat, o'z navbatida, immanent va nisbny vaziyatlarga bo'linadi. Immanent vaziyat faqat bir predmetdan iborat bo'ladi va o'ziga xos yoki jamlangan predmetlarni aks ettiradi. Nisbiy vaziyat esa o'zaro belgi-munosabat bilan boglangan ikki yoki uch predmetdan iborat bo'ladi. Har qanday munosabat yo'nalish xususiyatiga ega: bir predmetdan (boshlangan predmet) ikkinchi predmetga (yakunlovchi predmetga) qaratiladi. Vaziyat agar uch predmetli bo'lsa, u vaqtda munosabatga bilvosita ishtirok etadigan qo'shimcha predmet ham ajratiladi. Vaziyat predmetlari turlicha vazifada kelishlari mumkin: agens, Glatsiyens (boshlang'ich predmetlar); o'rin, qurol-vosita va boshq.

Yuqoridaq yakka vaziyat elementlari ma'lum mavhum vaziyat prizmasi orqali tilda o'z muqobillariga ega bo'ladi.

### **RELYASION STRUKTURA**

Relyasion struktura vaziyat elementlari bilan ularning til ifodalari o'rtasida oraliq strukturadir .

Relyasion struktura ma'lum vaziyatning ongdagi gavdalantiruvchisi sanalib, u o'z navbatida, ifodalanmish sifatida tashqi struktura - sintaktik struktura orqali ifodalanadi. Demak, relyasion struktura gapning ichki tuzilishini tashkil etadi. Relyasion struktura ikki tomonlama munosabatga kirishadi. U, birinchidan, vaziyat bilan bog'langan. Ikkinchidan, konkret gaplar (jumla)ning alohida pozitsiyalariga bo'linishi bilan munosabatda bo'ladi. Boshqacha aytganda, relyasion struktura konkret

gap siktaktik shakllarning eng muhim momentlarini umumlashgan, sxematik ifodasi bo'lib, zazpyat elementlari bilan konkret gap elementlari o'rtasidagi oraliq zvenoni tashkil etadi.

Relyasion struktura tildan tashqaridagi vaziyat tuzilishini gavdalantiruvchi bir butunlikdir. Uning elementlarini I.P.Susov relyatema deb nomlaydi. Relyatema zaziyatning alohida elemektlarini - predmetlar va belgilarni umumlashgan tarzda aks ettiradi. Relyasion struktura ham xuddi vaziyat elementlari kabi predmet va belgi relyatemalarga ajraladi. Belgi relyatemalar o'z navbatida, turli darajalarga (ranglarga) bo'linadi (birinchi, ikkinchi, uchinchi). Predmet relyatemalar nol' darajaga ega. Birinchi darajali belgi relyatemasi bevosita predmet relyatemasi bilan, ikkinchi darajali belgi relyatemasi birinchi darajali belgi relyatemasi bilan, uchinchi darajali belgi relyatemasi ikkinchi darajali belgi relyatemasi bilan munosabatda bo'ladi. Shunday qilib, relyasion struktura ham bosqichni tashkil qiladi.

Relyasion struktura elementlari vaziyat elementlarining ongdagi in'ikosi bo'lidan relyatema vazifasi ham vaziyat elementlari vazifasiga muvofiq belgilanadi: a) boshlang'ich predmet relyatemalari (agens va agens bo'limgan); b) yakunlovchi predmet relyatemalari (patsiyens, o'rin); v) yordamchi predmet relyatemalari (o'rin, qurol-vosita). Hammasi bo'lib sakkizta predmet relyatemalar va sakkizta belgi relyatemalari, jami 16 ta relyatema ajratiladi . I.P.Susov relyasion strukturada yadro relyatmani relyator unga ergashib kelgan relyatmani esa relyat termini bilan nomlaydi. Relyat relyator valentligini reallashtiradi. I.P.SUSOV taklif etgan relyat-relyator strukturasi V.A.Bogdanovning argument-predikat tuzilishiga yaqin keladi. Shuning uchun ham relyasion strukturani predikat va uning argumentlari asosida ham izohlash mumkin. Demak, relyasion struktura gap hosil qilish jarayonini predikativ va modifikatsion aspektga ega bo'limgan bosqichini ifodalaydi.

I.P.Rospopov ham gapning ko'p pog'onali ekanligini tan olgan holda, konstruktiv-sintaktik va kommunikativ-sintaktik sathlarga ajratadi. Qonstruktiv-sintaktik sath gapning zaruriy qismi bo'lsa ham, lekin hali gap emas. Gapning o'ziga

xos asosiy belgilari kommunikativ-sintaktik sath birliklari bo'lgan modallik va aktuallik konstruktiv-sintaktik baza ustiga qo'shilgandagina uni gapga aylantiradi.

Hozirgi tilshunoslikda gap orqali ifodalangan relyasion struktura ikki xil belgilanadi. Bir o'rinda axborot strukturasi sub'ekt-predikat tuzilma holida, ikkinchisida ma'lum munosabat bilan bog'langan predmetlar sistemasi sifatida tasavvur qilinadi.

An'anaga ko'ra, gap hukmning so'zlar vositasida ifodalanishi deb qaraladi, shuning uchun sintaksis mantiqiy kategoriyalar asosida o'rganiladi. Har qanday hukm sub'ekt-predikat munosabatidan tashkil topadi. Shunga muvofiq, hukm ifodalangan gap mazmuni ham sub'ekt-predikat strukturalarga ajratiladi. Sub'ekt ega va ega guruhiga, predikat kesim va kesim guruhiga tenglashtirildi: Men Q keldim; Aziz asrimizning aziz onlari Q aziz odamlardan so'raydi qadrin. Birinchi gapda sub'e'kt (ega)-men, predikat (kesim) - keldim. Ikkinci gapda sub'ekt - Aziz asrimizning aziz onlari, predikat - aziz odamlardan so'raydi qadrin.

Gapda ifodalangan axborot strukturasini ma'lum munosabat bilan bog'langan predmet sistemasi sifatida belgilash hozirgi tilshunoslikning yetakchi tendensiyasidir. Bunga ko'ra gapning relyativ strukturasi (propozitsiyasi) predmet va uning predikativ belgisidan iborat bo'lgan sistema sifatida (shahar-katta; uy - baland) va ma'lum munosabat bilan bog'langan predmetlarni o'z ichiga olgan sistema sifatida tasavvur qilinadi. Masalan, o'quvchilar daraxtlarni oqladilar gapning relyativ strukturasi ikki predmet va ular o'rtasidagi munosabatdan iborat. Birinchi predmet - o'quvchilar, ikkinchi predmet - daraxtlarni, ular o'rtasidagi munosabat esa oqladilar orqali ifodalangan. Aziz asrimizning aziz onlari aziz odamlardan so'raydi qadrin gapining mazmuni o'zaro so'raydi so'zi orqali munosabatga kirishgan uch predmet (aziz asrimizning aziz onlari Q aziz odamlardan Q qadrin)ni o'z ichiga oluvchi sistemadan iborat.

L.Ten'er harakat ishtirokchilarini, ya'ni predmetlarni sub'ekt va ob'ektlarga ajratmay umumlashtirgan holda aktantlar nomi bilan atadi.

V.G.Gak ob'ektli predikat terminini kiritdi. Uning fikricha, ob'ektli predikat ikki substansiya - A va V o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi . Bu konsepsiya muvofiq, har qanday gapning relyativ strukturasi predikat va uning aktantlaridan iborat. Aktantlar (argumentlar) predikatning bo'sh o'rinarini (valentliklarini) to'ldiradi. Demak, predikat aktantlari uning valentliklari bilan bog'liq. N.I.Filicheva ta'kidlaganidek, valentlikni va uning bo'sh o'rinarini o'zida aks ettiruvchi so'z ichki tuzilishida sintaktik munosabatlarning "skeleti"ni hosil qiladi va bu skelet konkret nutqiy reallanuvdan tashqarida ham o'znni ko'rsatib turishi mumkin . Shuning uchun ham, avvalo, relyasion struktura elementlarining sintagmatik va paradigmatic munosabatlari hamda ularning konkret sintaktik struktura orqali ifodalanishi haqida bahs yuritishga to'g'ri keladi.

## SINTAGMATIKA

Relyasion "skelet" tashqi strukturada ma'lum konfiguratsion "skelet"ga, ya'ni ma'lum grammatik shakllanishga muvofiq keladi. Relyasion va konfiguratsion "skeletlar" ustma-ust qo'yilib, bog'lanish modelini hosil qiladi. Bog'lanish modelida o'zining tuzilish modeliga ko'ra asosiy va yordamchi a'zosi ajraladi. Har qanday gapning relyasion strukturasi predikat va uning argumentlari munosabati birligi sifatida talqin qilinar ekan, bu tuzilishning asosiy a'zosi predikat sanaladi.

Predikatlar, odatda, ham paradigmatic, ham sintagmatik a'zolarni o'zida aks ettiradi. Shu sababli u gap yoki uning ayrim qismlarining konstruktiv markazi sifatida maydonga chiqadi. Argumentlar esa ularning faqat umumiy sintagmatik-semantik semalarini reallashtiradi. Bu esa predikat mavhum semantik-sintaktik sintagma asosi, argumentlar esa ularning semantik valentliklarini konkretlashtiruvchi, reallashtiruvchi ekanligini ko'rsatadi . Demak, valentlikning tashuvchisi bo'lgan predikat gap strukturasini belgilaydi. Har qanday sintaktik aloqa reallahsgan valentlik sifatida qaraladi . Keyingi yillarda valentlik nazariyasi o'zining muammolari va terminologiyasi bilan alohida tilshunoslik sohasi sifatida ajrala boshladи. "Valentlik" termini sovet va chet el tilshunosligida bir vaqtida maydonga keldi? Bu termin 1948 yilda S.D.Katsnel'son tomonidan "Grammatik kategoriylar haqida" asarida

qo'llaniladi. So'zning gapda ma'lum tarzda reallashish va boshqa so'z bilan ma'lum aloqaga kirishish xususiyati uning sintaktik valentligi hisoblanadi . Uning ta'kidlashicha, valentlik - bu xuddi anketadagi kabi to'ldiriladigan "bo'sh o'rirlari" mavjud bo'lgan ma'no xususiyatidir. Boshqacha aytganda, valentlik ostida so'z ma'nosidan anglashiladigan yoki unda yashirin mavjud bo'lgan "bo'sh o'rin" va uni gapda ayrim so'zlar bilan to'ldirish zaruratiga ishora tushuniladi. Demak, valentlik - bu ma'lum so'zning boshqa so'zni o'ziga birlashtirish xususiyatidir .

S.D.Katsnel'son bilan deyarli bir vaqtida, ammo o'zi mustaqil ravishda fransuz tilshunosi L.Ten'er ham 50-yillarning boshlarida tobelik grammatikasi doirasida valentlik nazariyasini ishlab chiqdi. L.Ten'erning bu nazariyasi jahon tilshunosligiga keng tarqaldi va yangi-yangi tadqiqotlarning vujudga kelishiga turtki bo'ldi. Hozirgi kunda valentlik masalasi bilan MDH, Germaniya va boshqa bir qator mamlakat tilshunoslari shug'ullanmoqdalar .

Tilshunoslар tomonidan "valentlik" termini faqat so'zlargagina emas, balki morfema, so'z yasalishi va gaplarga nisbatan ham qo'llanilmoqda: morfema valentligi ("ichki valentlik"), gap valentligi va boshq.

L.Ten'er o'zining grammatikasida gapni tuzilish jihatdan tahlil qilish jarayonida gapning tuzilish asosi sifatida fe'lga tayandi.

Fe'l valentligi nazariyasi har qanday gap asosida fe'l yotadi, degan konsepsiya natijasidir. Bunga ko'ra gap tuzilishini predikat (ko'p hollarda fe'l dan ifodalangan) belgilaydi va u o'ziga muvofiq kategorial belgilarga o'ren ochadi. Gapning barcha qismlari fe'l predikat munosabatiga ko'ra unga bog'liq (tobe) qismlarga (ular turli terminlar bilan yuritiladi: aktantlar, argumentlar, to'ldiruvchilar, partnerlar, komplementlar va boshq.) va erkin qismlarga (ular ham turlicha nomlanadi: sirkonstantlar, erkin kengaytiruvchilar, hollar, ad'yunktlar) bo'linadi.

Valentlik nazariyasi jahon tilshunosligida keng yoyilishiga qaramasdan, hali uning bir qator cheklangan tomonlari bor edi. Xususan, valentlikni belgilashning aniq o'lchovi yo'q edi. Natijada birikma tarkibidagi tobe qismga valentlik asosida bog'langanligi yoki erkin bog'langanligini chegaralash qiyin bo'ldi. Kuzatishlar

natijasida ma'lum bo'ldiki, ayrim so'zlar o'z qurshovida "ochiq o'rin"ga ega bo'lsalar ham, ammo ma'lum shart-sharoitlarda uning to'ldirilishi talab etilmaydi. Shuning uchun ham ma'lum o'lchov asosida obligator va fakul'tativ valentliklarni chegaralash zaruriyati tug'ildi. Natijada 60-yillarda valentlik nazariyasini bo'yicha yana keng munozara boshlanib ketdi. Munozara, eng avvalo, valentlik nazariyasidagi markaziy masalaga - valentlik munosabatining sathlari va sathlararo munosabatlarga qaratildi.

Valentlik nazariyasining mukammallashishida G.Xel'big katta rol' o'ynaydi. Unemis tili materiallari asosida fe'lning valentlik modellarini ishlab chiqdi va "Nemis tilidagi fe'l valentliklari va Distributsiyasi lug'ati"ni tuzdi. Bu modellar dastlab faqat bir so'z turkumi - fe'l asosida belgilangan bo'lsa, 70-yillarda valentlik modellarini faqat fe'l asosidagina emas, balki boshqa so'zlar asosida ham belgilash mumkinligi ma'lum bo'ldi.

Dastlab valentlik nazariyasida valentlik tabiatini turlicha hal qiladigan ikki yo'nalish-shakliy va mazmuniy yo'nalish ajraldi. Keyingi davrlarda bu ikki yo'nalish orasida o'zaro yaqinlashish, so'z shakli va uning leksik ma'nosining valentliklari o'rtasidagi munosabatning mavjudligiga e'tibor berilyapti. Shunday bo'lishiga qaramasdan, bu munosabatning xarakteri turlicha baholanmoqda. Natijada valentlikning ko'p sathliligi haqidagi tushuncha maydonga keldi. Xususan, G.Xel'big mantiqiy-grammatik (logik), mazmuniy va sintaktik valentliklarga ajratadi. G.Xel'bigning fikriga ko'ra, mantiqiy valentlik - bu tushunchalar mazmuni o'rtasidagi tildan tashqaridagi (ekstralengvistik) munosabatlar; mazmuniy valentlik mazmuniy a'zolarning (semalarning) bog'lanish imkoniyati; sintaktik valentlik ma'lum tur va sonning ma'lum bir tilda farq qiladigan ochik, pozitsiyalarining zaruriy va qo'shimcha to'ldirilishidir. G.Xel'big valentlik sathlarining mustakilligini ta'kidlaydi. Mantiqiy-semantik valentlik sintaktik valentlikni faqat oldindan belgilaydi, ammo hech qachon uni tamoman belgilamaydi . S.D.Katsnel'son mazmuniy valentlik (soderjatel'naya valentnost') va shakliy (formal) valentlikka ajratadi . Mazmuniy valentlik ichki-semantik planni aks ettiradi va tipologik nuqtai nazardan predikat va uning argumentlari sifatida tavsiflanadigan relyasion strukturadir.

Shakliy valentlik mazmuniy valentlikning ifodalanish shaklidir . Shakliy valentlik ma'lum so'z shakli bilan bog'lanadi va ma'lum bir tilning sintaktik morfologiyasi elementi bilan shartlanadi. Semantik (mazmuniy) valentlik esa so'zning ma'nosiga aloqador u va, tabiyiki, morfologiyaga hech qanday tobeligi bo'lmaydi .

Hozirgi kunda ko'proq sintaktik (konfiguratsion) valentlik va semantik valentlik ajratilmoqda . Sintaktik valentlik bu ma'lum mustaqil so'zning boshqa mustaqil so'z bilan birika olish imkoniyatidir. U ma'lum aloqalar struktur sxemasi (konfigurasi)da aks etadi. Sintaktik valentlik so'z ma'nosi bilan bog'langan, demak, u semantik valentlik bilan chambarchas bog'liqdir. Semantik valentlik leksemalar o'rtasidagi turli sintagmatik munosabatlarni ko'rsatadi. Masalan: o'zbek tilida sayramoq leksemasi "qushlarning ovoz chiqarishi" ma'nosini ifodalaydi. Shuning uchuk ham xuddi shu semasi bilan faqat qushlar so'zi bilangina bog'lana oladi. Ammo u ikkinchi semani ham "tez va ko'p gapirish" semasini ham ifodalaydi. Bu semasi bilan "odam" sinfiga kiruvchi leksemalar bilan ham bog'lana oladi. Bu sayramoq leksemasining semantik valentliklaridir. Anglashiladiki, sintaktik va semantik valentlik dialektik birlikni hosil qiladi va o'zaro bir-biriga o'tishi mumkin .

So'zlar valentligi va bo'sh o'ren bilan ichki tuzilishida sintaktik munosabatlarning "skeletini" tashkil etadi. Uning nutqda reallashish natijasida konfiguratsion "skelet" qo'shiladi. Relyasion va konfiguratsion "skelet" qo'shilib so'z birikmasi modelini hosil qiladi. So'z birikmasi modeli ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, bir tomonidan, sintaktik shaklga (konfguratsiya, struktur sxemaga) hamda umumlashgan siktaktik ma'noga (sintaktik munosabatlar konfiguratsiyasidan ifodalanuvchi) ega. So'z birikmasi doirasida bosh (yadro) va ergash a'zo (ad'yunkt), yoki a'zolar ajratiladi. Bosh a'zoning morfologik shakllanishi bu birikmaning ichki tuzilishi uchun qimmatga ega emas (qaratqich-qaralmish munosabati bundan mustasno). U butun gap sostaviga qo'shilganda boshqa qismga ergash pozitsiyada kelib, boshqacha qimmatga ega bo'ladi. Aksincha, yordamchi a'zoning boshqacha morfologik shakllanishi birikma ichki tuzilishi uchun muhimdir. U ham bosh a'zoga sintaktik tobekliki, ham tobe qismni bosh qismga nisbatan sintaktik vazifasini

belgilaydi. Ergash qism birikma strukturasida ma'lum sintaktik vazifada kelgan so'zning ma'lum grammatik shakl, ya'ni so'zning sintaktik shakli sifatida ishtirok etadi . Gapning semantik va struktur markazi predikat bo'lganligi tufayli, avvalo predikat haqida to'xtalishga to'g'ri keladi.

### **PREDIKAT**

Predikat ham semantik, ham mantiqiy, ham grammatik tushunchadir. Semantik tushuncha sifatida predikat - har qanday sintaktik qurilmaning nominativ asosi. Grammatik tushuncha sifatida predikat o'zi boshqarib kelayotgan sintaktik elementlarnpng markazi. Mantiqiy tushuncha sifatida fikrning sub'ekt belgisini bildiruvchi qismi. Gaplearning propozitiv strukturasini predikat va uning argumentlari (semantik aktantlari)dan tashkil topgan predikat ifoda sifatida modellashtirish ko'prok odat tusiga kirib bormoqda . Demak, predikat va uning argumentlari (unga ergashib keluvchi sintaktik elementlar) birligp predikat ifodani (PI) tashkil etadi. Ya'ni PI q Q R4-A. Har qanday predikat ifodani shakllantirishda xizmat qiladigan markaziy element predikatdir. Predikat ifodalar miqdori predikatga qarab belgidanadi. Ma'lum sintaktik butunlik tarkibida qancha predikat bo'lsa, u shuncha predikat ifodadan iborat bo'ladi. Predikat ifoda gap uchun asos rolini o'ynasa ham, ya'ni har kanday gap predikat ifodadan tashkil topsa ham, ammo har kanday predikat ifoda gap bo'la bermaydi. PI gap bo'lib shakllana olishi uchun u gapning eng muhim grammatik-semantik belgisiga - predikativlikka ega bo'lishi kerak. Predikat predikativlik bilan chambarchas bog'liqdir. Har qanday predikativlik predikat asosida shakllanadi. Predikativlik shakllari predikatga qo'shiladi. Shuning uchun ham predikativlikni o'zida aks ettirgan har qanday predikatning o'zi eng kichik gap hisoblanadi.

Demak, predikat propozitsiv struktraning markaziy elementidir. Shunday bo'lishiga qaramasdan tilshunoslikda predikat maqomi masalasida bir xillik yo'q. Juda ko'p adabiyotlarda predikat fe'lga nisbat beriladi, Uning ekvivalenti sifatida talkin qilinadi. Masalan, Yu.S.Stepanov fikriga ko'ra, fe'l - bu predikatdir. Fe'l lug'atning murakkab (kompleks) birligi bo'lib, birinchidan, ayrim predikatni, ikkinchidan, gap tarkibida shu predikatga kiruvchi otning ayrim mazmuniy belgilarini ifodalaydi .

V.B.Kasevich va V.S.Xrakovskiylar ham predikatga xuddi shunday munosabatda bo'ladilar. Xususan, ular predikat aktaptlari (PA) haqida fikr yuritib, ular asosan fe'llar, fe'lli oborotlar orqali ifodalanishini aytadilar. Mualliflar fe'lga qaram bo'lgan, uning majburiy valentligini to'ldiruvchi sintaktik qurilmaning elementini sintaktik aktantlar hisoblaydilar va uni fe'lning mazmuniy valentligi bilan bog'lanmagan sirkonstantlarga qarama-qarshi ko'yadilar. Ayrim lingvistlar predikat termini ostida faqat fe'lni emas, balki keng ma'noda otlarni ham birlashtiradilar. Predikatlarni mustaqil va yordamchi predikatlarga bo'ladilar. Birinchi tipdag'i predikatlarga fe'l, sifat, ravish, holat bildiruvchi so'zlar va mavhum otlar kiritiladi. Ikkinci tipdag'i predikatlarga esa ayrim ko'makchilar. bog'lovchilar, propozitsional bog'lamalar, kvantorlar, grammatik kategoriyalar mansub ekanligini ko'rsatadilar. Hamma predikatlarning umumiyoq oppozitsiyasi statiklik - dinamiklik farqlovchi belgisiga ko'ra ikki katta guruhga ajratilishi juda ko'p adabiyotlarda tan olinadi. Rus grammatikalarida yuqoridagi oppozitsiya eng umumi farqlovchi belgi sifatida qaralib, predikatlarning fe'l va fe'l bo'lмаган so'zlar orqali ifodalanishiga asos bo'ladi. Ko'rinish turibdiki, predikatlar propozitsiyaning markaziy elementi (predikat va uning argumentlari modelida bo'lganda) yoki shu propozitsiyaning o'zidir (nol' valentli predikat modelida bo'lganida). Predikatlar fe'llar va fe'l bo'lмаган (keng ma'noda otlar, yoki belgi bildiruvchi so'zlar) so'z shakllari orqali ifodalanadi. Shuning uchun ham u, avvalo fe'l predikatlar va ot predikatlarga bo'linadi.

Yuqorida aytilganidek, fe'llar gapda doimo predikat bo'lib keladi. Propozitsiyaning birlamchi ifodalovchisi bo'lgan, grammatik to'la shakllangan fe'l asosan gaplarda fe'ldan ifodalangan sintaksema ikki xil vazifa bajaradi: 1) gap elementlarini tashkil etish (bog'lash), 2) gapni gap qilib shakllantirish. E.Benvenist fe'lning gap tarkibidagi birinchi vazifasini aloqa vazifasi, ikkinchisini esa tasdiq vazifasi, deb ataydi. Fe'lning gapda doimo predikat vazifasida kelganligi uchun fe'l predikatlarni belgilash hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Ammo ot doimo predikat vazifasida kela bermaydi. Otlar ikki xil vazifada - predikat va predikat

(argument) belgilar sifatida kelishi mumkin. Shuning uchun ham quyida ko'proq ot predikatlarga e'tiborni qaratamiz.

V.V.Bogdanov predikat va noperedikat belgilar o'rtasidagi farq butun til sistemasiga ta'sir etishini hamda bu farq ob'ektiv borliq antologiyasi bilan bog'liq ekanligini, shuning uchun ham u faqat lingvistik ahamiyatgina emas, balki mantiqiy va umumfalsafiy ahamiyat ham kasb etishini bayon qiladi .

Hozirgi falsafiy ob'ektiv borliqning ikki konsepsiysi keng tarmoq otdi. Ulardan biri avstriya faylasuf neopozitivisti L.Vitgenshteyn nomi bilan bog'liqdir. Bu konsepsiyaning mohiyati shundan iboratki, ob'ektiv dunyo moddiy yig'indi sifatida emas, balki faktlar yig'indisi sifatida qaraladi. Jumladan, L. Vitgenshteynnning "Mantiqiy - falsafiy traktat" asarida "1. 1. Dunyo narsalar yig'indisi emas, balki faktlar yig'indisidir", "1. 2. Dunyo faktlarga ajraladi", - degan tezis bayon qilinadi .

Barcha faktlarni u elementar va murakkab yoki molekulyar faktlarga bo'ladi. Elementar fakt, uning fikricha, ob'ektlar (narsalar, predmetlar) bog'lanishidir. Masalan, "Suqrot dono bo'lgani", "Suqrot afinalik bo'lgan" va boshqa gaplarning har qaysisi bittadan elementar faktni ifodalaydi. Elementar faktlar molekulyar fakt uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan yuqoridagi har qaysi elementar faktni ifodalagan gaplar molekulyar faktni ifodalovchi Suqrot, dono, afinalik bo'lgan gapning qismlari hisoblanadi.

Sovet falsafiy adabiyotlarida L.Vitgenshteynnning dunyoning bunday faktologik konsepsiyasini qattiq tanqid qilgan holda, A.I.Uemovning "narsa, xususiyat va munosabat" konsepsiysi keng o'rinni oldi. Bu konsepsiya ko'ra, ob'ektiv borliqning asosiy kategoriyalari narsa, xususiyat va munosabat hisoblanadi. Faqat narsalargina emas, balki xususiyat va munosabatlar ham ob'ektiv mavjuddir. Bu kategoriyalar ichida markaziy va eng asosiy kategoriya "narsa"dir. Chunki xususiyat va munosabatga nisbatan narsa ko'proq nisbiy mustaqillikka ega.

L.Vitgenshteyn ham narsaning ob'ektiv mavjudligini inkor etmaydi. Ammo u faktini narsadan ustun qo'yadi. A.I.Uemov fikricha esa, xususiyat, munosabat hamda ular asosida shakllanadigan fakt ham narsaga nisbatan ikkilamchidir. Darhaqiqat, fakt

- bu narsaning xususiyat va munosabati bilan ko'rinishidir. Ammo har qanday xususiyat va munosabat narsaga nisbatan ikkilamchidir, narsaning belgilaridir. Belgi haqida gapirish uchun, avvalo, bu belgiga ega bo'lgan narsa mavjud bo'lishi kerak.

Real borliq tafakkurda, demakki, mantiqiy kategoriyalarda va tilda o'z aksini topadi. L.Vitgenshteyn shu munosabat bilan mantiqiy obrazlar yoki propozitsiyalar haqida fikr yuritadi. Gapni propozitiv (propozitsional) belgi deb hisoblaydi. U kichik faktlarni ifodalovchi gaplarni "elementar gaplar" deydi. Uning fikricha, elementar gaplar o'zaro propozitsional bog'lamalar vositasida bog'lanib molekulyar faktlarni ifodalovchi kompleks gaplarga aylanishi mumkin.

A.I.Uemov konsepsiyasida narsaga sub'ekt; xususiyat va munosabatga esa predikat muvofiq keladi. V.V.Bogdanov A.I.Uemov konsepsiyasiga qo'shilgan holda, har qanday elementar gapda ikki xil ot (imena); ma'lum bir otning xususiyatini yoki boshqa otlar o'rtaсидagi munosabatlarni ifodalovchi otlar hamda o'zaro bog'lanayotgan otlarning o'zi mavjudligini ta'kidlaydi.

Ulardan birinchisini predikat belgilar, ikkinchisini noperpredikat belgilar, deb hisoblaydi. Noperpredikat belgilar predikat belgining argumentlari hisoblanadi.

Yu.S.Stepanov shuning uchun "predikatlar - bu alohida semantik mohiyat bo'lib, uning kategorizatsiyasi borliqning ob'ektiv hodisalarining umumlashmasini ko'rsatadi" , - deydi.

Tilshunoslar tomonidan juda ko'p ta'kidlanganidek, lingvistikada shu vaqtta qadar predikatlarning farqlovchi ma'no qismlarining aniq miqdoriga asoslangan, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan semantik tasnifi mavjud emas . O'tgan o'n yillikda xuddi shunday tasnifni yaratish yo'lida qadam qo'yildi. G.B.Alisovaning ko'rsatilgan asari ham xuddi shunday urinishlardan biridir. Ayniqsa, keyingi yillarda predikat tasnifiga bag'ishlangan bir qator asarlar maydonga keldi .

Predikatlar tasnifi yuzasidan qilingan dastlabki tadqiqotlar orasida L.V.Shcherbaning ishlari alohida o'rin egallaydi. U rus tilidagi predikatlarni uchga: 1) harakat, 2) holat va 3) xususiyat ma'noli predikatlarga ajratadi.

L.V.Shcherbaning predikatlar haqidagi goyasi rus tilshunosligida keng o'rin oldi. Xususan, V.V.Vinogradov tomonidan yanada rivojlantirildi. B.A.Il'in esa uning fikrlarini ingliz tili materiallariga tadbik etdi.

Predikatlar tasnifida ko'pincha "aktivlik" - "demiaktivlik" belgisiga ham e'tibor berildi. Ammo bu belgi tilshunoslар o'rtasida bir xil tushunilmaydi. Xususan, P.Valezio ushbu oppozitsiyani daraja (nisbat) oppozitsiyasi bilan tenglashtiradi. O'zbek tilida ham "u yozdi", "u o'qiyapti" bilan "o't yondi", "qor yaltiraydi" gaplaridagi predikatlar "aktivlik - demitativlik" belgisiga ko'ra oppozitsiyaga kirishadi.

Gapning ma'no tiplari ham predikatga qarab belgilanadi. Chunki gap ob'ektiv borliq hodiyealari o'rtasidagi kategorial aloqalarni aks ettirib, uning umumlashgan ma'nolari (ma'no tiplari) eng avvalo predikatning kategorial-grammatik xarakterida namoyon bo'ladi .

Predikatlar tasnifiga tayangan holda gapning ham quyidagi asosiy mazmuniy-grammatik modellarini va umumlashgan ma'nolarini belgilash mumkin.

Predikat otlarning xarakterli xususiyatlari, ularning semantik tasnifi, ot asosli gaplar tasnifidagi roli ham tilshunoslikda yaxshi o'r ganilmagan.

Rus tilshunosligida N.D.Artuyunova va Ye.N.Shiryaevlar rus tilidagi mavjudlikni ifodadovchi gaplarni tadqiq qilish jarayonida, bu gaplarning struktur markazi bo'lgan predikat otlarni mazmuniy guruhlarga ajratadi .

O'zbek tilidagi ot asosli gaplar ham maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lganicha yo'q. Bunday gaplarni chuqur o'rganish va bu gaplarning semantik-grammatik markazi bo'lgan predikat - otlarni tasniflash o'zbek tilshunosligining navbatdagi vazifasidir.

### Sub'ekt Predikat

Shaxs	Predmet	Fe'l	Ravish	Belgi	Ot	Miqdor
-------	---------	------	--------	-------	----	--------

Umumlashgan ma'nolari

Akam	ishlayapti	ishda repititsiyada	Sub'ek
harakati			
dastgoh			

Akamda	ishlayapti	repititsiya
--------	------------	-------------

Biz o'zbek tilidagi predikat otlarni quyidagi ma'no turlariga ajratamiz: xarakterlovchi, tasniflovchi, munosabat, zamon, o'rinni va miqdor predikatlar.

Xarakterlovchi predikatlar. Bu predikat predmetga xos doimiy belgini ko'rsatadi: Ahmad - yolg'onchi (a'luchi, botir, sodda va boshq.)

Tasniflovchi predikatlar. Bunday predikat vazifasida konkret otlar keladi. Konkret otlar predikat pozitsiyasida qo'llanib, bu predikatni ma'lum sinfga mansubligini ko'rsatadi: Kit - sut emizuvchi. Bu gul - atirgul va boshq.

Munosabat predikatlar. Bunday predikatlar predikat ifodalagan ob'ektning boshqa ob'ektga munosabatini ifodalaydi: Salim aka - Qarimning otasi. U mening ukam.

O'rinni predikatlar. Predmet va uning joylashgan o'rni o'rtasidagi munosabatni bildiradi: Ukam mакtabda. Hayolim senda.

Zamon predikatlar. Predmet va uning mavjudlik vaqtini o'rtasidagi munosabatni ko'rsatadi: Majlis - bugun, Kino - soat to'rtida va boshq.

Miqdor predikatlar. Predmet va uning miqdori o'rtasidagi munosabatni ko'rsatadi: Farzanddan beshta, suv ko'p va boshq. Predikatlarning bunday mazmuniy tiplari ot asosli gaplarning mazmuniy tasnifi uchun ham tayanch rolini o'ynaydi: mavjudlik bildiruvchi (ekzistensional) gaplar; xarakterlovchi gaplar; tenglashtiruvchi gaplar va boshq.

## FE'L PREDIKATLAR

Fe'lning leksik ma'nosi ma'lum leksik-semantik tipning vakili bo'lib, u o'zida ma'lum ot kategoriyasi bilan birlashishga xoslangan kategorial belgini ham aks ettiradi. Shu bilan birga fe'llar o'z ichida ma'lum ma'no asosida birlashgan mazmuniy maydonlarni ham hosil qiladi. Shunday qilib, fe'l gapning ham mazmuniy, ham grammatik markazini tashkil qiladi. Shuning uchun ham u faqat leksik, morfologik jihatdangina emas, sintaktik nuqtai nazardan ham e'tibor markazida turadi. S.D.Katsnel'sonning ta'kidlashicha, ma'no planida fe'l predikatlar oddiy leksik

ma'noga nisbatan kengroqdir. Fe'l predikatlar ma'lum leksik ma'noni ifodalash bilan bir qatorda, u o'zida bo'lajak gap maketini ham aks ettiradi. Fe'l predikatlar ma'lum "bo'sh o'rin" larga ega bo'lishi bilan birga, o'zi ham mazmuniy jihatdan ma'lum mazmuniy paradigmaga mansub bo'ladi.

Hozirgi tilshunoslikda fe'llarning hamma e'tirof etgan mazmuniy tasnifi mavjud emas. Turli prinsipga ko'ra turlicha tasnif qilinadi (denotativ, paradigmatisk va sintagmatik aspektida).

Paradigmatik nuqtai nazardan, fe'l invariant ma'noga ko'ra tasnif qilinadi. Bunga muvsfiq harakat (faoliyat), holat, xususiyat, munosabat fe'llariga ajratiladi . Fe'l predikatlarning bu semantik maydonlari o'z ichida yana mikromaydonlarni tashkil qiladi. Xususan, faoliyat fe'llarini, o'z navbatida, ruhiy faoliyat, nutqiy faoliyat, mehnat faoliyati va boshqa mikromaydonlarga bo'lish mumkin. Ruhiy faoliyat fe'llarni, o'z navbatida, yanada kichikroq mikromaydonlarga bo'lish mumkin: 1) sezish (his qilish) fe'llari (sezmoq, his qilmoq); 2) xohish fe'llari (istamoq, xohlamоq); 3) idrok qilish fe'llari: a) umumiy idrok (anglamoq, bilmоq); b) ko'rish idroki (ko'rmoq, ko'r bo'lmoq); v) eshitish idroki (eshitmoq, kar bo'lmoq, qulog'i og'ir bo'lmoq); g) hidlash fe'llari (sezmoq, siypalamоq); 4) e'tibor fe'llari (e'tibor qilmoq, e'tibor bilan eshitmoq);

5) emotsiyal kechinma fe'llari (to'ymоq);

6) emotsiyal munosabat fe'llari (sevmoq, hurmat qilmoq, yoqmoq);

7) fikrlash fe'llari (fikrlamoq, o'yylamoq, tasavvur qilmoq, taxmin qilmoq, yanglishmoq, xato qilmoq);

8) sezish fe'llari (bilmoq, o'zlashtirmоq, egallamoq);

9) xotira fe'llari (eslatmoq, esdan chiqarmоq).

I.Qo'chqortoyev o'zbek tili nutq fe'llarini quyidagi to'qqiz guruhga tasnif qiladi

1) demoq fe'li;

2) gapirish fe'llari (gapirmоq, bayon qilmoq, hikoya qilmoq, lof urmoq);

3) xabar fe'llari (aytmoq, bildirmоq, ma'lum qilmoq);

- 4) nutqning talaffuz xarakteri (baqirmoq, bobillamoq, gangimoq, bidirlamoq, chivirlamok,);
- 5) nutqiy simmetrik fe'lllar (chaqchaqlashmoq, gaplashmoq, suhbatlashmoq, dardlashmoq);
- 6) nutqiy kontakt fe'llari (so'ramoq, surishtirmoq, e'tiroz bildirmoq, inkor qilmoq);
- 7) nutqiy baho fe'llari (maqtamoq, yomonlamoq);
- 8) nutqiy da'vat fe'llari (undamoq, da'vat etmoq. targ'ib qilmoq);
- 9) jim bo'lish fe'llari (indamaslik, sukut qilmoq, tek turmoq).

Bir semantik maydonga mansub bo'lgan predikatlar o'zaro valentlik nuqtai nazardan farq qilishi mumkin. Masalan, so'ramoq, surishtirmoq, e'tiroz bildirmok inkor qilmoq fe'llari valentlik belgisiga ko'ra o'zaro farqlanadi. So'ramoq, surshitirmoq fe'llari ikki valentlikka - sub'ekt va ob'ekt valentliklarga ega bo'lib, ularning birinchisini bosh va ikkinchisini tushum kelishigida kelishini taqozo etsa: so'radi, surishtirdi, e'tiroz bildirmoq, izhor qilmoq fe'llari ham ikki valentli bo'lishiga qaramay, argumentlardan birini bosh va ikkinchisini jo'nalish kelishigida kelishini talab qiladi (Lolaga e'tiroz bildirdi).

## **ARGUMENTLAR**

Propozitiv strukturaning asosiy uzvlari predikat va uning argumentlari sanaladi. Bu uzvlarning har qaysisi o'zlariga xos xususiyatlarga ham egadir. Predikat sememasining xarakterli xususiyati Ma'lum miqdordagi argument sememalar bilan bog'lanish imkoniyatiga ega bo'lishidir. Bu imkoniyat ularning semantik valentligi yoki "o'rinnari" sanaladi. Predikatlar bunday xususiyatiga ko'ra nol' o'rinni (valentli), bir o'rinni (valentli) va ko'p o'rinni (valentli) turlarga bo'linadi. Nol' o'rinni predikatlar tabiatning fazoviy holatini tavsiflaydi. Bir valentli predikatlar harakat, holat xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Lekin ular munosabatni ifodalay olmaydi. Qo'p valentli predikatlar esa yuqoridagi predikatlardan farqli ravishda munosabatni ham ifodalay oladi .

Argumentlar predikatlarning bo'sh o'rinlarini to'ldirib keladi. Predikat va uning argumentlari munosabati sintaktik modellarni vujudga keltiradi. Sintaktik modellar ma'lum sintaktik ma'no asosida ma'lum sintaktik maydonni hosil qiladi. Sintaktik maydon termini ostida ob'ektiv reallik munosabatlarini umumlashgan tarzda aks ettiruvchi sintaktik ma'nolar yaqinligi asosida sintaktik modellarning guruhlanishini tushunamiz . Maydon o'zaro sintaktik munosabatdagi tobe qismning hokim qismga nisbatan pozitsiyasiga ko'ra belgilanadi. Gapning mazmuniy va tuzilish markazi predikat bo'lganligidan maydon ham predikat va uning argumentlari asosida belgilanadi.

## **BIR PREDIKATLI QURILMALAR**

Argument pozitsiyasida noperedikat belgilar kelgan sintaktik qurilmalar bir predikatli qurilmalar sanaladi.

Argument pozitsiyasida kelgan noperedikat belgilar turli mazmuniy vazifalarni bajaradi va shunga muvofiq argument-predikat munosabatlari turli mazmuniy maydonlarni hosil qiladi. Bu maydonlar (makromaydonlar) bir butun sifatida o'z ichida ma'lum mikromaydonlarga bo'linishi mumkin.

### **SUB'EKTLILIK MIKROMAYDONI**

Lingvistik nazariyalarning rivojlanish jarayoni bilan sub'ekt tushunchasi eng tortishuvli masalalardan biriga aylanib qoldi .

Tilshunoslikning hozirgi davrida sub'eqt tushunchasi sintaksis va semantikaning o'zaro munosabatini o'rganish nuqtai nazaridan ko'proq e'tiborni jalb etmoqda. Grammatik ega (sintaktik struktura birligi) ko'pincha semantik sub'ekt (semantik struktura birligi) bilan mos kelmasligi mumkin. Bu nomuvofiqlik ikki struktura elementlarini alohida-alohida o'rganishga asos bo'ldi. Bunday yondashish tahlil nuqtai nazaridan, darhaqiqat, o'zini oqlaydi. Ammo aloqa-aratashuv jarayonida gap bir butun struktura sifatida funksiyalashadi. Bu esa lingvistlar oldiga gap qismlari rollariga faqat analitik xarakteristikagipa emas, balki sintaktik xarakteristika ham berish vazifasivi yuklaydi . Shunga muvofiq, semantik-sintaktik sub'ekt

kategoriyasini gapning bir butun tuzilishida aniqlash masalasini qo'yishga zarurat pishib yetdi, deydi. G.A.Zolotova. Ammo D.D.Voronina G.A.Zolotovaii gapning semantik strukturasidagi sub'ekt maqomini aniq tasavvur etmaslikda ayblaydi.

Har ikki muallif ham sub'ektni gap semantik tuzilishining eng muhim kategoriyasi, predikativ belgining tashuvchisi (faqat predikativ belgini, chunki xuddi shu belgi sub'ekt haqida tasabvur uyg'otadi) hisoblaydilar. Gap sub'ekt-predikat tuzilishining substansional qismidir. Sub'ektning substansionalligi uning predmet ma'nosini ot bilan ifodalanishini taqozo etadi.

Mavjud grammatik adabiyotlarda sub'ekt termini xilma-xil talqin etiladi. Bu o'rinda bu termin ostida ega, boshqasida harakat qiluvchi (deyatel'), yaia boshqasida belgini yaratuvchi (proizvoditel' priznaka) ma'nolari tushuniladi. Bular ichida sub'ekt bilan egani tenglashtirish eng ko'p uchraydi. Egani sub'ekt tushunchasi orqali belgilash faqat normativ grammatikalardagina emas, balki maxsus taddiqotlarda ham juda ko'p tarqalgan . Xususan, akademik I.I.Meshchaninov egani shunday ta'riflaydi: "...sub'ektni ifodalovchi alohida gap bo'lagi ega deyiladi" . A.I.Smirinskiy ham sub'ekt gapda ega orqali ifodalanishini, o'z navbatida, ega sub'ektni ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi ekanligini ko'rsatadi.

Ayrim adabiyotlarda sub'ekt gapning egasi yoki to'ldiruvchisiga mos kelishiga ko'ra, gaplar ikkiga - aktiv va passiv qurilmalarga bo'linadi. Aktiv qurilmalarda ega sub'ektni ifodalashi, passiv qurilmalarda esa to'ldiruvchi sub'ektni (agensni) ifodalashi ko'rsatiladi. Shu bilan birga sub'ekt termini ostida rang-barang tushunchalar birlashtiriladi: harakatni hosil qiluvchi, belgi egasi, holat egasi va boshq.

Sub'ekt predikat bilan dialektik bog'langan . Chunki u predikat ifodalagan belgining egasi, predikat esa sub'ekt belgisini bildiradi. Ammo predikat markaziy element (semantik markaz) bo'lib, sub'ektni ham ko'rsatib turadi .

Predikat grammatik jihatdan faqat kesim pozitsiyasida kelmaganidek, sub'ekt ham faqat ega pozitsiyasida kelmaydi. U turli kelishik shakllaridagi otlar bilan ifodalanib, turli sintaktik pozitsiyada kelishi mumkin. Shunday bo'lishiga qaramasdan, o'zbek tilshunosligidagi sintaksisga bag'ishlangan ishlarda sub'ekt va ega

tushunchalarini aralashtirish hollari uchraydi. Xususan, o'zbek tilidagi kursimizda hamma millatdan bor tipidagi misollarda chiqish kelishigidagi "millatdan" bo'lagi "bor" so'zidan (predikatdan) anglashilgan belgining tashuvchisi bo'lganligi uchun ega bo'ladi, deyiladi.

Semantik sub'ekt va predikat tushunchalari mantiqiy sub'ekt va predikat tushunchalaridan ham farq qiladi. Mantiqiy hukm grammatick gap orqali reallashadi. Demak, hukm va gap o'zaro dialektik birlikni tashkil etadi. Odatda har bir hukmda uch asosiy element: sub'ekt, predikat va bog'lovchi mavjud bo'ladi. Mantiqda hukmnинг birinchi tushunchasini hukmnинг mantiqiy egasi, ikkinchi tushunchasini-mantiqiy kesimi va bular orasidagi munosabatni vujudga keltiruvchi hukm elementini hukm bog'lovchisi deyiladi. Hukmnинг umumiy sxemasi S Q Pdir. Bunda S - sub'ekt, P - predikat, "-!-" esa sub'ektning predikat bilan munosabatini ko'rsatuvchi bog'lovchidir. Masalan: Mehnat unumdorligining oshishi mahsulot tannarxini kamaytiradi gapi orqali anglashilgan hukm strukturasida mehnat unumdorligining oshishi - S, mahsulot tannarxini kamaytiradi - P va S bilan P orasidagi munosabat bog'lovchidir. Gapning mantiqiy tuzilishi faqat shu uch element bilan cheklanadi.

Gapning semantik tuzilishida esa sub'ekt va predikatlardan tashqari vaziyatning boshqa elementlari ham qatnashadi. Masalan: yuqorida gapda semantik jihatdan ikki propozitsiya ifodalangan bo'lib, u quyidagi semantik birliklardan iborat: mehnat unumdorligi - sub'ekt, oshishi - predikat (birinchi propozitsiya); mahsulot tannarxi - sub'ekt, kamayadi - predikat, -tir - kauzator (ikkinchi propozitsiya). Ko'rinish turibdiki, mantiqiy sub'ekt va predikat tushunchalari bilan semantik sub'ekt va predikat tushunchalari o'zaro bog'langan bo'lsalar ham, ammo bir-biriga teng hodisalar emas.

Shu bilan birga, mantiqiy sub'ekt - predikat tushunchalari o'zaro nisbiy bog'langandir. Agar bu ikki tushunchalar yakka holatda olinadigan bo'lsa, hukm ifodalay olmaydi. Masalan: yakka olingan "kino" tushunchasi sub'ekt hukm, "san'at" tushunchasi predikat hukm bo'la olmaydi. Agar biz "kino san'atdir" desak, bunda ikki tushunchaning o'zaro dialektik munosabati ma'lum bir hukmni tashkil etadi, ya'ni bunda "kino" hukmining sub'ekt elementi, "san'at" uning predikat elementiga

aylanadi . Ammo gapning semantik tuzilishida faqat predikatning o'zi ma'lum propozitsiyani ifodalab, u sub'ektni ham ko'rsatib turishi mumkin.

Yuqorida sub'ekt juda umumiyl tushuncha ekanligi,. uning juda ko'p va xilmal xil vaziyat elementlarini o'z ichiga birlashtirishi aytib o'tildi. Ammo lingvistik adabiyotlarda sub'ektning ma'nolar sistemasi turlicha talqin qilinadi . Mavjud fikrlarni e'tiborga olib, sub'ektning quyidagi ma'nolarini ajratamiz: 1. Harakat sub'ekti. Masalan: Usta ishlayapti.

2. Holat sub'ekti. Masalan: Bola uxlayapti: Singlimda gripp, O'zgalarga rohat, menga azob.

3. Belgi tashuvchi sub'ekt. Masalan: Otam saxiy: Zavodga - ellik yil: Senda shafqat yo'q.

4. Miqdoriy aniqlovchi sub'ekt. Masalan: Suv - tizzadan: bolalardan to'rtta.

5. Egalik sub'ekti. Masalan: U boqqa egalik qiladi: Bog' unga qarashli: Unda orden.

6. Mavjudlkk sub'ekti. Masalan: Halima ishtirok etyapti: Qitoblar javonda.

7. Tematik sub'ekt. Masalan: Bizga o'ngidan keldi.

8. Qiyyoslanuvchi sub'ekt. Masalan: Volga Dondan uzunroq: Akasi ukasidan esliroq. Bunday konstruksiyalar minimum uch komponentln bo'ladi.

9. To'dalik sub'ekti. Bunday vaqtida predikat predmet turini (klasslarini) ifodalovchi otdan ifodalanadi. Masalan: Akam - dengizchi: Bo'ri - vahshiy (ya'nig bo'ri vahshiyilar sinfiga kiradi).

10. Funksiyalashayotgan sub'ekt. Bunday konstruksiyalarda fe'l orqali ifodalangan predikat. Sub'ektdan anglashilgan predikat funksiyalashishini yoki funksiyalashish imkoniyatini bildiradi. Masalan: Soat yuryapti: stanok ishlayapti: lampa yonayapti va boshq.

N.Idrok qiluvchi sub'ekt. Predikat idrok qiluvchi fe'llardan ifodalanadi. Masalan: Ovchi shovqin eshitdi. U gul hididan mast bo'ldi.

12. Baholash yoki emotsiyal munosabatdagi sub'ekt. Biz Vatanimizni sevamiz: Qarimga hamma yoqadi.

13. Qarindoshlik yoki sotsial munosabatdagi sub'ekt. Masalan: U mening akam, Karim unga boshliq.

14. O'rin bildiruvchi sub'ekt. Masalan: Tashqarida issiq. Sub'ektning yuqoridagi ma'nolar sistemasi shuni ko'rsatadiki, sub'ekt tushunchasi harakatni yuzaga chiqaruvchi (agens) tushunchasidan juda kengdir. Agentlik uning ma'no sistemasidan bittasidir.

### **SODDA GAPNING PREDIKAT XARAKTERIGA KO'RA TIPLARI**

Har qanday gapning semantik hamda uyushtiruvchi markazi predikat sanalar ekan, gapning butun xarakteristikasi predikat asosida izohlanishi lozim bo'ladi.

Bu nuqtai nazardan, poyedikat xarakteriga ko'ra, gaplarni fe'l asosli gaplar va ot asosli gaplarga bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

### **FE'L ASOSLI GAPLAR**

Fe'l asosli gaplar turkiy tillarda ot asosli gaplarga nisbatan kengroq tarqalgan. Chunki fe'l predikatlikni ifodalash uchun ko'proq xoslangandir.

Propozitsiyaning birlamchi ifodasi bo'lgan grammatik to'la shakllangan fe'l asosli gaplarda fe'lidan ifodalangan sintaksema ikki xil vazifa bajaradi: 1) gap elementlarini tashkil etish (bog'lash), 2) gapni gap qilib shakllantirish. Birinchi vazifasi fe'l sintaksemalarning "bo'sh o'rirlari"ni to'ldirish (valentligi) asosida, ikkinchi vazifasi esa predikativ shakl orqali reallashadi.

Fe'l sintaksemalarning semantik va sintaktik valentliklari hali hech qaysi bir tilda to'liq aniqlanmagan. Yu.D.Apresyan 25 ta semantik valentlik ro'yxatini tavsiya etadi. I.Qo'chqortoyev o'zbek tilida nutq fe'llarining valent tahliliga bag'ishlangan ishida nutq fe'llarining 6 ta semantik valentligini ajratishini ma'qul ko'radi: agens, kontragens, ob'ekt, ma'no, maqsad va adresat valentliklari. Muallif nutq fe'llarini valentlik miqdoriga ko'ra to'rt guruhga bo'ladi: 1) bir valentli, 2) ikki valentli, 3) uch valentli va 4) to'rt valentli nutq fe'llari.

O'zbek tilidagi fe'llarning boshqa leksik-semantik guruhalining valent tahlili o'rganilmaganligi tufayli, hali barcha fe'llarning valentlik ro'yxati mavjud emas. Bu ro'yxatning bo'lishi esa gap tuzilishini o'rganishga qulay imkoniyat ochgan bo'lar edi.

Fe'llarning "bo'sh o'rirlari"ni to'ldiruvchi sintaksemalar ayrim adabiyotlarda zaruriy va qo'shimcha sintaksemalarga bo'linadi. Lekin ko'p hollarda bunday sintaksemalarning zaruriy yoki qo'shimcha ekanligini farqlash qiyin bo'lib qoladi.

Shuning uchun ham fe'l valentliklariga bag'ishlangan fikrlarni umumlashtirgan holda, o'zbek tilida fe'llarning quyidagi valentliklarini ajratish tarafдоримиз: 1) sub'ekt (agens, patsiyens, resigens boshq.) 2) ob'ekt; 3) maqsad ; 4) payt, 5) o'rin, 6) holat, 7) sabab valentliklari.

Sintaktik qurilma fe'l predikatning qaysi valentliklarining reallashuviga ko'ra turlicha bo'ladi:

- 1) sub'ekt (agens) Q fe'l predikat: Karim keldi, Mashina yurdi.
- 2) ob'ekt Q fe'l predikat: kinoni ko'rdi, kino ko'rildi. samolyotda keldi (mediativ ob'ekt).
- 3) sub'ekt Q ob'ekt Q fe'l predikat: Karim kino(ni) ko'rdi. Do'stim samolyotda keldi.
- 4) maqsad Q fe'l predikat: Suv ichgani bordi.
- 5) sub'ekt Q maqsad Q fe'l predikat: Bo'ri suv ichgani bordi.  
zamon Q fe'l predikat: Yoz issig'ida bordi.  
zamon Q maqsad Q fe'l predikat: Yoz issig'ida suv ichgani bordi.  
zamon Q ob'ekt Q fe'l predikat Q maqsad; Yoz issig'ida bo'ri bordi suv ichgani.  
o'rin Q fe'l predikat: Derazamning oldida gulladi.
- 10) o'rinQsub'ekt Q fe'l predikat: Derazaning oldida (bir tup) o'rik gulladi.
- 11) holat Q fe'l predikat: oppoq bo'lib gulladi
- 12) o'rin Q sub'ekt-holat-fe'l predikat: Derazamning oldida (bir tup) o'rik oppoq bo'lib gulladi.
- 13) sabab Q fe'l predikat: sovuqligi uchun ichmadi
- 14) ob'ekt Q sabab Q fe'l predikat: ovqatni sovuqligi uchun ichmadi
- 15) sub'ekt Q ob'ekt Q sabab Q fe'l predikat: Karim ovqatni sovuqligi uchun ichmadi.

Sintaktik konstruksiya fe'l predikatning barcha valentliklarini reallashtirsa, yetti aktantli (argumentli) bo'lishi mumkin. Fe'l predikat argumentlaridan tashqari, sintaktik qurilma tarkibida yana tinglovchi sub'ekt (opa, urma qalbimga tikan) qatnashib, gap semantik tuzilish darajasini murakkablashtiradi. Sintaktik tuzilishning darajalanishini quyidagicha ifodalash mumkin:

Fe'l predikat argumentlar (ega, to'ldiruvchi, hol) argument aniqlovchilari tinglovchi sub'ekt.

Bulardan argument fe'l predikatda mavjud bo'lgan "bo'sh o'rinalar"ni to'ldirib (ikkinchi qavatni hosil qilib) sintaktik ma'nosini konkretlashtirsa, qurilma (konstruksiya) argumentining aniqlovchilari deskripsiyanı hosil qilib, argument ma'nosiii kengaytiradi. Ba'zan tinglovchi sub'ekt qatnashib (uning qatnashishi ko'pincha shart emas), fikrning kimga qaratilganligini ko'rsatadi (uchinchi qavatni hosil qiladi).

### **NISBAT SHAKLLARI VA GAP SEMANTIKASI**

Fe'l predikatlarning grammatik valentliklarini ifodalashda nisbat shakllari alohida rol' o'ynaydi. Nisbat shakllari predikatning sub'ekt valentligiga ishora qiladi. Ma'lum nisbat shakliga ega bo'lgan fe'l predikatli sintaktik qurilmalarda ko'pincha birdan ortiq sub'ekt ishtirok etadi. Fe'l predikatlarning qaysi nisbat shaklida ekanligiga ko'ra sub'ektning predikat aks ettirgan harakat-holatga munosabati ham turlich bo'ladi.

Sintaktik qurilma predikatining quyidagi nisbatning sochini taradi; 2) Bola sochi ona tomonidan taraldi; 3) Bola tarandi; 4) Ona va bola tarashishdi;

Bu sintaktik qurilmalar semantikasini yoritishda A.Xolodovich asos solgan diateza nazariyasiga asoslanamiz. Diateza atamasi ostida semantik tuzilish birliklari (sub'ekt, ob'ekt)ning sintaktik tuzilishi birliklari (ega-to'ldiruvchi) bilan munosabati tushuniladi.

Agar umumlashgan semantik birliklar ostida konkret referent birliklar turganini e'tiborga olsak, diateza ostida uch sath birliklarining munosabati tushunilishi lozim bo'ladi: 1) A, B, V bilan ifodalananadigan referent sath birliklari: 2) sub (sub'ekt), ob

(ob'ekt) bilan ifodalanadigan referentlarning umumlashgan semantik rollari sathi; 3) til tuzilishining ega, to'ldiruvchi tarzida belgilanadigan ishtirokchilari sathi (aktantlari).

Birinchi jumlada predikat bosh nisbat shaklidan ifodalanadi va bu tipdag'i jummalarda yuqorida sanalgan sath birliklari bir-biriga muvofiq keladi. Predikatning semantik agensi, ya'ni predikat aks ettirgan harakatni yuzaga chiqaruvchi predmet sintaktik sathda ega holatida, predikat aks ettirgan harakat ta'siriga uchragan predmet sintaktik sathda to'ldiruvchi holatida keladi. Bu uch sath birlyklari munosabatini quyidagi sxemada ko'rsatish mumkin:

suv
ob
A
B
to'ldiruvchi ega

Ikkinchi jumlada predikat majhul nisbat shaklidan ifodalanadi. Bu jumlada predikat aks ettirgan Harakatni yuzaga chiqaruvchi shaxs, ya'ni agens sintaktik sathda ega emas, balki to'ldiruvchi holatida, harakat ta'siriga uchragan semantik predmet esa - ega holatida keladi. Bu jumladagi diatezani quyidagicha ifodalash mumkin:

suv
ob
A
ega

Uchinchi jumlada predikat o'zlik nisbat shaklida ifodalangan. Fe'l predikat nisbat shaklining o'zgarishi sath birliklari munosabatini tamomila o'zgartirib yuboradi. Referent sathning birligi referent birliklarning umumlashgan sathida, ya'ni mazmuniy sathda ham saqlanadi. Lekin mazmuniy sathdagi ob'ekt sintaktik sathda bevosita ifodalanmaydi. Sintaktik ega harakatni yuzaga chiqaruvchi predmetni hamda

harakat ta'siriga uchragan predmetni ifodalaydi. Bu diatezani quyidagicha ifodalash mumkin:

suv (ag)      ob (pats)

A

B

ega      to'ldiruvchi

To'rtinchi jumla predikati birligida nisbat shaklida ifodalangan. Bunday sintaktik qurilmaning sintaktik sathidagi ega ham, to'ldiruvchi ham mazmuniy sathidagi harakatni yuzaga chiqaruvchi predmetni (agens) hamda harakat ta'siriga uchragan predmetni (patsiyensni) ifodalaydi. Bu jumladagi

Shunday qilib, jumla predikatining nisbat shakli gap semantikasi uchun qimmatlidir. U mazmuniy ishtirokchilarning rollarini belgilash uchun xizmat qiladi.

### **OT ASOSLI GAPLAR**

Tuzilish va mazmuniy markazi ot predikatlardan iborat bo'lgan gaplar ot asosli gaplar sanaladi. Bunday gaplar dunyoning barcha tillarida keng tarqalgan (G'arbiy Yevropa tillari bundan mustasno). Shunday bo'lismiga qaramasdan, ular har qaysi tilda o'ziga xos xususiyatga ega. Shuning uchun ham konkret bir tildagi ot asosli gaplarni o'rghanish faqat amaliy ahamiyatgagina emas, balki nazariy ahamiyatga ham egadir. Bu tipdagi gaplar fe'l asosli gaplar bilan qutbiy zidlik munosabatiga kirishadi. Ularning farqlovchi belgisi sintaktik qurilmaning mazmuniy va uyushtiruvchi markazi bo'lgan predikatning qanday so'z orqali: ot (keng ma'noda) yoki fe'l orqali ifodalanishidir.

Ot predikatlar turli-tuman ma'nolarni ifodalaydi: mavjudlik bildirish, ikki ob'ektni tenglashtirish, ma'lum ob'ektni tavsiflash (xarakterlash, tasniflash, nisbatlash, zamon va o'rin belgisini bildirish) va boshqalar. Shu ma'nolar asosida ot asosli gaplarii ham quyidagi mazmuniy guruhlarga ajratish mumkin: 1) mavjudlik bildiruvchi (ekzistensional) gaplar:

2) tenglashtiruvchi (identifikatsiyalovchi) gaplar;

3) xarakterlovchi gaplar.

O'zbek tilshunosligida mayjudlik bildiruvchi gaplar shu kunga qadar o'rganish ob'ekti bo'limganligi uchun biz quyidagi gapning ana shu turiga alohida to'xtalamiz.

### **MAVJUDLIK BILDIRUVCHI (EKZISTENSIONAL) GAPLAR**

Mavjudlik bildiruvchi gaplarda ob'ektiv olam yoki uning ayrim parchasidagi ma'lum belgiga ega bo'lgan ob'ektning mavjud ekanligi tasdiq yoki inkor qilinadi. Tabiiyki, bunday gaplarda so'zlovchi va tinglovchiga u yoki bu darajada ma'lum bo'lgan fazo tushunchasi boshlang'ich nuqta sanaladi. Bu fazoda mavjud bo'lgan

Shunday qilib, mavjudlik bildiruvchi gaplar ob'ektiv olamning makon va predmet aspektini aks ettiradi va kommunikativ eng ahamiyatli qism - predmetni aks ettiruvchi otdan ifodalangan bo'lak sanaladi. Masalan: Bu yerda magazin bor. Devor orqasida bog' mavjud. Demak, mavjudlik bildiruvchi gaplar denotati makon va bu makondagi predikatlardir. Shuning uchun ham bu tipdagi qurilmalarning denotativ strukturasini shunday belgilash mumkin: makon Q predmet Q munosabat. Makon va predmet o'rtasidagi munosabatni ifo-dalash uchun mavjudlik bildiruvchi bor, turibdi, mavjud, yo'q singari so'zlar qo'llaniladi. Bunday leksik birliklarni semantik jihatdan ekzistensional so'zlar deyish mumkin.

Mavjudlik bildiruvchi gaplar sintaktik tuzilishi u orqali ifodalangan uch uzvli denotativ tuzilishiga muvofiq, quyidagicha belgilanishi mumkin: 1) o'rinnomi, 2) predmet nomi, 3) ekzistensional so'z. Masalan: o'rinnomani ekzistensional so'z.

Moskva metrosida marmarimiz bor.

Lekin mavjudlik bildiruvchi gaplar sintaktik tuzilishi denotativ tuzilishga doim muvofiq kelishi shart emas. Denotativ tuzilish elementlari yashirin holda ifodalanishi mumkin. Masalan: Uyimiz oldida katta bog'. Sintaktik va denotativ strukturining o'zaro muvofiq yoki muvofiq emasligiga ko'ra mavjudlik bildiruvchi gaplarni simmetrik va asimetrik gaplarga bo'lishi mumkin.

Mavjudlik bildiruvchi simmetrik gaplar uch uzvli bo'lib, ularning tartibi turlichadir:

1) Predmet nomi Q o'rin nomi Q ekzistensional so'z. Masalan: Oppoq bulut parchasi qimir etmay osmonda turibdi (S.Borodin). Komil bo'lismay imkoniyati har bir kimsada mavjud (R.Fish).

2) O'rin nomi Q predmet nomi Q ekzistensional so'z: Qishloqda qizil askar bor (A.Qahhor). Ko'kda, qoq peshonada, xuddi ulkan oq qovunning bir pallasiday oppoq oy olamni allaqanday osuda mayin, kumushrang yog'duga g'arq qilib yarqirab turibdi (O.Yoqubov).

3) O'rin nomi Q ekzistensional so'z Q predmet nomi: Uylar to'la non, och-nahorim bolam,

Ariqlar to'la suv, tashnai zorim bolam.

4) Predmet nomi Q ekzistensional so'z Q o'rin nomi: Yo'q, yaqindan qarasang, hayot bor sahroda (A.Muxtor) -- Sudralib bo'lsa ham oldinga yurish uchun yetadigan olov bor ko'ksimda (A.Muxtor).

Mavjudlik bildiruvchi gap uzvlarining tartibiga ko'ra yuqoridagi kabi paradigmasi bu qurilmalarning kommunikativ vazifasi talabi bilan vujudga keladi. parigma a'zolari o'zaro kommunikativ vazifasiga ko'ra (aktual bo'linishiga ko'ra) bir-biridan farq qiladi.

Mayjudlik bildiruvchi gaplardagi o'rin nomi makon bildirish belgisiga ko'ra farqlanadi. Ayrim o'rin tsomlari sof makon bildirsa, boshqalari predmet sinfini bildiradi. Masalan: 1) Derazamning oldida bir tup o'rik bor. 2) Kitobda ancha fikriy chalkashlik mavjud. 3) Do'stlarim orasida ajoyib shoirlar bor. Ikkinchisi va uchinchi gapdagi o'rin nomlari predikat sinfini bildirmoqda. Bunday vaqtida o'rin nomi vazifasidagi predmet umumni, butunni, o'rinalashgan predmet esa uning bo'lagini, qismini anglatadi.

Mayjudlik bildiruvchi gaplarda elementlari bilan gap bo'laklari o'rtasida ma'lum munosabat bor. Bu munosabat ham ko'p hollarda o'rin nomining xarakteriga bog'liq. O'rin nomi makonni qanday bildirishga ko'ra hol yoki to'ldiruvchi pozitsiyasida, predmet nomi ega pozitsiyasida, ekzistensional so'z kesim pozitsiyasida keladi.

EGA	HOL	KESIM
shredmet nomi	o'rin nomi	eksistensional so'z.

Semantik (denotativ) va sintaktik tuzilish o'rtasida assimmetrik munosabat mavjud bo'lgan mavjudlik bildiruvchi gaplar vaziyatning yuqorida sanab o'tilgan uch uzvidan ma'lum qismi o'z tashqi ifodasiga ega bo'lmaydi. Bunday gaplarda qaysi uzvlarning ifodalanishiga va bu uzvlarning o'rinalashishiga ko'ra quyidagi tuzilish tiplarini ajratish mumkin:

1) o'rin nomi Q predmet nomi: Meshda buloq suvi, yerga ko'milgan xumda qo'y sutidan suzilgan pishloq, to'shak ostida ikki qavat kigiz (A.Muxtor).

Mavjudlik bildiruvchi asimmetrik gaplar bir yoki ikki uzvli bo'lib, ularning joylashish tartibi quyidagicha:

1. O'rin nomi Q mavjud predmet nomi. Masalan: Ufd qora bulut (A.Muxtor). Zilol suvga limmo-lim to'la zovurlar ustida qad ko'tarib, quyosh narida ajib yiltirab turgan marmar minoralar (A.Muxtor).

Bunday mavjudlik bildiruvchi gaplarda ekzistensional so'z grammatik jihatdan ifodalanmaydi. Ekzistensional so'zning ma'nosi ham predmet nomini ifodalovchi qism orqali anglashiladi. Natijada predmet nomini ifodalovchi qism semantik murakkablik kasb etib, bir vaqtning o'zida ham predmet nomi haqida; ham ekzistensionallik haqida axborot beradi.

2. Predmet nomi Q ekzistensional so'z. Masalan: Yosh rassomlar ibrat olsalar arziydigan san'atkorlar va o'rgansalar arziydigan mahorat va tajribalar bor ("Sovet O'zbekistoni san'ati" jurnali).

Ob'ektiv borliqdagi har bir predmet ma'lum makonda joylashadi. Ana shu makon tushunchasi o'rin nomi deb yuritiladi. Ayrim hollarda o'rin nomi grammatik jihatdan ifodalanmaydi. Ammo u aktual jihatdan jumlaning ma'lum qismi - mavzusi vazifasida kelganligi uchun garchi grammatik jihatdan ifodalanmasa ham kontekstdan anglashilib turadi. Chunki jumlalar zanjirida bu jumladan oldingi jumlalarning birida o'rin nomi aks etgan bo'ladi. O'rin nomining grammatik jihatdan aks etmasligi boshqa qismlarning ifodalanmasligiga nisbatan ko'proq uchraydi.

Negaki predikat bilan o'rin nomi o'rtasidagi munosabat predikat bilan predmet o'rtasidagi munosabatga nisbatan ikkilamchidir. Masalan: Ko'k piyozlar urug'lab yotibdi (U.Hoshimov). Urug'lamoq fe'li bilan ko'k piyoz predmeti o'rtasidagi munosabat birlamchi" bevosita munosabat. Shu bilan birga ko'k piyozning ma'lum makoni bilan uning mavjudligi o'rtasidagi yashirin latent munosabat ham bor. Bu munosabat ikkilamchi, vositali, ya'nii mavjud, bor singari latent ekzistensional so'zlar bilan vositali munosabatdir .

3. O'rin nomi Q ekzistensional so'z. Masalan: yonlarida hoziru nozir (A.Muxtor).

4. O'rin nomi Q predmet nomi. Bu tipdagi gaplar nominativ gaplarga mos keladi. Masalan: Hovlining ikki tomonida pastak uylar ustuniga naqsh solingan ayvon (U.Hoshimov). Hindiqushning terskay yonbag'irlarida oydin kecha (A.Muxtor).

5. O'rin nomi. Mavjud predmet nomi ham, ekzistenional so'z ham ifodalananmay, gap faqat o'rin nomidangina tashkil topadi. Masalan: Esimni taniganimdan buyon hamisha yonimda (Oybek). Yonimda uch minut o'tirgan bo'lsam ham, xuddi hoziriday, bir umr yodimda (A.Muxtor).

Mavjudlik bildiruvchi gaplarning bu tuzilish tppida ko'rsatish olmoshlari faol ishtirok etadi. Masalan: Objuvozdan chiqqan bir qop guruch sotib oldim. Dmmo, oshxonada (I.Rahim). Sahro jonli, axir. Mana, oyoq ostida (A.Muxtor).

Ko'rsatish olmoshlari mavjudlik bildiruvchi gaplarda mavjudlikni ifodalovchi muhim vositalardan biri hisoblanadi.

6. Predmet nomi. Bunday tipdagi mavjudlik bildiruvchi gaplarda ham ko'rsatish olmoshlari faol ishtirok etadi. Xususan, ana, mana singari ko'rsatish olmoshlari jumla orqali ifodalananayotgan vaziyat bilan zinch bog'langan. Shuning uchun ham butun qurilmaga hozirgi zamon ma'nosini yuklaydi. Bu olmoshlar takror holda kelib, emotisional-ekspressiv ma'no ifodalashi ham mumkin. Masalan: Ana-ana, ular bolalik chog'larida sigirlarina boqib, chillak va yong'oq o'ynab, do'ppilarida suv ichadigan katta buloq va buloq ortidagi erta-yu kech cho'miladigan sevimli to'g'onlari (O.Yoqubov).

Mavjudlik bildiruvchi gaplarning bu turi ko'pincha bir sostavli gaplarning nominativ turi orqali ifodalanadi. Lekin mavjudlik bildiruvchi gap bilan nominativ gaplar gapning boshqa-boshqa belgilari asosidagi tasnif turlari bo'lganligvdan o'zaro muvofiq kelishlari shart emas.

Mavjudlik bildiruvchi gaplarning bosh bo'lak ishtirokiga ko'ra turlari. Mavjudlik bildiruvchi gaplar tarkibida bosh bo'laklarning ishtirok etishiga ko'ra bir bosh bo'lakli (bir sostavli) va ikki bosh bo'lakli (ikki sostavli) gaplarga bo'linadi. Predmet nomi Q ekzistensional so'z, predmet nomi Q o'rinni nomi, o'rinni nomi Q predmet nomi Q ekzistensional so'z, o'rinni nomi Q ek-zistensional so'z Q predmet nomi, predmet nomi Q ekzistensional so'z Q o'rinni nomi, predmet nomi Q o'rinni nomi Q ekzistensional so'z kabi tuzilish modelidagi mavjudlik bildiruvchi gaplarning ko'pchiligi ikki sostavli gaplar sanaladi. Chunki ko'p hollarda mavjudlik bildiruvchi gaplarning predmet nomi, ekzistensional so'z qismlari sintaktik sathning ega va qesim qismlari pozitsiyasida keladi. Masalan: Oppoq bulut parchasi qimir etmay osmonda turibdi. (S.Borodin). Bu gapda oppoq bulut parchasi-semantik predmet nomi, sintaktik ega, osmonda turibdi- ekzistensional so'z, sintaktik kesim.

Predmet nomi Q o'rinni nomi tuzilish modelidagi mavjudlik bildiruvchi gaplarda ekzistensional so'z grammatik ifodalanmaydi. Uning vazifasi ham o'rinni nomiga o'tadi. Natijada o'rinni nomi kesim pozitsiyasida keladi. Masalan: Ukam - shaharda (turadi, yashaydi).

Mavjudlik bildiruvchi gaplarning o'rinni nomi Q ekzistensional so'z; predmet nomi kabi tuzilish modellari kommunikativ sathda ko'pincha bir sostavli gaplar orqali namoyon bo'ladi. Masalan: Oloy... Ko'm-ko'k sizot o'tloqlar. Yilqi qulunlar... (Q.Yashin) Ayvon tokchasida eski "gardish" laganlar (U.Hoshimov).

Mavjudlik bildiruvchi gaplarda ekzistensional so'zning xususiyati. Bor, mavjud, turibdi singari leksik birliklar mavjudlikni bildiradi. Bunday so'zlar ko'pincha mavjudlik bildiruvchi gaplarning kesimi o'rnida keladi. Mavjudlik bildiruvchi gaplarning kesimi qanday ekzistensional so'zlardan ifodalanishiga ko'ra ot kesimli (ot asosli) va fe'l kesimli (fe'l asosli) gaplarga bo'lish mumkin. Bunday

gaplarning birinchi tipi ikkinchi tipiga qaraganda ko'proq ishlataladi. Shu bilan birga har ikki tipdagi gaplar ikkita birlashtiruvchi belgi-hozirgi zamonlik va mavjudlik semalari bilan umumiylikni hosil qiladi. Bu ikki birlashtiruvchi belgi ham shu qurilmalarning semantik va sintaktik asosini tashkil etgan predikatlarning birlashtiruvchi belgilaridir. E.Benvenistning ta'kidlashicha, har qanday gapda mavjudlik bildiruvchi fe'llargina (garchi morfologik jihatdan ifodalanmasa ham) ishtirok etish huquqiga ega.

Avvalo, mavjudlik bildiruvchi gaplarning bu ikki turining kelib chiqish asosiga e'tibor berish lozim. Odatda, ko'pgina ilmiy adabiyotlarda fe'l bilan otning farqlovchi belgilari sifatida jarayonlik va zamon semalari olinadi. Fe'l bu belgilarning har ikkisini o'zida aks ettiradi, ot eyea aks ettira olmaydi. Lekin bu belgilar dunyoning juda ko'p tillari uchun, xususan, turkiy tillarning tarixiy yozma yodgorliklari uchun ham asosiy farqlovchi belgi bo'lmaydi. Chunki bir qator so'zlarda ham jarayonlik, ham predmetlik semalari uyg'un holda ifodalangan. Masalan: xo'pa (Oregon) tilida III shaxs fe'l shakli bir vaqtning o'zida ot xarakteriga ham ega: nanya "u tushyapti" va "yomg'ir", nillin "u oqyapti" va "ariq", tobatalabal tilida fe'llar emas, balki otlar zamonni bildiradi: haneh "uy", hanipil "o'tgan zamondagi uy" (oldingi uy, hozirgi uy emas) . Turkiy tillarda ham "jarayonlik" va "predmetlik" semalari uyg'un holda ifodalangan bir qator so'zlar bor. Masalan: ozarbayjon tilida dad, qirg'iz tilida tat, o'zbek tilida tot "maza" va "mazasini aniqlamoq", o'zb., qirg'., ko'ch "ko'chiriladigan narsa" va "ko'chish" A.M.Shcherbakning kuzatishicha, fe'l-ot omonimiyasi hozirgi holatdan qadimgi turkiy tilga qarab ko'payib boradi. Qadimgi yozma yodgorliklarga nisbatan esa bobo til sathida tiklangan umumturkiy bir bo'g'inli so'zlarda bu hodisa ko'proq uchraydi . V.Vundt til evolyusiyasining ot va fe'l farqlanmagan, bir so'zning o'zi ham ot, ham fe'l vazifasida qo'llangan etapi bo'lganligini ta'kidlagan edi.

E.Benvenist barcha sistemadagi tillarni hisobga olgan holda jarayonlik ham, zamon ham, morfologik farqlanish ham fe'l bilan otning asosiy farqlovchi belgisi bo'lolmasligini faqat sintaktik belgining ular o'rtasida farqlovchi belgi bo'lishi

mumkinliginn ko'rsatadi . Sintaktik belgisi jumla tarkibidagi vazifasi bilan xarakterlanadi.

Uning fikricha, fe'l tugal tasdiq gap (jumla)ning shakllanishi uchun zaruriy element. Jumla tarkibida fe'l ikki xil vazifa bajaradi: 1) bog'lash vazifasi, 2) tasdiq vazifasi. Shu bilan birga fe'lilik vazifasi bilan fe'l shakli bir-biridan farqlanadi. Ular garchi ko'pincha o'zaro muvofiq kelsa ham, lekin fe'lilik vazifasi ma'lum darajada fe'l shaklidan mustaqildir.

Jumlaning ikkinchi vazifasi tasdiq bo'lganligidan, u jumlaning ob'ektiv reallikka munosabatini taqozo qiladi. Jumla qismlarini bog'lovchi grammatik aloqaga til qatori bilan borliq sistema o'rtasidagi aloqani ta'minlovchi "bu shuur" elementi yashirin ravishda qo'shiladi. Natijada tugallangan tasdiq gaplar sintaktik tuzilishida ikki plan farqlanadi: grammatik aloqa plani va borliqni tasdiqlash plani. Bu xususiyatlar fe'lning moddiy (shakli) asosida emas, balki sintaktik vazifasi asosida belgilanadi,

Fe'lilik vazifasini amalga oshirish uchun nutqda fe'lning morfologik shakllanishi shart emas. Demak, fe'l va otlar o'rtasidagi morfologik farqlanish sintaktik farqlanishga nisbatan ikkilamchidir. Vazifa darajalanishida, eng avvalo, faqat ayrim shakllargina tugallangan tasdiq gapni hosil qilishga qodir ekanligi muhimdir. Darhaqiqat, ko'p hollarda bunday shakllar qo'shimcha ravishda morfologik ko'rsatkichlari bilan ham ajralib turadi. Bunday vaqtida ot va fe'l o'rtasidagi farq shakl planiga o'tadi va fe'l shaklini qat'iy morfologik jihatdan aniqlash imkoniyati tug'iladi.

Tasdiq gapda fe'l shaklining funksional tuzilishi ikki elementni o'z ichiga oladi: biri moddiy ifodalangan, o'zgaruvchi (variant), ikkinchisi yashirin, doimiy (invariant). O'zgaruvchi (variant) moddiy fakt sifatidagi fe'l shakli hisoblanadi . O'zgaruvchida (variantda) tasdiq gapga bevosa oид bo'lgan invariant: mavjud grammatik butunlik bilan tasdiqlanayotgan ob'ektiv fakt o'rtasidagi muvofiqlik aks etadi. Invariant bilan variantning bunday birlashuvi fe'l shakliga jumla tarkibida mavjudlikni tasdiqlovchi shakl vazifasiga ega bo'lish imkoniyatini beradi.

Sintaktik nuqtai nazardan fe'l vazifasida faqat fe'llargina emas, otlar ham kelishi mumkin. Demak, fe'l va ot asosli gaplar o'rtasidagi farqlovchi belgi, E.Benvenist konsepsiyasiga ko'ra, faqat morfologik belgidir. Fe'l vazifasini qanday morfologik shakl bajarayotganligidadir. Bu vazifani ot sinfiga kiruvchi shakl ham, fe'l sinfiga kiruvchi shakl ham bajarishi mumkin. Anglashiladiki, gaplarking bu ikki tipi o'rtasidagi farq vazifa jihatdan emas, balki faqat morfologik jihatdandir. Vazifa nuqtai nazardan har ikki tip bir xildir.

Ot asosli gaplarda gapning uyushtiruvchi va semantik markazi ot bo'lganligi uchun ham fe'l asosli gaplardan zamon, shaxs kategoriylarining qanday ifodalanishi jihatdan farq qiladi. Bu ma'nolar fe'l asosli gaplarda maxsus morfologik ko'rsatkichlar yordamida moddiy ifodalansa, ot asosli gaplarda ko'pincha ot predikatning mazmuni, leksik elementlar orqali yashirin razishda ifodalanadi.

Ot asosli gaplarni fe'l tushib qolgan gap deb bo'lmaydi. Bunday tipdagi gaplar fe'l asosli gaplar bilan teng huquqqa ega bo'lgan, hozirgi o'zbek tili normasiga muvofiq keladigan to'liq gap shaklidir.

T.P.Lomtevning fikriga ko'ra, Otam - o'qituvchi gapida fe'l yo'q, lekin uning ishtirok etmasligi gap strukturasida uning o'rni yo'qligini belgilamaydi. Otam - o'qituvchi gapida fe'lning o'rni bor. Bu o'rinda fe'lning ishtirok etmasligi ham fe'ldir. Ma'lum sharoitda moddiy belgining ishtirok etmasligi ham moddiy belgidir. Sportchilar musobaqasida o'q uzilishi startning moddiy belgisi bo'lsa, o'q uzilishining amalga oshgunga qadar davri tayyorlanishning moddiy belgisidir. Otam o'qituvchi bo'lgan gapida fe'l o'rnida moddiy belgining bo'lishi o'tgan zamonnn bildirsa, moddiy belgining bo'lmasligi hozirgi zamonni bildiradi. Bunday gaplarda fe'l tushib ham qoldirilmaydi, tasavvur ham qilinmaydi. U gap strukturasida bor bo'lib, nol' shaklga ega: so'zning ma'lum holatlarda ishlatilmasligi xam so'zdir. Otam - o'qituvchi gapida fe'l o'rni va bu o'rinda hozirgi zamon ma'nosidagi nol' shaklli fe'l bor. Bu gapda o'qituvchi so'zi otam so'zi bilan emas, balki hozirgi zamon ma'nosidagi nol' shaklli fe'l bilan aloqaga kirishadi .

## **KO'P PREDIKATLI QURILMALAR**

Predikat va uning aktantlarm munosabatidan tashkil topgan sintaktik qurilma predikativ ifoda (PI) Hisoblanadi. PI tarkibidagi predikatlar miqdoriga ko'ra bir predikatli va ko'p predikatli tiplari ajratiladi: faqat bir predikat va uning argumentlari munosabatidan tashkil topgan qurilmalar bir predikatli birdan ortiq predikat ishtirok etgan qurilmalar ko'p predikatli PI lar sanaladi.

Ko'p predikatli qurilmalar predikatlarining gapdagi rollari bir xil emas. Agar PI tarkibidagi har bir predikat predikativlik belgisiga ega bo'lsa qo'shma gap, faqat predikatlardan biri predikativlikni aks ettirsa - sodda gap sanaladi.

Polipredikatli sodda gaplarda bir predikat ikkinchi predikatning argumenti pozitsiyasida keladi. Natijada o'ziga xos predikatlar darajalaniish vujudga keladi. Predikatlar darajalanishida argument pozitsiyasida kelgan predikat qo'shilma predikat, qo'shilma predikatdan iborat argumentga ega bo'lgan predikat qo'shuvchi predikat hisoblanadi . Shunday qilib, polipredikatli qurilmalarda qo'shilma na qo'shuvchi predikatlar o'zaro muvofiqlashgan bo'lib, biri ikkinchisini taqozo qiladi. PI tarkibida qo'shilma predikatning borligi uning semantik tuzilishini murakkablashtiradi.

## **QO'SHILMA PREDIKATLAR**

Ravishdosh, sifatdosh, harakat nomli oborotlar deb yuritiluvchi qurilmalar bir butun holda asosiy predikatning argumenti pozitsiyasida - qo'shilma predikat vazifasida keladi. Ko'p predikatli sodda gaplarda argument pozitsiyasida keluvchi predikativlik belgisiga ega bo'lman predikatlar ma'lum propozitsiyani ifodalasa ham, ammo gap bo'lib shakllana olmaydi. T.M.Shmelyovning fikricha, propozitsyaning bunday moddiylashuvi uning ikkilamchi ifodalanishi hisoblanadi. Finish shaklli va uning aktantlari orqali propozitsyaning ifodalanishi asosiy, boshqa barcha hollardagi ifodalanishi esa ikkilamchi ifodalanish ekanligini ta'kidlaydi . Propozitsyaning ikkilamchi ifodalanishi sodda gapni mazmun va grammatik tomondan murakkablashtiradi. Masalan: Asrlarning qayg'usin qarg'ab, shodlik va baxt kuyini chalди. Bu yerda ikki propozitsiya mavjud bo'lib, ikkinchi propozitsiya (shodlik va baxt kuyini chaldim) propozitsyaning asosiy ifodalankshidir. Shuking

uchun ham u gapning tuzilish asosini tashkil qiladi. Birinchi propozitsiya (asrlarning qayg'usini qarg'adi) ikkilamchi usul bilan ifodalangan. Shuning uchun ham u mustaqil gap shakliga ega emas. N.M.Mahmudov to'g'ri ta'kidlaganidek, ikkilamchi usulda ifodalangan propozitsiya hamisha birlamchi (asosiy A.N.) usulda ifodalangan protsozitsiya bilan qo'shilib ana shu asosiy propozitsiya ifodasi bo'lgan sodda gapning semantik tuzilishini murakkablashtiradi .

Ayrim tilshunoslar bunday predikativ ifodalarni (propozitsiyaning ikkilamchi ifodalarini) maksimal sintaktik birliklar sifatida tan oladilar. Shuning uchun ham, avvalo, maksimal sintaktik birliklar haqida to'xtalishga to'g'ri keladi.

Sintaktkk nazariyalarda sintaktik birliklar minimal va maksimal sintaktik birliklarga ajratiladi. Ammo minimal sintaktik birliklarga ham, maksimal sintaktik birliklarga ham ajratish bir xil emas.

An'anaviy, va ten'er grammatikasida (Fransuz-tilshunosligida) gap bo'laklari minimal sintaktik birliklar sifatida qaralsa, tobelanish grammatikasida (grammatika zavisimostey - GZ) so'z shakl (harflar silsilasi), bevosita ishtirokchilar grammatikasida (RS) esa - morfema sintaktik birliklar hisoblanadi. Shuningdek, maksimal sintaktik birliklar masalasida ham xilma-xil fikrlar bor. I.B.Dolininaning fikricha, tugallangan sintaktik tuzilishga ega bo'lgan fe'l asosli murakkab grammatik ob'ekt maksimal sintaktik birliklar hisoblanadi . Bundan ko'rinish turibdiki, u fe'l asosli nazariyaga tayanadi.

Odatda barcha sintaktik nazariya vakillari har qanday gaplarni bir butun holda maksimal sintaktik birliklar sifatida tan oladilar. Ammo ko'p predikatli gaplarni bir maksimal sintaktik birlik sifatida qarash kerakmi, yoki bir necha maksimal sintaktik birliklarni o'z ichiga olgan maksimal sintaktik birlik sifatida qarash kerakmi, degan masalada bir xil fikr yo'q. An'anaviy va ten'er grammatikasi bu masalaga kengroq nuqtai nazardan qaraydi. Gapni bir butun Holda maksimal sintaktik birlik sifatida tan olish bilan birga, uning ma'lum tuzilish parchalarini (agar ular bir butun gap ichida mavjud bo'lsa) ham maksimal sintaktik birliklar sifatida tan oladilar. Xususan, qo'shma gapii bir butun holda maksimal sintaktik birlik hisoblash bilan birga, uni

tashkil etgan qismlarni har bir butun ichida alohida-alohida maksimal sintaktik birliklar hisoblaydilar. Masalan, Shuni bilki, seni Vatan kutadi gapidan uch maksimal sintaktik birlik (V.G.Admoni terminologiyasi bo'yicha "elementar gaplar") ajratiladi: 1) ergash gap li qo'shma gap bir butun holda; 2) bosh gap; 3) ergash gap.

O.Espersen, L.Ten'er, L.L.Ioffik esa yuqoridagi tipdagi bosh gaplarni tugallangan sintaktik tuzilish hisoblamaydi. Shuning uchun ularni maksimal sintaktik birliklarga qo'shmaydilar. Ularning fikricha, har qanday ergash gaplar asosan turli sintaktik pozitsiyalarning (ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol pozitsiyasining) turli xil grammatik ifodalarining bir usulidir.

Ko'pchilik tilshunoslar fe'lli oborotlar va umuman predikativlik shakliga ega bo'limgan boshqa predikatlarni, ya'ni propozitsiyaning ikkilamchi ifodalarini ham maksimal sintaktik birlik hisoblash tarafidoridirlar .

Darhaqiqat, bunday sintaktik qurilmalar butun bir gapga nisbatan bir butun holda qo'llaniladi. Ular o'z ichida predikat asosida birlashgan ma'lum tipdagi sintaktik tuzilishni - blokni hosil qiladi.

I.B.Dolininaning fikricha, bunday sintaktik tuzilishlarning alohida maksimal sintaktik birliklar sifatida ajratilishi minimal sintaktik birliklarning sintaktik tahlili jarayonida uchraydigan kamchilikka chek qo'yadi: bir tomondan, ular o'z ichida sintaktik bo'linish xususiyatiga ega, ikkinchi tomondan esa bir butun holda gap tarkibida bir gap bo'lagi kabi ishtirok etadi. Bu esa yuqoridagi predikativ ifodalarning ichki sintaktik munosabatlari butun gapga nisbatan nofunktional, ularning funksiyalashuvi faqat shu predikativ ifodaning o'zi uchun xos ekanligini ko'rsatadi .

## **KO'P PREDIKATLI QURILMALARDA PREDIKATIVLIK**

Ko'p predikatli qurilmalardagi propozitsiyaning "ikilamchi ifodalanishida (Fe'lli oborotlar, ob'ektli qurilmalar) predikativlikning mavjud yoki mavjud emasligi masalasi tilshunoslar o'rtasida qizg'in bahslarga sababchi bo'lmoqda.

Bu masaladagi bahslarga ham tilshunoslar va mantiqshunoslar o'rtasidagi predikativlikka yondashishning xilma-xilligi asos bo'lmoqda.

Predikativlikka ikki mantkqiy (sub'ekt va predikat) va, o'z navbatida, grammatik (ega va kesim) elementning o'zaro munosabati sifatida qarash tarafdarlari nuqtai nazariga ko'ra, ko'p predikatli qurilmalardagi propozitsiyaning asosiy ifodasida to'liq predikativlik mavjud. Sub'ekt va predikat o'rtasidagi munosabat grammatik ega va kesimda o'z ifodasini topadi. Ikkilamchi ifodasida esa sub'ekt va predikatlar munosabati mavjud bo'lsa ham, ammo predikat mustaqil shakliga ega bo'lmaydi. Shuning uchun ham, bunday qurilmalarda yarim yoki ikkinchi darajali predikatsiya mavjud, deydilar. Demak, predikatsiyani ham ikkiga to'liq (yoki asosiy) va yarim (yoki ikkinchi darajali) predikatsiyaga bo'ladilar. Propozitsiyaning ikkilamchi ifodalarida ham predikatsiya bor, deb hisoblovchi tilshunoslar bu predikatsiyani ushbu sodda gapdagi asosiy predikatsiyadan farqlash maqsadida turli terminlar bilan nomlaydilar: "polipredikativlik", "qo'shimcha predikatsiya", "ikkilamchi predikatsiya", "tobe predikatsiya" va boshq. Jumladan, O.I.Borodovich ikki element o'rtasidagi sintaktik aloqani ikkilamchi predikativ struktura hisoblab, uning quyidagi to'rt xarakterli belgisini ko'rsatadi: 1) mazmun planida elementlar o'rtasidagi sub'ekt-predikat munosabat; 2) aloqaning bir vaqtda birinchi elementdan ikkinchi elementga va, aksincha, ikkinchi elementdan birinchi elementga o'zaro tobeligi; 3) struktura qismlarining tayanch so'z bilan bирgalikdagi aloqasi; 4) ikkinchi qismning shaxssiz fe'l yoki fe'l bo'lмаган so'zлар bilan ifodalanishi .

N.M.Mahmudov propozitsiyaning ikkilamchi ifodalovchilari asosiy ifodalovchilarning nomlanishidir, deb hisoblovchi olimlar fikrlariga qo'shilgani holda nomlanishga uchragan qurilmalar nomlanishdan keyin ham predikativlik fukksiyalarini, garchi ikkinchi planda bo'lsa ham, saqlaydi, shuning uchun ham ulardagagi predikativ aloqa ikkilamchi xarakterga ega bo'ladi, deydi .

Yarim predikativlik tushunchasi bevosita ikkinchi darajali kesim tushunchasining mantiqiy davomidir. Ikkinchi darajali kesim terminidan dastlab A.A.Potebnya ravishdoshga nisbatan foydalanadi , A.A.Shaxmatov asarlarida uning tiplari haqida atroflicha ma'lumot berildi. A.A.Shaxmatovning fikricha, mazmunan bevosita egaga oid bo'lган va u bilan grammatik bog'lanuvchi, ammo agadan boshqa

bo'lak, ya'ni kesim sostaviga kiruvchi bo'lak ikkinchi darajali kesim hisoblanadi . Bunday bo'laklarning ikki tomonlama grammatik aloqasi ko'rsatiladi: bir tomondan, asosiy kesimning tobe bo'lagi sifatida unga tobe bog'lansa, ikkinchi tomondan esa, ega bilan ma'lum munosabatda bo'ladi. Agar bu bo'laklarning asosiy kesim bilan munosabati nuqtai nazaridan ularni ikkinchi darajali bo'lak deb hisoblash mumkin bo'lsa, ega bilan munosabati jihatidan alohida sintaktik hodisa "ikkinchi darajali kesim", deb hisoblash mumkin, deyiladi. Ikkinci darajali kesim bilan eganing munosabatini yarim predikativlik hisoblaydilar . Keyinchalik ajratilgan bo'laklar va hatto kirish, kiritmalar va undalmalar (Rudnev, Abdurahmonov) ham yarim predikativ qurilmalar qatoriga kiritila boshlandi . Natijada yarim predikativ qurilmalar doirasi birmuncha kengaydi. Chunki ajratilgan bo'laklarning grammatik aloqasi fe'lli oborotlar grammatik aloqasidan birmuncha farq qiladi. Bunda ham ikki tomonlama grammatik aloqa saqlansa ham, ammo bu ikki tomonlama aloqa gap struktur asosining ega va kesimi asosida bo'lishi shart emas. Kirishlar va undalmalardagi yarim predikativlik butunlay boshqacha asosda xal qilinadi . Turkiy tillarda sodda gaplardagi yarim predikativlik masalasi birinchi marotaba D.A.Yo'ldoshev tomonidan o'rganiladi. Turkiy tillardagi ravishdoshning sintaktik vazifasiga to'xtalar ekan, u ravishdosh faqat qo'shma gaplardagina emas, balki sodda gaplarda ham, shubhasiz, kesim vazifasini bajaradi, deydi. U o'z fikrini ravishdoshning ega bilan munosabati mavjudligi asosida dalillaydi. Asosiy kesimdan farqli ravishda, bu kesimlarni u ham , yakkinci darajali kesim, deydi. An'anaviy hol deb hisoblanib kelgan ravishdoshdan ifodalangan hamma bo'laklar A.A.Yo'ldoshev tomonidan ikkinchi darajali kesim hisoblanadi .

Fe'lli oborotlar (ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi, shart fe'lli oborotlar), substantiv va ad'ektiv xarakterdag'i oborotlar, ajratilgan bo'laklarda yarim predikativlikning mavjudligi masalasi o'zbek tilshunoslari tomonidan ham e'tirof etildi" .

Ammo yuqoridagi tipdagi propozitsiyaning ikkilamchi ifodalarida predikatsiyaning mavjudligi (ikkinchi darajali, yoki yarim predikativlik xarakterida

bo'lsa ham) bu konstruksiyalar tarkibidagi ikki elementning (sub'ektiv va predikat hamda ega va kesim) munosabati asosida izohlanadi. Bu esa, ko'riniib turibdiki, Predikatlikning an'anaviy konsepsiysi, atributiv mantiq ta'siridagi predikativlik nazariyasining aks etishidir. Bu nuqtai nazaridan predikativlikning to'liq va yarim predikatsiya oppozitsiyasi ma'lum asosga zga.

Predikat va uning argumentlari birligiga asoslangan munosabat mantiqiga ko'ra hukm ikki a'zodan iborat bo'lishi, o'z navbatida predikativlik ham ikki a'zodan iborat bo'lishi shart emas. Predikativlik uchun predikat muhimdir. Predikat va uning argumentlarining ob'ektiv borliqqa munosabatini ifodalovchi shakllar sistemasi (tasdiq-inkorlik, zamon, modallik shakllari) predikativlikdir. Boshqacha aytganda, predikativlik o'zaro munosabatda bo'lgan ma'lum elementlar (tasdiq-inkorlik, zamon, shaxs, modallik) birligidir. Sistema nazariyasi nuqtai nazaridan, shu elementlarning birortasining qatnashmasligi sistemaga putur yetkazadi, predikativlikdan chiqaradi. Demak, bunga muvofiq, hech qanday ikkinchi darajali predikativlik, yarim predikativlik degan narsaning bo'lishi mumkin emas. Predikativlik bir butun holda gapning asosiy belgisi. Gapni gap qilib turgan belgidir .

Ko'p predikatli sodda gaplarda predikatlarning shu gapni shakllantirishdagi xizmati bir xil emas. Bittasi predikativ shakllarni olib, gapni gap qilib shakllantiradi, qolganlari esa daraja jihatidan pasayadi. Ammo propozitsiyalar shu gapdagagi predikatlar miqdoriga muvofiq bo'ladi. Demak, bunday gaplar fakat syntaktik tuzilish nuqtai nazaridan sodda, semantik jihatdan esa murakkab xarakter kasb etadi.

## **QO'SHUVCHI PREDIKATLAR**

Boshqa predikatlarni o'ziga qo'shib olish xususiyatiga ega bo'lgan predikatlarning eng xarakterlisi jarayon va kauzativ predikatlardir.

Jarayon predikatlar (PJ) harakatning turli jarayonini (boshlanishi, davomn va tugashi) ko'rsatadi: boshladi, davom ettirdi, tugatdi, to'xtatdi va boshqalar. Jarayon predikatlar asosiy haradat bildiruvchi predikatni argument qilib keladi. Argument pozitsiyasidagi asosiy harakatni bildiruvchi predikat jarayonlilik grammatik ma'nosini bildiruvchi predikat talabi bilan ma'lum kelishik shaklida bo'ladi. Masalan,

harakatniig boshlanish qismini bildiruvchi boshladi predikati argument pozitsiyasida kelgan predikatni tushum kelishigida kelishini talab qiladi: N Q N ni -1- boshladi. Qo'shilma predikat, ya'ni argument pozitsiyasidagi predikat harakat nomidan ifodalanadi. Masalan, Temir kitob yaqishni boshladi. Predikat va uning argumentlari munosabatini quyidagi sxemada ko'rsatish mumkin:

Bunday qurilmalarda ham ikki predikat borligi tufayli ikki propozitsiya ifodalanadi: Temir o'qidi. O'qish harakati boshlandi. Temir - agens, qo'shilma predikat esa patsiyens pozitsiyasida kelyapti.

Qo'shuvchi predikat pozitsiyasida morfologik kauzativ fe'llar kelishi ham mumkin: to'xtatdi, tugatdi, davom ettirdi va boshqalar. Bunday ko'ppredikatli qurilmalar kauzativ vaziyatni ifodalaydi. Masalan: Karim kitob o'qishni to'xtatdi (tugatdi, davom ettirdi). Agens, kauzatsiyalovchi vaziyat predmeti - Karim, patsiyens, kauzaiyalanuvchi vaziyat predikati nol' ko'rsatkichli o'ziga o'zi kauzatsiyalovchi holat - o'qshini to'xtatmoq, kauzatsiya munosabatini ifodalovchi vosita t morfemasidir. Bu vaqtda grammatik ega murakkab ma'noga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida kauzativ vaziyatning agensi va ham patsiyensini ifodalaydi.

Qo'shuvchi predikat pozitsiyasida leksik kauzativ fe'llar ishtirok etishi mumkin. Masalan: majbur qildi, qo'zg'adi, topshirdi, buyurdi, taklif qildi va boshqalar. Bu vaqtda kauzatsiya agensi va patsiyensi ajralgan holda ifodalanadi. Masalan: Karim kitob o'qishga majbur qildi. Bunday tipdagi qurilmalarda ega pozitsiyasida kelgan bosh kelishikdagi ot agensni, kauzativ vaziyat antitsedentining predikatini, to'ldiruvchi pozitsiyasidagi tushum kelishigidan ifodalangan ot patsiyensni, antitsendent predmetini, jo'nalish kelishidagi harakat nomidan ifodalangan komponent kauzatsiyalashuvchi holatni, kauzatuv fe'llar esa konsekvent va antitsendent o'rtasidagi kauzativ munosa-batni ifodalaydi.

## **GAPNING MODAL ASPEKTI**

Modallik gapning asosiy birligi, gap semantikasining eng muhim komponentidir. Tilshunoslikda modallik deganda, odatda, gap mazmunining ob'ektiv borliqqa munosabati va so'zlovchining gap mazmuniga bo'lgan munosabati

tushuniladi . Modallik kategoriyasiga gap modalligini ta'minlashda xizmat qiladigan xilma-xil vositalar kiritiladi. V.3.Panfilov ta'kidlaganidek, juda ko'p mualliflar tomonidan modallik kategoriyasi sostaviga o'z mohiyati jihatidan: funksional vazifasi, til tuzilishiga mansubligi jihatidan xilma-xil bo'lgan ma'nolar kiritiladiki, natijada bu kategoriya ma'lum aniqlikdan mahrum bo'ladi . Bu esa hatto modallikning alohida til kategoriyasi sifatida mavjudligini ham shubha ostiga qo'yadi. Jumladan, I.P.Raspapov modallik haqida fikr yuritib, sof grammatik ma'nodagi kategoriya sifatida hech qanday modallik kategoriyasi mavjud emas, deydi. Uning fikricha, modallik kategoriyasi haqida emas, balki gapning modal sifati haqida gapishtirish maqsadga muvofiq bo'ladi . T.P.Lomtev ham bu kategoriyaga nisbatan xuddi shunga o'xshash fikr bildiradi. Uning fikricha, modal xarakteridagi grammatik kategoriya grammatik modal kategoriyanı emas", balki bir temani tashkil etadi .

Modallik haqidagi bundai fikrlar tasodifiy emas albatta. Modallikning an'anaviy talqiniga ko'ra, darhaqiqat, uni ta'riflash juda qiyin. Modallik ma'nosi til sistemasining turli sathlarida kuzatiladi. Modallikni ifodalovchi vositalar ham rang-barangdir. Tilshunoslikda bu vositalarni aniqlashning yagona metodikasi bo'limganligi tufay modallik ifodalovchi vositalar turli tillar materiallari asosida turlicha ajratilmoqda. Jumladan, N.Yu.Shvedovaning fikricha, modallik vositalariga mayl, gapning alohida konstruksiyalari, intonatsiya, so'z tarkibi, takror, yuklama, undov, kirish (modal) so'zlar va gaplar mansubdir .

Turkiy tillar materiallari asosida, asosan, quyidagi modallik vositalari ajratiladi: mayl, zamon va shaxs qo'shimchalari, gapning alohida qurilmalari, yuklamalar, so'z tartibi, intonatsiya, yuklama vazifasidagi so'roq olmoshlari, undalmalar, kirish so'z va gaplar .

Ko'rinish turibdiki, bu kategoriya ostida xilma-xil vositalar: morfologik (mayl, zamon, shaxs affikslari), leksik (so'zlarning turli guruhlari), sintaktik (alohida gap qurilmalari, so'z tartibi, takror va fonetik vositalar (kintonatsiya) kiritiladi. Bir kategoriya ostiga bunday xilma-xil vositalarning birlashtirilishi tilshunoslar o'rtasida, tabiiy ravishda, ayrim e'tirozlarning tug'ilishiga sababchi bo'ldi. Shuning uchun ham

bu vositalarni birlashtiradigan bir umumiy belgi topishga harakat qilinadi. Bu vositalarning hammasi o'z funksiyasini gap ichida (gap sathida) ko'rsatadi. Ana shu belgi, ya'ni sintaktik belgisi yuqoridagi vositalarni birlashtirishga ma'lum darajada asos bo'ldi. Shunga ko'ra modallik vositalarini ham: 1) konstruktiv-sintaktik; 2) morfologik-sintaktik; 3) intonatsion-sintaktik guruhlarga ajratish mumkin. Barcha modal ma'nodagi vositalarga sintaktik maqom berilishi bu vositalarning tuzilishi umumiyligini ko'rsatish uchun asos bo'ladigandek tuyuladi. Ammo, ma'lum bir o'rinda birlashtirishga asos bo'lsa" bu sintaktik belgisi modal vositalar farqlanishida o'z quvvatini yo'qotadi. Shuning uchun ham R.G.Sibagatov modallik kategoriyasini belgilashda turli sathlilik kategoriyasiga asoslanishi lozimligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, tilshunoslikda turli sathlilik kategoriyasi mavjud bo'lib, bu kategoriyani turli sathga oid birliklarning bir umumiy tushuncha atrofida birlashishi hosil qiladi. Turli sathlilik kategoriyasining mazmuni - bu butun bir semantik soha bo'lib, bir-biridan farq qiluvchi va shu bilan birga bir tushuncha ostiga birlashgan grammatik va leksik ma'nolarni o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazaridan, modallik kategoriyasi ifoda planiga ko'ra haqiqatan ham turli sathlilik kategoriyasiga mansubdir. Turli sathga oid birliklar bir tushuncha - modallik tushunchasi ostiga birlashadi. Demak, modallik kategoriyasi til kategoriyasi sifatida ob'ektiv mavjuddir.

Modallikning umumiy ta'rifga tilshunoslikda ma'no plani nuqtai nazaridan yondashiladi, ya'ni munosabat belgisi e'tiborga olinadi. Ammo V.3.Panfilov ta'kidlaganidek, tilshunoslikda bu kategorianing mohiyati, uning fikr modalligi munosabati, gap modalligining tiplari, modallikning predikativlikka munosabati bilan bog'liq bo'lgan eng muhim masalalar bo'yicha bir xillik yo'q .

Gapning nominativ aspekti tarafdorlari gapni ikki qismga diktum va modusga . ajratadilar. Diktum bu sintaktik qurilma ifodalaydigan ob'ektiv mazmun, ya'ni propozitsiyadir. Ma'lum sintaktik qurilmaning gap bo'lib shakllanishi uchun faqat diktumni (propozitsiyani) ifodalashgina yetarli bo'lmaydi. Sh.Ballining fikricha, modus qo'shilgandagina gapga aylanadi. Demak, modus gapning eng muhim qismidir, "siz gap shakllana olmaydi, chunki modallikni aks ettira olmaydi. U

jumlaning diktumdan boshqa barcha xususiyatlarini modusga kiritadi. Shuning uchun ham fillmor jumla formulasini S q M Q R (S-jumla, M-modallik, R-propozitsiya) (diktum) tarzida ko'rsatadi . Bunday tushunishda kommunikatsiyanivg turlari hisoblangan darak, so'roq, buyruq ma'nolari, emotsional ma'nolar, sub'ektiv - modal ma'nolar va boshqalar modus hisoblanadi. Modallik V.V.Vinogradovning 1950 yilda e'lon qilingan "O kategorii modal'nosti i modal'no'x slovax v russkom yazo'ke" maqolasida ham shunday keng talqin qilindi va uning bu konsepsiysi sovet tilshunosligidagi modallik muammosi yuzasidan qilingan keyingi tadqiqotlarga ham juda katta ta'sir qildi. V.V.Vinogradov va unnnng izdoshlari tomonidan modallik ostida: 1) kommunikativ ma'no turlari: darak, so'roq, buyruq ma'nolari bo'yicha farqlanadigan gap turlari, 2) tasdiq va inkor bo'yicha farqlanadigan gap turlari ; 3) gap mazmuniga so'zlovchining hissiy munosabati va boshqa bir qator ma'nolar birlashtiriladi.

T.B.Alisova Sh.Ballining diktum va modus haqidagi fikrini davom ettirib, modallik haqida shunday deydi: "Har qanday jumlaning predikativ tabiatni ikki sathdan tashkil topadi: birinchisi denotat (diktum)ning sub'ekt-predikat munosabatini aks ettirsa, ikkinchisi bu munosabatga so'zlovchining munosabatini ifodalaydi . G.A.Zolotova uchinchi tip modal munosabatni - harakat va uning agensi o'rtasidagi munosabatni ajratadi . Birinchi tip munosabat (ob'ektiv modallik) - bu jumla mazmunining borliqqa reallik-noreallik, muvofiq kelish yoki muvofiq kelmaslik nuqtai nazaridan munosabatdir. Ikkinci tip munosabat (sub'ektiv modallik) - bu so'zlovchining jumla mazmuniga ishonch, gumon, aniqlik-noaniqlik, rozilik kabi munosabatlaridir. Uchinchi tip modallik esa o'z ichiga mumkinlik, istak, zarurlik kabi ma'nolarni oladi . Birinchi tip modallikning asosiy ifoda vositasi mayl kategoriysi, ikkinchi tipniki - kirish (modal) so'zlar, uchinchi tipniki esa kesimga (predikatga) qo'shiladigan holat kategoriysi (Shcherba) hisoblanadi. Birinchi tip modallik gapning zaruriy belgisi, modallikning qolgan tiplari esa gapning fakul'tativ belgisi ekanligi ko'rsatiladi. Shunday qilib, modallikning mazmun plani ham bir umumiy belgining yo'qligi uning ichki butunligiga putur yetkazadi. Modallik kategoriyasining

yuqoridagi tiplarini ajratishda eng muhim narsa - sub'ektiv tomonga e'tibor kam jalg qilinadi. Xuddi shu sub'ektiv tomon birlashtiruvchi belgi vazifasini bajarishi mumkin. R.G.Sibagatov modallik,. birinchi navbatda, so'zlovchining reallikka bo'lgan munosabatining aks etishidir, deb to'g'ri ta'kidlaydi.

Uning fikricha, modallikning mazmun plani uchun so'zlovchi munosabatini birlashtiruvchi belgi sifatida asos qilib olish kategoriya butunligini saqlaydi.

Modallikning munosabat ifodalanishini hamma e'tirof etadi. Munosabat esa shu munosabatga kirishuvchi ma'lum elementlarning bo'lishini taqozo etadi. Tilshunoslikda o'zaro munosabatda bo'lgan elementlar masalasi o'zining aniq talqinini topgan emas. Shuning uchun munosabatning o'zi ham shu kunga qadar noaniq bo'lib keldi.

Ob'ektiv modallik deganda, odatda, gapdan ifodalangan mazmunning reallikka bo'lgan munosabati tushunilar ekan, demak, uning sxemasi quyidagicha: gap mazmuni - reallik. Bu o'zaro ma'lum munosabatga kirishuvchi ikki elementdir. Munosabat esa elementning qismiga ham, elementlar yig'indisiga ham teng emas.

Munosabat mantiqiga muvofiq, munosabat - bu ikki o'rinli (valentli) predikatdir. Demak, u eng kamida uch qismdan tarkib topadi: element - munosabat - element. Ob'ektiv modallikning yuqoridagi sxemasida u gap mazmuni reallik) "gap mazmuni" munosabatga kirishayotgan elementlardan biri sifatida qatnashmoqda. Ammo munosabatning (modallikning) o'zi aks etmagan. Bu o'rinda eng zarur qism - "sub'ekt" yetishmaydi. Shuning uchun ham ayrim tilshunoslar ob'ektiv modallikni gap mazmunining so'zlovchi nuqtai nazaridan ob'ektiv reallikka munosabati sifatida talqin qilib, yetishmagan elementni to'ldiradilar.

Sub'ektiv modallik ko'pchilik tilshunoslar fikricha, "sub'ekt" va "gap mazmuni" elementlarini o'z ichiga oladi. Uning sxemasi quyidagicha: "sub'ekt-gap mazmuni". Bu yerda ham zaruriy element, "ob'ekt" (reallik) aks etmay qolgan. Demak, sub'ektiv modallik ham uch a'zo: "sub'ekt", "gap mazmuni", "ob'ekt" birligidan iboratdir.

Har safar "ob'ekt" elementi paydo bo'lishi bilan, ongda darhol "sub'ekt" elementi ham vujudga keladi yoki, aksincha, "sub'ekt" elementi paydo bo'lishi bilan -

"ob'ekt" element ham paydo bo'ladi, va bu bilan bir vaqtda ob'ektivga sub'ektiv ishlov berish mexanizmi ham qo'shiladi . Bu ishlov berishning mohiyati asos deb olinayotgan narsaning ushbu tafakkur akti predikatiga munosabatini (yoki, aksincha, ikkinchi elementning birinchi elementga munosabatini) belgilashdan iboratdir.

## **PREDIKATIVLIK VA MODALLIK**

Predikativlik va modallik o'zaro chambarchas bog'langan hodisalardir. Shuning uchun ham lingvistika tarixida bu ikki hodisaning o'zaro munosabatiga bag'ishlangan juda ko'p asarlar bor. Shunga qaramay, bu ikki hodisaning tutash nuqtalari nimalardan iborat va kaysi xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi, degan savollar hamon aniq javobini topgani yo'q. Ba'zan predikativlikni modallik bilan tenglashtirish hollari ham uchraydi. Har ikkisining ham gap mazmunining ob'ektiv reallikka munosabatini ifodalashi ta'kidlanadi (V. V. Vinogradov) .

Gapni gap qilib turgan eng asosiy belgi nima, degan savolga ham ba'zilar modallik, deb javob beradilar .

Modallik va predikativlik haqida gap qetganda ba'zan modallikning predikativlikka nisbatan juda keng tushuncha ekanligi , ba'zan esa modallik predikativlikning uzviy bir qismi ekanligi ta'kidlanadi . V.V. Vinogradov bir o'rinda predikativlik bilan modallikni tenglashtirib, "...predikativlik kategoriyasining to'g'ri, doimiy va bevosita ifodala-modalanishi gap modalligidir",- deydi , ikkinchi o'rinda modallikni predikativlikning bir komponenti sifatida qaraydi . N Ye.Petrov modallik va predikativlikning ma'lum chegarasini belgilash uchun predikativlikni logik-sintaktik kategoriya sifatida til sathi bnrligi, modallikni esa kommunikativ-sintaktik kategoriya sifatida nutq sathi birligi tarzida qarash lozim, - deydi .Ammo bu bilan ularning farqi aniq ochilmaydi. Chunki modallikning bir turi til sathiga ham oiddir.

Semantik planda modallik kategoriysi uchun birlashtiruvchi belgi vazifasini bajaruvchi sub'ektivlik (so'zlozchi nuqtai nazari) predikativlik kategoriysi bilan modallik kategoriysi o'rtasida farqlovchi belgi vazifasini o'tishi mumkin. Birinchidan, modallik predikativlikka nisbatan, darhaqiqat, keng tushuncha. Chunki predikativlik faqat gap sathi uchun xarakterli bo'lsa, modallik gap bo'lмаган

qurilmalar (masalan, so'z birikmasi) uchun ham xosdir . Shuning uchun ham V.G. Admoni modallikni ikkiga- gapga xos bo'lgan modallik, so'z birikmasiga xos modallikka bo'linadi

Ikkinchidan, gap sathida qaralayotgan modallik predikativlikning tarkibiy elementidir. Predikativk gap orqali ifodalanayotgan axborotning ob'ektiv reallikka munosabatini umumiylar tarzda bildirsa, modallik gap mazmunining so'zlovchi nuqtai nazaridan ab'ektiv borliqqa munosabatini yoki so'zlovchining gap mazmuniga munosabatini bildiradi. munosabatini yoki. Har ikki tipdagi modallikda ham sub'ektivlik belgisi alohida o'rinni tutadi.

### **MANTIQIY VA GRAMMATIK MODALLIK**

Bu muammo faqat lingvistika uchungina emas, balki mantiq uchun ham katta ahamiyatga ega. Chunki modallik kategoriyasi fikrning mantiqiy qurilishi bilan cham-barchas bog'langan til hodisalari qatoriga kiradi. Shuning uchun modallik ham tilshunoslikning, ham mantiqning tekshirish ob'ektidir. Birinchisida modallik gapning eng muhim belgisi sifatida qaralsa, ikkinchisida tafakkur shakli sifatidagi hukmning muhim belgisi sifatida qaraladi. Shunga ko'ra V.3.Panfilov til kategoriyasi bo'lgan modallikni mantiqiy kategoriya bo'lgan modallik bilan bog'lab o'rganish lozimligini ko'rsatadi.

V.3.Panfilov gap orqali ifodalanadigan hukmning kkki sathi mavjudligini ko'rsatadi. Ulardan birinchisi hozirgi shakliy mantiq tomonidan ajratiladigan propozitsional funksiya sifatidagi hukm. Propozitsional funksiya sifatidagi hukm strukturasi N o'rinni predikat va uning argumentlari munosabatidan iborat (aRBv formulasi). Bunday hukm strukturasi ikki qismdan (agar predikat bir o'rinni bo'lsa) yoki uch va undan ortiq qismdan (agar predikat ko'p o'rinni bo'lsa) tashkil topadi.

Gapda ifodalangan hukm strukturasining sathi an'anaviy shakliy mantiqning o'rganish ob'ekti bo'lgan sub'ekt-predikat strukturadir (S Q R dir formulasi).

Agar propozitsional funksiya sifatidagi hukm ob'ektiv reallikdagi ob'ektiv aloqalarni aks ettirsa, sub'ekt-predikat struktura sifatidagi hukmda esa bilish jarayoni aks etadi. Sub'ekt predikat strukturasida vaziyatning bir fikr predmeti sifatida,

ikkinchi qismi unga predikatsiyalanayotgan belgi sifatida" ajratiladi. Shunday qilib, hukmning sub'ekt-predikat struktura sathida bilish jarayonining yo'nalishi ya'ni uning sub'ektiv tomonini aks etadi .

Hukmning bu ikki sathdagi strukturasi gap strukturasida ham o'zining shakliy ifodasiga ega: ularidan birinchisi gapning sintaktik bo'linishlari orqali (ya'ni sintaktik struktura, elementlari orqali), ikkinchisi esa logikgrammatik yoki aktual bo'linish orqali ifodalanadi. Demak, modallik gapning aktual bo'linishi bilan chambarchas bog'langan .

Anglashiladiki, ma'lum bir vaziyatning o'zi hukmning bir necha xil sub'ekt-predikat strukturasi bilan va, shunga muvofiq, gapning turli logikgrammatik bo'linishi bilan aks etadi. Bunda esa inson bilish faoliyatining aktualligi ko'rindi.

Modallkk ostida gapning sub'ekt bilan bog'liq bo'lган turli ma'nolari tushunilar ekan, avvalo, bu ma'nolarni ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiqli: 1) ob'ektiv (antologik) va 2) sub'ektiv modallik.

Ularning birinchisi bilish akti yo'naltirilgan ma'lum bir voqeadiagi mavjud ob'ektiv aloqalar xarakterini aks ettiradi (mumkinlik, haqiqiylik, zaruriylik). Ikkinchisi esa bu aloqalarni bilish : darajasiga so'zlovchining munosabati (bahosi)ni ifodalaydi. Ob'ektiv modallik gapning sintaktik bo'linish sathida o'z ifodasini topadi . Uning shakliy ko'rsatkichlari: 1) fe'l mayllari (shart-istik, buyruq, shartli, ijro va boshq.); 2) maxsus modal fe'llar: xohlamoq, istamoq va boshq.; 3) leksik vositalar: kerak, lozim, darkor, majbur, zarur va boshq.

Ob'ektiv modallik, o'z navbatida, turli ma'nolarni o'z ichiga oladi: 1.Gapda ifodalangan mazmunning borliqqa munosabati. Bu fe'l mayllari va intonatsiya (nominativ so'z-gaplarda) orqali ifodalanadi va gap mazmunining real (noreal) ekanligini farqlaydi .

2.Sub'ektning "o'z" harakatiga munosabati. Bu modallik to'rt subkategoriyani birlashtiradi: 1) aniqlik. Nol' ko'rsatkich bilan xarakterlanadi; 2) mumkinlik, "imkoniyati borliq, Olmoq, bo'lmoq ko'makchi fe'llari orqali ifodalanadi. Mas: Bu niyatni amalga oshirsa bo'ladi (oshirib bo'ladi). U institutda o'qiy oladi va boshq.; 3)

zarurlik, majburlik. Modallikning bu ma'nosi kerak, lozim, darkor, zarur singari so'zlar orqali ifodalanadi. Mas: Men o'qishim kerak; 4) xohish-istak. Bu ma'no maxsus modal fe'llar orqali (xohlamoq, istamoq va boshq.) ifodalanadi. Mas: Men o'qishni istayman.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha modallik turlari ob'ektiv modallikka oid bo'lib, diktumga, V.3.Panfilov konsepsiyasiga ko'ra esa propozitsional funksiya sathiga oiddir.

Sub'ektiv modallik gapda ifodalangan ob'ektiv mazmunga so'zlovchining munosabatini ifodalaydi va modusga (V.3.Panfilov konsepsiyasiga ko'ra logik-grammatik sathga) kiradi. Sub'ektiv modallik kirish so'z funksiyasida kelgan maxsus modal yoki modal vazifasidagi boshqa so'zlar yordamida ifodalanadi. Sub'ektiv modallik orqali, o'z navbatida so'zlovchining o'z fikriga turli munosabatlari namoyon bo'ladi: ishonch (albatta, kelaman), tasdiq (to'g'ri, kelaman), gumon (ehtimol, kelarman), achinish (afsus, kelaman) va boshq. Sub'ektiv modallik fakul'tativ xarakterga egadir.

Shunday qilib, sintaktik modallik gapni shakllantirishdagi o'rni va sub'ektning gap mazmunidagi munosabat darajasiga qarab, ikki guruhga -ob'ektiv va sub'ektiv modallikka bo'linadi. Ob'ektiv modallik. gapni shakllantiruvchi zaruriy belgilardan biri, asosiy uzvi hisoblansa, sub'ektiv modallik ob'ektiv modallik ustiga qo'yilgan qo'shimcha modallikdir. Shuning uchun ham u gapning asosiy uzvi emas.

Ko'rinish turibdiki, so'zlovchining kommunikativ niyati, uning gap mazmuniga emotsiyal munosabati va sub'ektiv modallik garchi gapning aktuallashtiruvchi Qismlari bo'lsa ham, ularning' tabiat va gap tuzilishidagi asosiy roli shunchalik xilma-xilki, ularni Faqat grammatik planda "turli sathlilik", semantik planda so'zlovchining "munosabatini ifodalash" belgi ostida birlashtirish mumkin xolos.

## **TO'LDIRUVCHILI YOYIQ GAPLAR SEMANTIKASI**

N ga Q vf modelidagi qurilma mohiyat sifatida to'ldiruvchi pozitsiyasidagi argumentlarning fe'l predikat orqali yuzaga chiquvchi munosabatini aks ettiradi. To'ldiruvchi holatidagi argument turli referent ma'nolarni ifodalaydi. Bu referent

ma'nolar to'ldiruvchi holatidagi argumentning predikat bilan sintagmatik munosabati hamda har ikki qismining qanday leksemalar bilan to'ldirilishiga qarab belgilanadi. Masalan: 1) Bu so'zlar unga yoqdi (A.Q.); 2) Chelak suvga to'ldi; 3) Kitobni singlisiga oldi; 4) Ro'molni mukofotga oldi; 5) Halima Salimaga aytdi; 6) Yosh bolaga o'xshaydi.

Birinchi jumla bilan ikkinchi jumla, uchinchi jumla bilan to'rtinchi jumla bir xil sintaktik strukturaga ega bo'lsalar ham lekin mazmuniy ishtirokchilariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Birinchi jumlada yoqdi predikati orqali munosabatda bo'lgan ikki semantik predikatning birinchisi (bu so'zlar) ta'sir qiluvchi predmetni, ikkinchisi esa (unga) ta'sirga uchrovchi predmetni bildiradi. Ikkinchisi gapda to'ldi predikati orqali munosabatda bo'lgan ikki predmetning birinchisi (chelak) ta'sirga uchrayottan predmetni ikkinchisi (suv) esa ta'sirga vosita bo'layotgan va ta'sir qilayotgan predmetni bildiradi. To'rtinchi va beshinchi jumla strukturasi oldi predikati orqali bog'langan ikki semantik predmetdan iborat bo'lsa ham, lekin semantik predmetlarning rollariga ko'ra bu jumlalar bir-biridan farq qiladi. To'rtinchi jumladagi semantik predmetlardan birinchisi (ro'mol) agens ta'siriga uchrovchi predmetni, ikkinchisi (mukofot) agens harakatning yuzaga chiqishi uchun asos bo'lgan predmetni aks ettiradi. Beshinchi jumladagi aytdi predikati orqali o'zaro munosabatda bo'lgan Halima va Salima predmetlari ham yuqoridagilardan tubdan boshqacha vazifa bajaradi: birinchisi harakatni yuzaga chiqaruvchi predmet (agens), ikkinchisi esa agens harakatini qabul qiluvchi predmet (patsiyens) vazifalarida keladi. Oltinchi jumladagi predikat munosabatda bo'lgan predmet predikat orqali ifodalangan o'xshatishga etalon bo'lgan predmetni bildiradi.

Shunday qilib, jo'nalish kelishigidagi va bilan ko'makchili otdan ifodalangan vositali to'ldiruvchi bilan kengaygan gap invariant sifatida bir umumiyl gap modelini tashkil etsa ham, lekin bu invariant nutq tarkibida turli leksik variantlar bilan to'ldirilgan xilma-xil semantik-sintaktik variantlar sifatida namoyon bo'ladi.

N dan Q vf modeli chiqish kelishigidagi otdan ifodalangan vositali to'ldiruvchi bilan kengaygan jumlalarning umumlashgan tipini gavdalantiradi. Bu model qismlari

nutq jarayonida leksik birliklar bilan to'ldirilgan holda turli semantik-sintaktik variantlarda namoyon bo'ladi. Masalan: 1) Ovqatdan oling; 2) Kichik o'g'limdan baxt ko'rdim; 3) Olimlardan gapirdi; 4) Up betondan qurilgan. Bu jumlaning dastlabki ikkisida predikat orqali munosabatda bo'lgan ikki predmetdan faqat biri bevosita ifodalangan va ular birinchi jumlada shaxs harakatiga qisman qaragan predmetni, ikkinchisida predikat aks ettirgan harakatni yuzaga chiqaruvchi predmetni (agensni) bildiradi. Uchinchi jumla bir o'rini munosabatdan iborat bo'lgan sistemani ifodalaydi. Predikatning bo'sh o'rnini to'ldiruvchi olimlardan argumenti munosabat bildiruvchi gapirdi predikatidan anglashilgan harakatni yuzaga chiqaruvchi agensni bildiradi. To'rtinchi jumla ikki o'rini munosabatni aks ettiruvchi sistema sanalib, bo'sh o'rirlarni to'ldirgan uy va betondan predmetlari munosabat bildiruvchi qurildi predikati orqali bog'langan. Birinchi predmet predikatdan anglashilgan harakatning natijasi bo'lgan predmetni, ikkinchisi esa predikatdan anglashilgan harakatning yuzaga chiqishiga vosita, material bo'lgan predmetni ifodalaydi.

N da Q vf modeli ham turli semantik-sintaktik variantlar orqali yuzaga chiqadi: 1) Samolyotda uchdik, 2) O'qishda namuna bo'lmoqda. Birinchi jumlada predikatdan ifodalangan harakatning yuzaga chiqishi uchun vosita bo'lgan predmetni, ikkinchisida esa predikatdan anglashilgan harakatning doirasini ko'rsatuvchi predmetni bildiradi.

Anglashiladiki, til sathidagi bir umumlashgan struktura nutqda o'zining turlicha namoyon bo'lish imkoniyatiga ega. To'ldiruvchi holatida kelgan semantik predmet turli vazifalarni bajarishi mumkin: harakatni yuzaga chiqaruvchi predmet, harakatni qabul qiluvchi predmet, harakatning yuzaga chiqishiga vosita bo'lgan predmet, o'xshatilishiga etalon bo'lgan predmet va boshq.

## **HOLLI YOYIQ GAPLAR SEMANTIKASI**

Yig'iq jumlalar tarkibida hol ishtirok etib, jumla mazmunini kengaytiradi. Hollar shakl va mazmun jihatdan rang-barangdir. Shuning uchun ham ularning shakl va mazmuni quyidagi holli gap modellarini gavdalantirishi mumkin:

- I. 1) Hda Q Pf; 2)HgaQPF; 3)Hdap Q Pf; 4)HgachaQPF.

-ligi uchun	-danbuyon	-ga qadar
-ligi sababli	-dan beri	-ga dovur
-ligi tufayli		
-ganiga		

## II. 1) Htarz Q Pf; 2) Hd\_miqQPF                    3) Hshart QPf

Birinchi guruhdagi holli yoyiq gap modellari asosida ko'proq shakl, ikkinchi guruhdagilar asosida esa mazmun yotadi. Birinchi guruhdagi modellar nutq jarayonida leksik birliklar bilan to'ldirilgan holda turli semantik-sintaktik variantlar orqali namoyon bo'lsa, ikkinchi guruhdagilar garchi umumlashgan ma'no asosida tiplarga birlashtirilgan bo'lsa ham, lekin bu modellar ham nutq jarayonida muayyan leksemalar bilan to'ldirilgan holda yuqoridagi umumlashgan ma'noning turli xil variantlari asosida yuzaga chiqadi. Hol holatida kelayotgan argument predikatning semantik valentligini yuzaga chiqaruvchi bo'lganligi sababli predikat talab etgan ma'noda keladi. Masalan,

- 1) Xo'roz hamma yerda bir xil kichqiradi (maqol),
- 2) Omon, seni ko'rgandan beri ko'zlarimga uyqu kelmaydi (H.O.),
- 3) Bo'ri bordi suv, ichgali (Krilov),
- 4) U yashaydi besitam, bezor (H.O.) va boshq.

Birinchi gapda predikatning o'rinni valentligini, ikkinchi gapda payt valentligini, uchinchi gapda maqsad valentligini, to'rtinchi gapda tarz valentligini ro'yobga chiqargan. Shunnung uchun hol tasnifida predikatning semantik valentligi bosh mezon bo'lib xizmat qilishi kerak.

## **PREDMETNING MURAKKAB NOMLARI (DESKRIPSIYA) VA UNING TUZILISHI**

Predikatning bo'sh o'rinalarini predmetning murakkab nomlari ham egallashi mumkin.

Bu vaqtida predmetning murakkab nomlari bir butun holda predikatning argumenti bo'lib keladi. Predmetning murakkab nomi o'z ichki tuzilishiga ega

bo'lganligi tufayli u ham qismlarga ajraladi. Lekin bu, ismlar jumlaning emas, balki murakkab nomning qismi sanaladi. Xususan, aniqlovchilar predmetning belgisini bildirib, u bilan zich bog'langan holda shu predmetning murakkab nomini hosil qiladi va aniqlovchi-aniqlanmish bir butun nom sifatida jumla tuzilishida ishtirok etayotgan boshqa predmet nomlari bilan munosabatga kirishadi. Aniqlovchilarning o'zлari ham murakkab nom hosil qilish darajasiga ko'ra bir xil emas. Sifatlovchi va izohlovchilar qaratqich aniqlovchilarga nisbatan aniqlanmish bilan o'ta zich bog'lanadi. Shuning uchun ham predmetning murakkab nomi tarkibida sifatlovchilar, izohlovchilar va qaratkich aniqlovchilar ishtirok etsa, u vaqtida deskripsiyaning o'zi ikki daraja asosida qismlarga bo'linadi: avvalo, qaratqich guruhi va qaralmish guruhi ajratiladi, so'ngra qaratqich qismi ham, qaralmish qismi ham yana qismlarga ajraladi. Masalan, Aziz asrimizning aziz onlari Aziz odamlardan so'raydi qadrin jumlesi uch o'rinli munosabatni aks ettiruvchi sistemani ifodalaydi. 1) Aziz asrimizning aziz onlari, 2) aziz odamlardan, 3) qadrin argumentlari munosabat bildiruvchi so'raydi predikati orqali o'zaro bog'langan. Bu argumentning ikkitasi predikatning murakkab nomi sanalib, o'z ichki tuzilishiga ega. Birinchi argument dastlab ikki qismga ajraladi: 1) aziz asrimizning, 2) aziz onlari. Deskripsiyaning bu ajralgan qismlari yana ajralishda davom etadi: 1) aziz Q asrimizning; 2) aziz Q onlari.,

Shunday qilib, qaratqich-qaralmishga ajralish deskripsiya tuzilishining birinchi darjasи, sifatlovchi-sifatlanmish, izohlovchi-izohlanmishga ajralish esa ikkinchi darjasи sanaladi.

Predmetning murakkab nomi bir butun holda predikatning bo'sh o'rinalini to'ldirgan holda turli vazifalarda kelishlari mumkin. Masalan, predikat anglatgan harakatni yuzaga chiqaruvchi predmet: Aziz asrimizning aziz onlari Q so'raydi: predikat bildirgan harakat ta'siriga uchrovchi predmet: aziz odamlardan Q so'raydi va boshq.

## **GAPNING KOMMUNIKATIV ASPEKTI**

Agar propozitiv (nominativ) va modal aspektlal gapning in'ikos etish semantikasini, uning denotativ va signifikativ mazmunini aks ettirsa, kommunikativ

plan, birinchidan, so'zlovchining kommunikativ niyatini, ya'ni shu gapdan ifodalangan ob'ektiv mazmum elementlarining ahamiyatlilik darajasini belgilashni (aktual bo'laklarga ajratish) hamda darak, so'roq, bo'yruq ifodalashni, ikkinchidan presuppozitsiya axborotini o'z ichiga oladi . Shunday qilib, til birligi sifatida gap semantikasiga faqat nominativ plan - propozitsiya plani oiddir. Kommunikativ plan esa jumla semantikasining, demak, nutq semantikasining predmetidir .

### **AKTUAL TUZILISHI**

Har qanday sintaktik qurilma gap bo'lishi uchun ma'lum propozitsiyani ifodalashdan tashqari, kommunikativ maqsadni ham ifoda etishi kerak. Masalan, Karim Moskvaga ketdi jumlasida umumiyl tuzilish - propozitsiya ifodalanishidan tashqari, so'zlovchining kommunikativ niyati ham ifodalangan. Bu o'rinda so'zlovchining niyati Karimning harakati haqida ma'lumot berishdir. Shuning uchun ham Karim nima qildi? so'rog'iga javob bo'ladi. Moskvaga Karim ketdi jumlasida esa so'zlovchining kommunikativ niyati kimning ketganligi haqida ma'lumot berishdir. Moskvaga kim qetdi? so'rog'iga javob bo'ladi. Karim Moskvaga ketdi jumlasida esa so'zlovchining kommunikativ niyati yana boshqa harakatning yo'nalishi haqida ma'lumot berishdir. Bu o'rinda Karim qayerga ketdi? so'rog'iga jazob bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, jumlan tashkil etgan sintaktik elementlar ma'lum sintaktik vazifani bajarish bilan birga, so'zlovchining kommunikativ niyatini ifodalab kommunikativ vazifa bajarish uchun ham xizmat qiladi. Jumlaning kommunikativ vazifasi nuqtai nazaridan tuzilishi uning aktual tuzilishi hisoblanadi.

Kommunikativ (aktual) vazifa nuqtai nazariday jumlan tashkil etuvchi elementlar tema (ma'lum) va rema (yangi) qismlarga bo'linadi. Jumlaning rema qismi kommunikativ eng ahamiyatli qism - kommunikativ markaz hisoblanadi. Savol gapning shu kommunikativ markazini-remani aniqlash uchun beriladi. Jumlaning tema qismi avvaldan ma'lum bo'lganligi uchun savolda ham aynan takrorlanadi. Shunga ko'ra, birinchi holatda (Karim nima qildi? so'rog'iga javob bo'lganda) Karim - tema (ma'lum), Moskvaga ketdi - rema (yangi), ikkinchi holatda (Moskvaga kim ketdi? so'rog'iga javob bo'lganda) Moskvaga ketdi - tema (ma'lum), Karim - rema

(yangi); uchinchi holati (Karim qayerga ketdi? so'rog'iga javob bo'lganda) Karim ketdi - tema (ma'lum). Moskvaga - rema (yangi) hisoblanadi.

Ko'rinib turibdiki, jumla kommunikativ (aktual) jihatdan doimo ikki qismdan - tema (ma'lum) va rema (yangi) qismlardan tashkil topadi. Bu jihatdan sintaktik strukturaning an'anaviy bosh bo'laklariga o'xshaydi. Ba'zan ularga teng kelishi mumkin: tema - egaga, rema - kesimga. Ammo tema-rema va ega-kesim bo'linishlari o'zaro munosabatda bo'lgan boshqa-boshqa tuzilishlar bo'linishi bo'lganligidan, ular bir-biridan tubdan farq qiladi. Sintaktik tuzilish elementlari bosh bo'laklardan tashqari, yana boshqa bo'laklardan ham tashkil topsa, kommunikativ tuzilish doimo ikki elementdan - kommunikatsiya predmeti - tema va tema haqida ma'lumot beruvchi kommunikativ markaz - remadan tashkil topadi.

Aktual bo'laklarni ifodalash uchun tilshunoslikda turli xil terminlardan foydalilanadi. Masalan, asos va yadro (Matezius), ma'lum va yangi (Krushel'nitskaya), asos va predikatsiyalanuvchi qism (Raspopov) va boshq. Shuningdek, mantiqiy sub'ekt va mantiqiy predikat, ruhiy sub'ekt va ruhiy predikat, mazmuniy sub'ekt va mazmuniy predikat terminlari ham ishlatiladi.

Tema va remalarga bo'linishning aktual bo'linit hisoblanishining sababi shuki, so'zlovchi uchun bu bo'linish aktual, faqat shu kontekst uchun, yoki shu vaziyat uchun xos bo'lgan bo'linishdir. Yuqoridagi Karim Moskvaga ketdi jumlasining uch xil bo'linishi shuni ko'rsatadiki, aloqa-aratashuvning konkret vaziyatiga Qarab so'zlovchi o'z oldiga turli xil kommunikativ vazifa qo'yadi.

Tilshunoslikda bunday bo'linish aktual bo'linish terminidan tashqari, boshqa bir qator terminlar bilan ham ifodalanadi: Kommunikativ bo'linish, kontekstual bo'linish, tema-rematik bo'linish, jumlaning funksional yo'nalishi, jumlaning kommunikativ yo'nalishi va boshq.

Ma'lum va yangi ma'nolar nutq jarayonida so'zlovchining kommunikativ niyatiga ko'ra jumlaning asosiy grammatik ma'nosi ustiga qo'yiladi .

Shunday qilib, gap bo'laklarining kommunikativ yuki jumla mazmunining ajralmas qismi, shuning uchun aktual bo'linishni alohida sintaktik kategoriya sifatida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Aktual bo'linishning o'rganilish tarixi. Hozirgi tilshunoslikda aktual bo'linish termini ostida o'rganilayotgan hodisa ancha uzoq vaqtlardan buyon tilshunoslar tomonidan kuzatilib kelinadi. Prof.A.Rustamovning og'zaki ma'lumotiga qaraganda, O'rta Osiyo filologlari, xususan, Zamaxshariy asarida ham bu hodisa ma'lum bo'lgan. Aktual bo'linish qismlarini ifodalovchi maxsus terminlar ham qo'llanilgan: mavzu (tema), mahmul (rema). Ammo aktual bo'linish jahon tilshunosligiga Yevropa lingvistlari asarlari orqali tarqaldi. Uzoq vaqtgacha bu hodisa lingistik hodisa emas, balki mantiqiy yoki ruhiy hodisalar sifatida talqin qilinib keldi.

Ushbu hodisani ruhiy aspektida o'rganish bir qator nemis olimlari nomi bilan bog'liqdir. Jumladan, XIX asrning mashhur olimi G.Fon de Gabelens so'zlovchi ongida hosil bo'ladigan tasavvur bog'lanishiga e'tibor beradi. Nutq predikati sifatida ishtirok etadigan birinchi tasavvur "ruhiy sub'ekt", "ruhiy sub'ekt" haqida ma'lumot beradigan ikkinchi tasavvur "ruhiy predikat" bo'ladi, deydi.

G.Paul' ham ushbu hodisa yuzasidan shunga o'xshash fikr yuritadi. U "ruhiy ega", "ruhiy kesim" terminlaridan foydalangan holda, jumlada eng muhim gap bo'lagi mantiqiy urg'u ostida bo'lgan ruhiy kesim ekanligini aytadi. U Karl ertaga Berlinga ketadi gapidagi to'rt gap bo'lagidan har biri ma'lum-noma'lumlik belgisiga ko'ra ruhiy kesim bo'lib kelishi mumkin. Mantiqiy urg'u ostidagi bo'lak ruhiy kesim bo'ladi va u noma'lum narsa haqida yangi ma'lumot beradi, deydi .

Bu masala mashhur rus tilshunoslari F.F.Fortunatov, A.M.Peshkovskiy, A.V.Shcherba, V.V.Vinogradov asarlarida ham ma'lum darajada aks etdi. F.F.Fortunatov fikricha, ruhiy hukmning ifodalanish shakli gapdir, lekin gapning grammatik bo'laklari bilan ruhiy bo'laklar bir-biriga muvofiq kelmasligi mumkin. Masalan, keldi Farhod jumlesi orqali ifodalangan ruhiy ega - keldi (so'zlovchi va tinglovchi ma'lum fakt) va ruhiy kesim Farhod (ma'lum fakt haqida yangi axborot) dan tashkil topsa boshqa vaziyatda, masalan, Farhod keldi jumlasida ruhiy ega -

Farhod (ma'lum fakt), ruhiy kesim - keldi (yangi fakt) bo'lishi mumkin. Bular orasida D.M.Peshkovskiyning kuzatishlari e'tiborga loyiqdir. A.M.Peshkovskiyning nutqning ritmik-intonatsion tomoniga alohida e'tibor bergenligi uni aktual bo'linish hodisasiga ancha yaqinlashtirdi. Ammo u bu hodisani grammatikaning o'rganish ob'ektidan tashqaridagi hodisa hisoblab, bu masalaga maxsus to'xtalmadi. A.M.Peshkovskiy jumla intonatsiyasi yuzasidan juda qiziqarli kuzatishlar olib borish bilan intonatsiyaning jumla mazmuniga ta'siri haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. U "intonatsion kesimlik" haqida fikr yuritar ekan, uni "grammatik kesimlik"ka qarama-qarshi qo'yadi. Agar mantiqiy urg'u fe'lda yoki predikativ so'zda bo'lsa, intonatsion kesim bilan grammatik kesimning bir-biriga muvofiq kelishi, boshqa hollarda esa, bir-biridan farq qilishi, intonatsion kesimning grammatik kategoriya emasligi haqida ma'lumot beradi .

Bu hodisaning aktual bo'linish termini ostida maxsus o'rganish mashhur chex tilshunosi V.Matezius qalamiga mansubdir . U XIX asr fransuz tilshunosi A.Veylning ayrim g'oyalariga tayangan holda, birinchi marta aktual bo'linish muammosi lingvistikaga oid ekanligini isbotladi. U aktual bo'linishning sintaktik bo'linish bilan munosabati va undan farqini ko'rsatib berdi. Aktual bo'linish ma'lum grammatik vositalarga asoslanishi ko'rsatiladi. V.Matezius tilshunoslikning navbatdagi vazifasi gapning shakliy va aktual bo'linishlari o'rtasidagi munosabatni konkret materiallar asosida ko'rsatish kerakligini va bu vazifaning g'oyat ahamiyatli zkanligini, chunki har bir tilda gapning shakliy va aktual bo'linish munosabati masalasi eng xarakterli masalalardan biri ekanligini ta'kidladi.

V.Mateziusning aktual bo'linish nazariyasi uning izdoshlari F.Danesh, Skalichka, Ya.Firbas, P.Adames I.Mistriklar tomonidan yanada chuqurlashtiriladi. Natijada bu nazariya faqat chex tilshunosligidagina emas, balki jahon tilshunosligida ham keng tarqaldi. Bu masala rus tilshunosligida ham keng o'rganila boshlandi.

Xususan, rus tilshunosligida bu masalaning o'rganilishi K.G.Krushchel'nitskaya , I.P.Raspopov , I.I.Kovtunova , V.3.Panfilovlar nomi bilan bog'liqdir. Qeyingi

davrlarda turkiyshunoslikda ham gapning aktual bo'linishiga bag'ishlangan bir qancha asarlar maydonga keldi .

Aktual va sintaktik bo'linishning turli sathga oidligi. Aktual bo'linish jumlaning kommunikativ maqsadini aks ettiradi va kommunikativ sintaksisga oid bo'ladi, Aktual bo'linish nuqtai nazardan qaralgan jumla ayrim tilshunoslар tomonidan til sistemasining alohida sathi - aktual bo'linish sathi sifatida ham ajratiladi. V.3.Panfilov bo'linish sathini mantiqiy-grammatik sath deb Nomlaydi. Uning fikricha, bir jumlaning tarkibida shu jumani tashkil etgan har bir sintaktik elementning (gap bo'lagining) sintaktik vazifasini o'zgartmagan holda aktual bo'linishning temasi ham bo'la olishi aktual bo'linishning semantik bo'linish doirasidan chiqarishini ko'rsatadi. Ko'rinish turibdiki, biz bu o'rinda bir sintaktik sathning o'zidagi xodisaning emas, balki undan yuqoriroq bo'lgan gap hodisasining guvohi bo'lamiz. Chunki aktual bo'linish bilan bog'liq bo'lgan hamma hodisalar an'anaviy sintaktik sath doirasida izohlanishi mumkin emas , - deydi.

I.P.Raspopov konstruktiv-sintaktik sath va kommunikativ-sintaktik sathlarga ajratib, aktual bo'linishni keyingi sathga kiritadi. I.I.Kovtunovning ta'kidlashicha, bu ikki sathga ajratish g'oyasi aktual bo'linish va so'z tartibini o'rganish uchun favqulodda ahamiyat kasb etadi. Bu narsa so'z tartibining ikki sathdagi vazifasini va bu vazifalarning jumla tuzilishidagi o'rnini belgilash imkonini yaratdi .

## **JUMLA PARADIGMATIKASI VA SINTAGMATIKASINING AKTUAL BULINISH BILAN MUNOSABATI**

Har qanday jumla nutq birligi sifatida nutq (tekst) ichida kedib, o'zidan oldingi va o'zidan keyingi jumlalar bilan munosabatda bo'ladi. Bundan munosabat jumlaning sintaktik munosabati hisoblanadi. Mantiqiy izchillikka ega bo'lgan har qanday nutq (tekst) sintaktik munosabatlarning o'zaro zichligi va sintagmatik tobelikning bir tomonlama - oldingi jumladan keyingi jumлага qarab yo'nalishi bilan xarakterlanadi. Bu shuni ko'rsatadiki, jumla shakli o'zidan oldingi jumлага bog'liq bo'ladi. Keyingi

jumlaning esa oldingi jumla shakli uchun ahamiyati bo'lmaydi. Jumlalar o'rtasidagi sintaktik tobelilikning bunday bir tomonlama yo'nalish munosabati nutq zanjirining zamondagi tadrijiy kengayishini ko'rsatuvchi nutq xarakteri bilan belgilanadi.

Jumlalar o'rtasidagi sintaktik tobelilik aktual bo'linish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Har bir jumlaning tema-remasi ushbu jumlaning kontekst talab etgan konkret kommunikativ vazifasi bilan belgilanadi. O'zidan oldingi jumla mazmuniga qarab, keyingi jumlaning sintaktik tuzilishi turlicha aktual bo'linishi mumkin. Masalan, Mehmonlar kelishdi sintaktik qurilmasi asosida oldingi kontekstga asoslangan holda ikki xil jumla hosil qilish mumkin: Mexmonlar kelishdi; Kelishgan mehmonlardir. Bular dan birinchi jumla ikki kommunikativ niyatdan birini ifodalashi mumkin: fakt, vaziyat haqida bir butun ma'lumot beradi (bu vaqtida oldingi jumla tarkibida ushbu jumla temasi (mehmon) aytilmagan bo'lishi ham mumkin), yoki mehmonlar kelishganligi haqida ma'lumot berish (bu vaqtida tema (mehmonlar) haqida ma'lumot oldingi jumlada beriladi).

Bir sintaktik tuzilishning aktual bo'linish jihatdan turli variantlari shu sintaktik qurilmaning aktual bo'linish paradigmasi hisoblanadi.

Jumlaning paradigma a'zosi sifatidagi xarakteristikasi ushbu jumlaning sintagmadagi pozitsiyasiga bog'liq bo'ladi. Aktual bo'linish paradigmasining bosh a'zosi sintaktik bo'linish bilan mos keladi: sintaktik tuzilish egasi (yoki ega guruhi) aktual bo'linish temasi, sintaktik tuzilish kesimi (yoki kesim guruhi) aktual bo'linish remasi bo'lib keladi. Masalan, O'qituvchi o'quvchilarga dars o'tdi jumlasida sintaktik ega pozitsiyasida kelgan o'qituvchi - tema sintaktik kesim pozitsiyasida kelgan dars o'tdi bo'lagi o'zi ergashtirib kelgan o'quvchilarga bo'lagi bilan birga - rema.

Tema axborot predmeti hisoblanadi. Shuning uchun ham tema uchun eng xarakterli so'z turkumi predmet ma'nosini bildiruvchi so'zlar sanaladi. Temaning tipik ifodalanish usuli ega va ega guruhidir. Rema tema haqida ma'lumot beradi. Demak, rema uchun eng xarakterli so'z turkumi belgi bildiruvchi so'zlar bo'ladi. Remaning tipik ifodalanish usuli kesim yoki kesim guruhi hisoblanadi. Bundan ko'rindaniki, ega va ega guruhining oldin kelishi, kesim va kesim guruhining keyin kelishi, kontekst

shart-sharoitidan qat'i nazar, tema-rematik munosabatni ko'rsatishga eng muvofiq holati hisoblanadi. Qismlari bunday tartibda joylashgan jumlalar umumiy hukmni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday tartib kontekst bilan bog'liq bo'lmaydi, shuning uchun bunday jumlalar kontekstual, yoki sintagmatik mustaqil jumlalar hisoblanadi. Kontekstda bunday jumla mustaqil pozitsiya egallaydi.

Kontekst sintaktik va aktual bo'laklarning yuqoridagidek munosabatini buzib yuborishi mumkin. Natijada aktual bo'linish paradigmasing boshqa a'zosi hosil bo'ladi. Bu vaqtda belgi bildiruvchi so'zlar predmet bildiruvchi so'zlar tema bo'lib kelishi mumkin. Bunday holat, odatda, tema mazmuni kontekst yoki vaziyat orqali ma'lum bo'lganda sodir bo'ladi. Yuqoridagi kabi jumlalar kontekst yoki vaziyat bilan aambarchas bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bunday jumlalar kontekstual yoki sintagmatik tobe jumlalar hisoblanadi. Kontekstda bunday jumlalar sintagmatik tobe pozitsiyani egallaydi. Shunday qilib, jumlaning aktual bo'linish paradigmasi sintagmatik mustaqil va sintagmatik tobe jumlalarni o'z ichiga oladi. Odatda sintagmatik mustaqil jumlalar paradigmaning boshlang'ich a'zosi - invarianti hisoblanadi.

Sintagmatik mustaqil va sintagmatik tobe jumlalar savol sistemasi orqali ham aniqlanishi mumkin. Sh.Balli savollarni diktal va modal so'roqlarga ajratadi va ularki o'z navbatida yana ikkitadan qismga ajratadi: 1) to'liq diktal, 2) qisman diktal so'roqlar va 1) to'liq modal, 2) qisman modal so'roqlar.

Diktal so'roqlar jumla orqali bayon qilinayotgan ob'ektiv mazmunga (diktumga) aloqador bo'lsa, modal so'roqlar jumla mazmunining ob'ektiv borliqqa munosabatiga (modusiga) aloqadordir. To'liq so'roqlar butun bir jumлага, qisman so'roqlar shu jumlaning bir qismiga aloqador bo'ladi.

Xususan, to'liq diktal so'roq jumlaning umumiy mazmuniga qaratilgan bo'ladi. Bu so'roqqa jumlaning o'mumiy mazmuni javob bo'ladi. Qisman diktal so'roq esa shu jumla tarkibida ma'lum bir qismda ifodalangan mazmunni aniqlashga qaratiladi. Jumlaning boshqa qismi esa so'zlovchiga ma'lum bo'ladi. Bu so'roqqa shu jumlaning ma'lum bir qismi - axborot tashishda ahamiyatli qismi javob bo'ladi. Masalan, Kim

o'qidi? so'rog'ida kimdir o'qiganligi ma'lum, ammo kim o'qiganligi noma'lum. Shu noma'lum, javob talab qiladigan qism yangi axborot tashishda ahamiyatli hisoblanadi.

To'liq modal so'roq jumladan anglashilgan mazmunning ob'ektiv reallikka munosabatini aniqlash uchun beriladi. So'roq maqsadi jumladan anglashilgan mazmunning to'g'ri yoki noto'g'rilibini aniqlash bo'ladi. Tasdiq yoki inkor javobni talab qiladi. Qisman modal so'roq shu jumlaning ma'lum qismidan anglashilgan shubha ostidagi mazmunni aniqlash uchun beriladi. Masalan, Karim matabga (?) ketdimi? Javob-Ha, matabga, yoki: Yo'q, matabga emas.

P.Adames savolning yuqoridagi turlaridan qaysi biriga javob bo'lishiga qarab; jumlaning to'rt xil aktual turini belgilaydi.

1. Umumaxborotli jumlalar. Bunday jumlalar umumdnktal so'roqlarga javob bo'ladi va aktual axborot gapning umumiyligi mazmuniga muvofiq bo'ladi. Shuning uchun ham aktual bo'lak sintaktik bo'lakka muvofiq keladi.

2. Qismanaxborotli jumlalar. Bu tipdagi jumlalarda ob'ektiv mazmunning ma'lum qismi haqida ma'lumot beriladi. Qolgan qismi oldingi gaplardan ma'lum, deb tasavvur qilinadi. Bunday jumlalarda aktual axborot ob'ektiv mazmunning bir qisminigina o'z ichiga oladi. Shuning uchun u ma'lum kontekstni talab qiladi. Undan tashqari matndan uzib olinganligi sezilib turadi. Qontekstual tobe bo'ladi.

3. Umummunosabatli jumlalar. Bunday jumlalar yangi xabar emas, balki suhbатdoshning fikriga so'zlashuvchining reaksiyasi, munosabatini ifodalaydi. Umummunosabatli jumlalarda ob'ektiv mazmunning realligi aks etadi. Bunday jumlararning asosi inkor yoki tasdiqlik bo'ladi. Masalan, Karim kelmadi. Biz talabamiz.

4. Qismanmunosabatli jumlalar. Bunday jumlalarda butun bir jumla mazmunining realligi emas balki uning ma'lum bir aspektining realligi aniqlanadi. Masalan, Faqat Karim keldi.

Aktual bo'laklar sintaktik bo'laklarga muvofiq keladigan sintagmatik mustaqil jumlalar umumaxborotli jumlalarga mos keladi va to'liq diktal so'roqlarga javob bo'ladi.

Aktual bo'laklar bilan sintaktik bo'laklar muvofiq kelmaydigan sintagmatik tobe jumlalar qismanaxborotli va qismanmunosabatlari jumlalarga mos keladi va qismandiktal hamda qismanmodal so'roqlarga javob bo'ladi.

Shunday qilib, so'roq tiplari sintagmatik mustaqil sintagmatik tobe jumlalarni ajratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ma'lum bir jumlaning tema va remalarga ajratishda ham so'roq xizmat qiladi. So'roqda mavjud bo'lgan axborot temaga oid, so'roq orqali aniqlanadigan axborot esa remaga oid bo'ladi. Masalan: Kolxozchilar bahorgi dala ishlarini boshlab yubordilar qurilmasida Kolxozchilar nima qildilar so'rog'i? temani hosil qiluvchi jumla qismini (kolxozchilar) o'zida aks ettiradi. So'roqqa javob bo'lgan qism (bahorgi dala ishlarini boshlab yubordilar) rema hisoblanadi.

Yoyiq jumlalarda aktual bo'linish. Yoyiq jumlalarda aktual bo'linish yig'iq jumlalar aktual bo'linishiga o'xshaydi. Ammo yoyiq jumlalar tema va remalari yig'iq jumlalardagi singari bittadan so'zlardan emas, balki so'zlar guruhidan tashkil topadi. Bunday so'zlar guruhining tema-rematik bo'linishi ham yoyiq jumlalarda o'ziga xbs xususiyatga eg'a: tema guruhi sintaktik ega sostavi va kesim sostavi asosida emas, balki yoyiq jumlaning tashkil etgan sintaksemalarning kommunikativ vazifasiga qarab ajratiladi. Tema va remalar bir necha sintaksemalardan emas, balki birgina sintaksemadan tashkil topishi mumkin. Bunga ko'ra kesim sostavi ham, kesim sostavining yetakchi elementi - asos qismi (ko'proq fe'l) ham, kesim sostavinn tashkil etgan ikkinchi darajali bo'laklarning o'zi ham rema bo'lishi mumkin. Qolgan qismlar esa tema bo'ladi. Masalan, Aziz asrimizning aziz onlari aziz odamlardan so'raydi qadrin jumlesi aktual bo'linishiga ko'ra quyidagi paradigmni hosil kiladi: Aziz asrimizning aziz onlari aziz odamlardan so'raydi qadrin (Aziz asrimizning aziz onlari aziz odamlardan qadrini nima qildi?) Asrimizning aziz onlari aziz odamlardan so'raydi qadrin (... nimani so'raydi?); Aziz asrimizning aziz onlari aziz odamlardan so'raydi qadrin (...kimga so'raydi?) Aziz asrimizning aziz onlari aziz odamlardan so'raydi qadrin (...kimlarda so'raydi?) Aziz asrimizning aziz onlari aziz odamlardan so'raydi (...kimning nimaning onlari so'raydi?).

Sintagmatik tobe yoyiq gaplarda birdan ortiq tema qatnashishi ham mumkin. Ma'lum bir jumlada birdan ortiq tema qatnashganda aktual bo'linish bosqichli xarakter kasb etadi. Bunday bosqichli bo'linish aktual bo'linishning dixotomik (ikki a'zolar) prinsipiga ta'sir etmaydi. Jumla ikki temaln bo'lganda, tema-remalarga ajratishning birinchi bosqichida ikkinchi tema rema tarkibiga kiradi. Ikkinchi bosqichda esa rema qism yana tema va remalarga bo'linadi Masalan, Dostonlarni u yoddan o'qir edi. Bu jumlanpnr aktual bo'linishining birinchi bosqichida dostonlarni - tema, u yoddan o'qir edi - rema. Ikkinchi bosqichda yana tema-remalarga ajraladi: U - tema, yoddan o'qir edi- rema.

Tema va remalarning "ma'lum" va "yangi" bilan munosabati. Mavjud lingvistik adabiyotlarda ba'zan "ma'lum"- "yangi" terminlari "tema"- "rema" terminlari o'rnida ko'llaniladi. Ammo amaliy materiallar shuni ko'rsatadiki, "ma'lum"- "yangi" tema-remalarga to'liq mos kelmaydi. Chunki "ma'lum" oldingi kontekstda bayon qilingan yoki vaziyatdan aniq bo'lgan tushunchani ifodalaydi. Darhaqiqat, ko'p hollarda tema ma'lum (berilgan) narsani ifodalaydi. Ammo ayrim hollarda tema so'zlovchi yoki o'quvchi uchun yangi, noma'lum bo'lishi ham mumkin. Hikoya, bob, abzats boshlanishlari ba'zan "yangi"ni ifodalashi mumkin. Ammo aktual jihatdan tema hisoblanadi. Masalan, Oybekning "Bolalik" povesti shunday boshlanadi.

Tor ko'chada, qo'shnilarining eski, shaloq eshigi oldida, mening chol bobom o'z o'rtog'i - uzun soqolli, yirik jussali, kar qulqoq mo'ysafid bilan nimalar to'g'risidadir ezmalanib so'rashadi. Bobom oriq, kichkina gavdasini devorga suyab, cho'qqaygan, hassasini tizzalari orasiga qadagan. O'rtog'i esa qo'pol, eski sagri kavush kiygan, uzun, sertuk oyoqlarini uzatib, oftobga yag'rinini tutgan holda, yerga yonboshlab o'tiribdi. Ko'chadan otarava o'tmaydi; shovqin-suron yo'k. Siyrak o'tkinchilar, albatta, qo'l qovushtirib "Assalom!" deb o'tardilar, Chollardan biri yoki ikkovi birdan javob beradi: "Vaalaykum..."

Bu parchadagi faqat bobom, o'rtog'i esa, ko'chadan, siyrak o'tkinchilar va chollardan biri yoki ikkovi temalarigina "ma'lum"ni ifodalaydi. Chunki ular haqida

o'zidan oldingi jumlada ma'lumot berilyapti. Qolgan temalar esa kontekst yoki vaziyatdan ma'lum emas birinchi marotaba uchraydi.

Demak, bu ikki tushunchalar bir-biriga ko'p holda muvofiq kelsa ham, ammo tamomila teng hodisalar emas.

### **AKTUALLASHISH**

Gap bo'laklarining normal tartibining va intotsion tuzilishining bosh paradigmatic a'zoga nisbatan o'zgarishi hamda bu jumlaning sintagmatik tobe jumлага aylanishi uning aktuallashishidir, ya'ni konkret nutqiy vaziyatning talabiga moslashishi hisoblanadi. Aktuallashish jumлага vaziyat shart-sharoiti talabi bilan shu jumla orqali ifodalanadigan mazmunning kommunikativ niyatiga muvofiq keladigan shakl beradi.

Aktuallashtiruvchi vositalar. Sintagmatik mustaqil jumlaning sintagmatik tobe jumлага aylantirish uchun xizmat qiladigan lisoniy vositalar-aktuallashtiruvchi vositalardir. So'z tartibi va intonatsiya gapning aktual bo'linishi bilan shug'ullangan tadqiqotchilarining hammasi tomonidan aktuallashtiruvchi vositalar sifatida tan olinadi. Bunga qo'shimcha ravishda ayrim tadqiqotlar yuklamalarning (Panfiloz, Toropova, Abdullayev va boshq.), inkor bildiruvchi affikslarning (Panfilov), reduplikatsiyaning (Shevyakova, Abdullayev) aktuallashtiruvchilik vazifasini ko'rsatadilar.

So'z tartibi. So'z tartibi gap tuzilishining bir vaqtning o'zida ikki sathida - sintaktik tuzilish va aktual tuzilish sathlarida funksiyalashadi. I.I.Kovtunova ta'kidlaganidek, so'z tartibining roli gap tuzilishining yuqoridaagi ikki sathida bir xil emas. Sintaktik tuzilishdagi so'z tartibi aktual tuzilishi uchun ham xizmat qiladi.

Uzoq vaqtlardan buyon so'z tartibi sintaktik tuzilishga nisbatan o'rganib kelindi. Natijada uning haqiqiy vazifasi tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan. So'z tartibini faqat sintaktik tuzilish sathida o'rganish ma'lum bir tildagi jumlada so'zlar tartibining aniq qonuniyatini aniqlashda ma'lum qiyinchilik tug'dirdi. Chunkn so'z tartibi erkin bo'lgan tillarda ham bir gap bo'lagi jumlada turli o'rinda kelishi mumkin.

Jumlada gap bo'laklari tartibining haqiqiy vazifasi va ularning qonuniyati birinchi marta mashhur chek tilshunosi V.Matezius tomonidan o'rganildi va u aktual bo'linishning shakliy ko'rsatkichlaridan biri sifatida aniq ko'rsatib berildi.

Turkiy tillarda ham gap bo'laklarlning tartibi erkendir. Tartibning grammatik vazifa bajarishi juda cheklangan. Chunki har bir gap bo'lagining grammatik shakli uning grammatik vazifasini ko'rsatib turadi. Masalan: Men kecha Moskvadan keldim - Kecha men Moskvadan keldim - Moskvadan men kecha keldim - Moskvadan kecha men keldim va boshqalar. Demak, gap bo'laklari tartibi erkin bo'lgan tillarda tartibning haqiqiy vazifasi shu jumla tartibidagi bo'laklardan birining yoki bo'laklar kompleksining mazmuniy ahamiyatini ajratib ko'rsatishdir. Bu shuni ko'rsatadiki, gapda so'zlar tartibi ayniqsa, turkiy tillarda aktual bo'linish masalasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun ham gapning aktual bo'linishi ta'limotining lingvistikaga kiritilishi turkiy tillarda so'z tartibi muammosini hal qilishda mustahkam tayanch bo'lib xizmat qiladi. I.I.Kovtunozaning ta'kidlashicha, gapda lingvistik muammo snfatidagi so'zlar tartibi masalasi uning bosh omili bo'lgan aktual bo'linish masalasini o'rganmasdan turib, to'g'ri hal qilinmaydi. Bu ikki muammoning bir fan - lingvistika doirasida birlashtirilishi so'z tartibi masalasini hal qilishda o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatadi.

Gapning sintaktik tuzilish sathida sintaktik uzvlarning joylanish qoidalari haqida gap boradi. Bu qoidalarni o'rganishda siktaktik bo'laklar darajalanishi tushunchasi muhim rol' o'ynaydi. Bunga ko'ra gap bo'laklari dastlab sintaktik guruhlarga, sintaktik guruhlar esa, o'z navbatida, ularni tashkil etuvchi qismlarga ajratiladi. Sintaktik yopiq gaplar ega va kesim guruhiga (ya'ni ega va kesim o'zi ergashtirib kelgan so'zlar bilan) bo'linadi. Bu guruhlar, o'z navbatida, shu guruhlarni tashkil etgan so'z birikmasi qismlariga ajraladi. Ega va kesim guruhlarining o'zaro joylashuvi hamda har qaysi guruh qismlarining o'zaro joylashuvi qismlar o'rtasida sintaktik aloqaning xarakteriga muvofiq keladigan qoidalarga bo'ysunadi. O'zbek tilida ega-kesim munosabatida doimo ega oldin, kesim keyin, so'z birikmalari sathida

esa (ya'ni ikkinchi darajali bo'laklarning hokim bo'lak bilan munosabatida) doimo tobe bo'lak oldin hokim bo'lak keyin keladi.

Gapning aktual bo'linish sathida esa butun bir so'z komplekslari aktual bo'linishning qaysi qismiga - tema yoki remaga kirishiga qarab joylashadi. Uslubiy neytral adabiy nutqning mantiqiy to'g'ri qurinishi shuni taqozo etadiki, jumlaning ko'pincha tinglovchi yoki o'quvchiga ma'lum bo'lgan tayanch nuqtasi gap boshida keladi. Tema haqida tinglovchi yoki o'quvchi uchun noma'lum bo'lgan yangi ma'lumot beruvchi rema esa gap oxirida, temadan so'ng keladi. Bu qoidaning buzilishi boshqa tillarda, xususan, rus tilnda bo'lganidek, o'zbek tilida ham mantiqiy izchillikning buzilishiga, yoki ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lishga olib keladi. Ko'rinish turibdiki, aktual bo'linish sathida so'z tartibi gap mazmuni bilan bog'liq bo'lgan ma'lum vazifaga ega bo'ladi - tema va remalarni farqlash vazifasini bajaradi.

Agar ega guruhi tema, kesim guruhi rema bo'lib kelsa, aktual bo'linish sintaktik bo'linish bilan muvofiq keladi. Masalan: Kolxozchilar bu yil paxtadan mo'l hosil oldilar. Bu jumlada sintaktik ega kolxozchilar aktual jihatdan tema, sintaktik kesim hisoblangan hosil oldilar o'zi ergashtirib kelgan bu yil paxtadan mo'l so'zlari bilan bir guruhni hosil qilib rema bo'lib kelyapti. Bunda kommunikativ maqsad kolxozchilar haqida axborot berishdir. Ammo yuqoridagn gapning kommunikativ maqsadi bundan boshqa ham bo'lishi mumkin. Bu vaqtda gap bo'laklarining sintaktik sathdagi normal tartibi buziladi. Qaysi bo'lak haqida axborot berilishi lozim bo'lsa, shu bo'lak oldin, U haqda axborot beruvchi qism esa undan keyin keltiriladi. Solishtiring:

Bu yil kolxozchilar paxtadan mo'l hosil oldilar. Paxtadan bu yil kolxozchilar mo'l hosil oldilar.

Birinchi jumlada bu yil-tema, qolgan qism-rema, nkkinchi jumla paxtadan - tema, qolgan qism - rema bo'lib kelyapti. Demak, ega yoki ega guruhi tema bilan, kesim yoki kesim guruhi rema bilan muvofiq kelmasa, sintaktik va aktual bo'linish o'rtasida nomuvofiqlik mavjud bo'ladi.

Aktual bo'linish bilan sintaktik bo'linish o'rtasida nomuvofiqlik mavjud bo'lganda, sintaktik struktura sathi uchun lozim bo'lgan qoida o'z kuchini yo'qotadi va aktual bo'linish sathi qoidasi kuchga kiradi tema oldin, rema keyin keladi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, turkiy tillar uchun gapning sintaktik strukturasi sathida so'z tartibi ma'no ifodalovchi vosita vazifasini bajarmaydi, ya'ni grammatik kategoriyalarni farqlash uchun xizmat etmaydi. Gap bo'laklarining o'rni o'zgargani bilan ko'pincha uning sintaktik vazifasi o'zgarmaydi. Aktual bo'linish sathida esa u farqlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Demak, so'z tartibi gapning sintaktik tuzilishi uchun xos bo'lmasa, ya'ni farqlovchilik vazifasiga ega bo'lmasa, aktual bo'linish sathi uchun farqlovchilik vazifasini bajaradi.

## **YOYIQ JUMLALARDA IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARNING O'RNI**

Turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida, uslubiy neytral adabiy nutqning (gap bo'laklari invariant joylashgan nutq) sintaktik sathda to'g'ri qurilish ik-kinchi darajali bo'laklarning hokim bo'lakdan oldin kelishini taqozo etadi. Ammo kommunikativ (aktual) sathda ikkinchi darajali bo'laklar hokim bo'lakdan keyin kelishi ham mumkin. Tartibi o'zgartirilgandan keyin ham sintaktik vazifasi o'zgarmagan har qanday ikkinchi darajali bo'lak aktual farqlovchi belgi vazifasini o'taydi. Qommunikativ ahamiyatli bo'lakka - rema qismga aylanadi.

Turkiy tillarda aktuallashgan bo'lakning ikki XIL o'rni ko'rsatiladi. K.M.Abdullayevning ta'kidlashicha, turkiy tillarda aktuallashgan bo'lakning ya'ni remaning ikki xil o'rni borligini 1) kesimdan oldingi o'rni, 2) gapning oxiri va shunga ko'ra aktuallashishning ikki darjasasi - kuchli va kuchsiz aktuallashish mavjud ekanligini ta'kidlaydi. Ozarbayjon tilida kuchli aktuallashish jumlaning eng oxirida, kuchsiz aktuallashish esa kesimning oldida sodir bo'ladi. Uning ko'rsatishicha, hamma bo'laklar shunday ikki darajadagi aktuallashishga ega bo'ladi. Bu nuqtai nazardan o'zbek tili turkiy tillar sistemasida alohida o'rin egallaydi. Chunki o'zbek tilida ayrim bo'laklar (masalan, ega va kesim) aktuallashishning faqat bir darajasiga - kuchli darajasiga ega. Ega aktuallashuvining kuchli darjasasi uchun gapning oxirgi

o'rni xarakterlidir. Hol va to'ldiruvchilarda bu darajasini kuzatish mumkin. Ammo bunday holat og'zaki nutq uchun ham, yozma nutq uchun ham normal hol emas. Odatda o'zbek tilida hol va to'ldiruvchilarining so'z tartibi yordamida aktuallashish o'rni kesim oldi o'rni hisoblanadi. Masalan: Men kecha kitob o'qidim. Kecha kitobni men o'qidim: Kecha men kitobni o'kidim. Men kitobni kecha o'qidim.

Yuqoridagi paradigmada gap bo'laklarining ob'ektiv joylashishida (birinchi paradigmatic a'zo) ega - tema, kesim guruhi - rema: ikkinchi paradigmatic a'zoda men - rema, qolgan qism - tema; uchinchi paradigmatic a'zoda kitobni - rema, qolgan qism - tema; to'rtinchi paradigmatic a'zoda esa kecha - rema, qolgan qism - tema bo'lib kelyapti.

Sifatlovchi aniqlovchilarining aktuallashish o'rni aniqlanmishdan keyingi o'rindir. Demak, ajratilgan sifatlovchilar sintaktik struktura uchun xarakterli belgi emas. U faqat aktual tuzilishdagina farqlovchi belgi vazifasini bajaradi. Har qanday ajratilgan sifatlovchi kommunikativ ahamiyatli bo'lak - rema hisoblanadi. Bu shuni ko'rsatadiki, jumlaning aktual tuzilishida ikki tema ishtirok etishi mumkin bo'lganidek, ikki rema ham ishtirok etishi mumkin. Har qanday ajratilgan sifatlovchi ishtirok etgan jumlalarda ikki rema mavjud bo'ladi. Bunda ham aktual bo'linishning dixotomik prinsipiiga putur yetmaydi. Dastlabki butun bir gap jumla aktual jihatdan ikki guruhga - tema va remalarga bo'linadi va undan so'ng yo tema qism, yoki rema qism yana tema-remalarga bo'linadi. Birinchi bo'linishdagi rema - asosiy, yetakchi, ikkinchi bo'linishdagi rema esa unga ko'makchi, qo'shimcha rema hisoblanadi. Masalan, Qobil bobo - yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og'il eshigi oldida dirdir qaltirardi. (A.Q.) Bu birinchi bo'linish. Birinchi guruh ikkinchi guruh uchun tema, ikkinchisi birinchisi uchun remadir. Tema guruhi o'z ichida yana ikkiga - tema va remalarga bo'linadi: Qobil bobo - tema, yalangbosh, yalang oyoq, yaktakchan - rema.

Ikki remali (dirematik) jumlalar mazmuniy murakkablikni vujudga keltiradi. Ikki mazmuniy markazdan iborat bo'ladi.

Xullas, ajratilgan sifatlovchilar sintaktik tuzilish sathi uchun farqlovchi belgi emas, balki aktual tuzilish sathi uchun farqlovchi bo'lib, ikkinchi darajali remaning

aktuallashtiruvchisi hisoblanadi. Ikkinchi darajali bo'laklarning kesim oldi o'rnida aktuallashtiruvchi vosita sifatida so'z tartibidan tashqari, prosodika ham ishtirok etadi. Chunki bu o'ren turkiy tillarda intonatsion invariant tuzilishni kuchli o'rni - mantiqiy urg'u tushadigan o'rni hisoblanadi. Demak, bu o'rinda ham so'z tartibi, ham mantiqiy urg'u bir vaqtning o'zida aktuallashtiruvchi vosita vazifasini bajaradi.

Prosodik aktuallashtiruvchi vositalar. Gap bo'laklarining aktuallashishida so'z tartibidan tashqari, boshqa vositalar ham, jumladan prosodik vositalar xizmat qiladi. Bunday aktuallashtiruvchi vositalarga mantiqiy urg'u va u bilan bog'liq bo'lgan nutq tempi va pauza kiradi.

Mantiqiy urg'u. Ma'lumki, urg'u so'z urg'usi, sintagmatik urg'u (jumla urg'usi) va mantiqiy urg'u (ajratuvchi urg'u) larga bo'linadi .

So'z urg'usi so'zlarni, sintagmatik urg'u sintagmalarni ajratish uchun xizmat qiladi. Mantiqiy urg'u esa so'z urg'usi, sintagmatik urg'uga ega bo'lgan sintaktik birlıklarni mazmunan boshqalardan ajratish vazifasinn bajaradi. Masalan, Ahmad ertaga kinoga boradi jumlesi to'rtta mustaqil so'zdan (gap bo'lagidan) tashkil topgan bo'lib, har qaysisi bir-biridana so'z urg'usi bilan ajralib turadi. Demak, to'rtta so'z urg'usi bor.

Ammo u faqat bir sintagmatik urg'uga ega bo'lishi mumkin. Bu vaqtda sintagmatik urg'u oxirgi so'zning urg'uli bo'g'iniga tushadi va shu jumladan ifodalangan fikrning oddiy bayonini ifodalaydi. Jumlada har qaysi bo'lakning ma'nosi alohida ta'kidlanmaydi mazmuniy ahamiyatli bo'lak ajratilmaydi. Agar shu jumladan birorta bo'lak mazmuniy jihatdan ajratib ko'rsatilmoqchi bo'lsa, so'zlovchi uni mantiqiy urg'u bilan ajratadi. Bu yo'l bilan gap bo'laklarining tartibini o'zgartirmagan holda, barcha bo'laklarni Ahmadni ham, ertaga-ni ham, kinogani ham, boradi-ni ham mazmuniy ahamiyatli bo'lakka aylantirish mumkin. Bunday vaqtda mantiqiy urg'u ostidagi bir so'zning o'zida uchta urg'u bir-biri bilan qavatlanadi so'z urg'usi Q sintagmatik urg'u Q mantiqiy urg'u. Anglashiladiki, nutq oqimida, so'z urg'usi (mustaqil so'zlarda), sintagmatik urg'u zaruriy bo'lsa, mantiqiy urg'u zaruriy emas, u faqat ayrim bo'laklarni mazmuniY ta'kidlash kerak bo'lgandagina qo'llanadi. Shunday

qilib, mantiqiy urg'uni xarakterlaydigan birinchi omil - bu semantik yoki aktual omillardir. Mantikiy urg'uli bo'lak shu jumlaning mazmuniy eng ahamiyatli bo'lagi bo'lib, rema qismini tashkil qiladi. Qolgan bo'laklar esa tema bo'ladi. Ikki sostavli yig'iq jumlada mantiqiy urg'u egada bo'lsa, ega - rema, kesim - tema bo'ladi. Masalan: Ahmad keldi.

Yoyiq jumlada qaysi bo'lak mantiqiy urg'u ostida bo'lsa shu bo'lak, rema, qolgan bo'laklar tema qism bo'ladi. Savol ham shu mantiqiy urg'uli bo'lakka qarab beriladi. Solishtiring: Ahmad ertaga kinoga boradi. Kim ertaga kinoga boradi? Ahmad ertaga kinoga boradi. Ahmad qachon kinoga boradi? Ahmad ertaga kinoga boradi. Ahmad ertaga kayerga boradi? Ahmad ertaga kinoga boradi. Ahmad ertaga nima qiladi? Mantiqiy (ajratuvchi) urg'u an'anaviy eshitish kuzatuviga ko'ra quyidagi uch momentni o'z ichiga oladi:

a) odatda so'zning urg'uli bo'g'ini muskul kuchlanishining kuchayishi bilan talaffuz qilinadi. Bu kuchayish, asosan, unli tovushga oid bo'ladi. Masalan: Ahmad ertaga kinoga boradi; b) mantiqiy urg'u tushgan bo'lakda odatdagagi urg'uli bo'g'in mantiqiy urg'u tushmagan holatdagidan cho'ziqroq (yoki ba'zan qisqaroq) talaffuz qilinadi. Demak, mantiqiy urg'uli bo'lak bilan mantiqiy urg'usiz bo'lak o'rtasida miqdoriy farq mavjud bo'ladi. Bu miqdoriy farq urg'uli bo'g'indan unlining yo cho'zilishi, yo qisqarishi hisobiga bo'ladi: v) mantiqiy urg'uli bo'lagining urg'uli bo'g'ini metodikasi bilan ham xarakterlanadi: U ton jihatidan odatdagidan yo balandroq, yo pastroq bo'ladi. Demak, bu o'rinda odatdagagi urg'u tushgan (so'z urg'usi yoki sintagmatik urg'u) so'zning urg'uli bo'g'ini bilan mantiqiy urg'u tushgan so'zning urg'uli bo'g'ini o'rtasida tonning balandligi bo'yicha intervali muhim hisoblanadi.

Emfatik emotsiyal urg'u. Aktuallashtiruvchi vositalardan yana biri emfatik urg'u hisoblanadi. Emfatik urg'u ajratuvchi urg'uning ikkinchi turidir. Emfatik urg'u ham jumla tarkibidagi ma'lum bir bo'lakli mazmun jihatdan ajratib ko'rsatadi. Bu jihatdan mantiqiy urg'uga o'xshab ketadi. Har ikkisi ham ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Ammo mantiqiy urg'u jumlaning mazmuniy tomoniga oid bo'lsa, emfatik urg'u hissiy tomoniga oid bo'ladi. Emfatik urg'uda ovoz tembri asosiy rol'

o'ynaydi. Agar his ijobiy va salbiy turga bo'linsa, ularning fonetik belgilari turlicha bo'ladi. L.V.Shcherbaning kuzatishiga qaraganda, rus tilida ijobiy hisni ifodalash uchun so'zning odatdagi urg'uli bo'g'inining unlisi cho'ziladi va kuchaytiriladi. Masalan: hayajon hissi: Kakoy chudesno'y vid; mehr hissi: On takoy xoroshiy, slavno'y chelovek va boshq. Salbiy hisni (masalan, qahr, g'azab, jirkanish) ifodalash uchun esa so'zning birinchi undoshi cho'ziladi: Ch-ch-ort bo` tebya pobral!; Ax to` dryan' takaya!; M-merzaves! va boshq .

O'zbek tilida esa emfazani ifodalashning o'ziga xos xususiyati mavjud. Ijobiy yoki salbiy hislar unli yoki undosh cho'zilishiga qarab farqlanmaydi. Emfazani ifodalash uchun esa so'z tarkibidagi yo unli, yoki undosh (faqat so'z boshidan tashqari) cho'ziladi. Masalan: Qovun shiri-in ekan. Maz-za qilib yedik. Ishqi yo'q esh-shak, dardi yo's, kes-sak (Maqol). Ka-atta kanal. Semi-iz odam. Bala-nd bino. Xunuuk bola. Bosh-shing-ni yegurlar va boshq. So'zlarning takrorlanishi ham hissiy ehtiyoj - emfazani ifodalash tufayli sodir bo'ladi. Qaysi bo'lak emfatik urg'u olsa, o'sha bo'lak ikkinchi marta takrorlanadi. Masalan: Men Moskvaga ketyapman, men. Men Moskvaga ketyapman. Moskvaga. Men Moskvaga ketyapman, ketyapman.

Shunday qilib, mantiqiy va emfatik urg'u kommunikativ (aktual) vosita bo'lib, bu urg'u tushgan bo'lak kommunikativ ahamiyatli bo'lak - rema hisoblanadi. Gapning qolgan qismi esa, tema bo'ladi. O'zbek tilida unli va undoshlarning qo'shilishi va distant reduplikatsiya emfatik urg'uning moddiy shakllari hisoblanadi.

Mantiqiy va emfatik urg'u vositasida aktuallashgan bo'laklarda ko'pincha pauza ham ishtirok etadi. Bu bo'laklardan oldin, odatda qisqa pauza bo'ladi.

Leksik va grammatik aktuallashtiruvchi vositalar. Ma'lum gap bo'lagining aktuallashishida o'zbek tilida turli xil leksik va grammatik vositalar ham xizmat qiladi. Bu vositalar mantiqiy urg'uli bo'lak bilan birga kelib, mantiqiy yordamchi aktuallashtiruvchi vosita vazifasini bajaradi. Bularga ham, faqat, yolg'iz, hatto, o'zi so'zları, -gina, -oq, -yoq affiksları oiddir. Ko'rsatilgan aktuallashtiruvchi vositalardan faqat, yolg'iz, birgina ajratib ko'rsatish: ham, hatto, o'zi, -oq -yoq vositalari esa ta'kidlab ajratish funksiyalarini bajaradi. Solishtiring:

Hatto Karim (ham) keldi Karim ham keldi faqat yolg'iz Karim keldi birgina Karimning o'zi keldi Karimning o'ziyoq keldi va boshq.

Yuqoridagi leksik va grammatic vositalar bilan birga kelgan bo'lak mantiqiy urg'u oladi va aktual ahamiyatli bo'lak - rema hisoblanadi.

### **GAPNING PRESUPPOZITSIYA ASPEKTI**

Ma'lum propozitsiya turli darajadagi sintaktik struktura orqali ifodalanadi: gap orqali, oborotlar orqali, hatto sodda gap tarkibidagi ayrim so'zlar va grammatic shakllar ham alohida presuppozitsiya ifodalab, shu sodda gapni semantik murakkablashtirishi mumkin. Bunday vaqtida ayrim so'z yoki grammatic shakl orqali ifodalangan propozitsiya o'zining eng ixcham shakliga ega bo'ladi. So'zlovchi va tinglovchi uchun uning tushunarli bo'lishida presuppozitsiya yordamga keladi. Shuning uchun ham keyingi davrlarda gapning presuppozitsiya tomoni lingvistlar diqqatini ko'proq jalb etmoqda . Shunday bo'lishiga qaramasdan, presuppozitsiya turlicha talqin qilinadi.

Presuppozitsiya (presuppsiya) tushunchasi nemis mantiqshunosi G.Frege g'oyalari bilan bog'liqdir. Uning ta'kidlashicha, presuppozitsiya hukmning tabiiy asosidir. Masalan, "Kepler bechoralikdan olamdan o'tdi", "Kepler bechoralikdan olamdan o'tmadi" gaplarida "Kepler" degan odamning yashaganligi haqidagi hukmga tabiiy asos mavjud. G.Frege fikricha, asosiy hukm ko'pincha boshqa yashirin hukm bilan birga keladi. U mavjudlik bildiruvchi ikkinchi darajali yashirin hukmnigina presuppozitsiya hisoblaydi .

E.Kinen amaliy va mantiqiy presuppozitsiyalarga ajratishni tavsiya etadi. Birinchisi so'zlovchining individual bilimi strukturasi, ikkinchisi esa gaplar o'rtaсидаги semantik munosabatda aks etadi .

L.M.Vasil'ev ma'no komponentlarini ma'lum ma'noga bog'lanish darajasiga ko'ra majburiy va fakul'tativ (potensial) ma'no komponentlariga bo'ladi. Ulardan birinchisi ma'noning signifikativ (semantik) aspektiga oid va uning til birligi sifatida mavjud bo'lishi uchun, albatta, zarur bo'lsa, ikkinchisi denotativ aspektga presuppozitsiya planiga oidligini va bu komponent faqat nutqda presuppozitsiya

orqali anglashilishini ko'rsatadi . Uning fikricha, fakul'tativ komponentlar ma'noning semiotik imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan: xabar qildi konstruksiyasi ma'nosida habar qilish usullari aytmoq, yozmoq, telefon qilmoq, telegramma bermoq kabi fe'llar orqali ifodalanishi mumkin bo'lgan fakul'tativ komponentlar mavjud. Yuqoridagi konstruksiyada xabar qilishning qaysi usulidan foydalanganligi faqat presuppozitsiya plani til egalarining til haqidagi amaliy bilimlari orqali ma'lum bo'ladi.

V.Gumbol'dtning "har qanday tushunish bir vaqtning o'zida tushunmaslikdir" antinomiyasi, A.Potebnyaning so'zlarning "obraz markazi" ("yaqin ma'no") va "uzoq ma'no"lari kabi individual psixologik qarashlari ham hozirgi tilshunoslikdagi presuppozitsiya tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir.

Tilshunoslikda "presuppozitsiya" terminining qo'llanilishi P.Stroson nomi bilan bog'langan. U tilda implikatsiyaning alohida turi bor ekanligini ko'rsatadi. Implikatsiyaning bu turi G.Fregening "tabiiy asos"iga juda yaqin talqin etiladi. Har ikki muallif presuppozitsiyani ham gaplar o'rtaсидаги semantik munosabatdan keltirib chiqaradi. Bu munosabat "X Uni taqozo etadi" formulasi orqali ko'rsatiladi. "Meri komnatani tozaladi" konstruksiyasida "komnataning iflos ekanligi" presuppozitsiyasi mavjud. "Meri komnatani tozalamadi" konstruksiyasida ham shu presuppozitsiya saqlanadi .

Hozirgi kunda presuppozitsiyani ma'lum jumla va u ifodalayotgan propozitsiyani to'g'ri tushunilishiga imkon beradigan so'zlozhilar o'rtaсидаги "biliшning umumiy fondi", "oldindan biliшning jami" sifatida belgilash kengroq tus olmokda .

Shuning uchun ham tilshunoslikda presuppozitsiya termini ostida muayyan jumla tarkibida bevosita ifodalanmagan, yashirin holda aks etgan ma'no tushuniladi.

Presuppozitsiya tushunchasi kontekst (ushbu til birligining lingvistik qurshovi) va vaziyat (ushbu jumlaning ekstralngvistik substrati, yuzaga chiqish shart-sharoiti) tushunchalarini o'z ichiga oladi . Masalan, Bugun instruktorimizni qoldirdim, dada (A.Qahhor) jumlasidagi axborot kontekst bilan bog'liq. Axborot temasi bo'lgan "shaxmat" kontekstdan ma'lum. Oldingi jumlada gap shaxmat haqida boradi,

Shuning uchun yuqoridagi gap "instruktorimiz bilan shaxmat o'ynadim" presuppozitsiyasiga ega. Kontekstdan tashqarida presuppozitsiya uchun yo'l yopiladi.

Kishilarning o'zi qurshab turgan olam haqidagi universal bilimlari va til haqidagi ko'nikmalari natijasida ayrim so'zlarning leksik ma'nolarida ham presuppozitsiyaga o'rinn ochilishi mumkin. Masalan, Men Toshkentdan Moskvaga uchdim jumlasida "Samolyotda keldim" presuppozitsiyasi mavjud. "Uchmoq" so'zining leksik ma'nosi va til haqidagi umumiylilik fondi so'zlozhilar uchun presuppozitsiyani tushunarli qiladi.

Lingvistik presuppozitsiya mantiqiy presuppozitsiyadan farqli ravishda ma'lum ifodalanish shakliga - moddiy vositasiga, tashqi signallariga ega, Masalan, o'zbek tilidagi "Karim ham keldi" jumlasida yana boshqa kimdir keldi presuppozitsiyasi anglashiladi". Bu presuppozitsiyaning moddiy substrati - tashqi signali "ham" yuklamasidir. Chunki shu yuklama presuppozitsiya uchun yo'l ochadi. Shuningdek, kelish harakatining yuzaga chiqish vositasi (piyoda, mashinada, otda va boshq..) ham presuppozitsiya orqali ma'lum bo'ladi. O'zbek tilida presuppozitsiyaning moddiy substrati sifatida xilma-xil vositalar ishtirok etishi mumkin: 1) leksik vositalarning fakul'tativ ma'no komponentlari; 2) hatto, faqat, yolg'iz, -gina, (-gina emas), ham, tag'in, yana yuklamalari; 3) bo'lsa, esa bog'lovchi vositalari; 4) tashqari, boshqa, o'zga (Sendan tashqari Karim ham keldi), bilan birga (Chiroyli bo'lish bilan birga, aqlli ham edi), o'rniga (O'qish o'rniga; o'ynadi) ko'makchilari va boshqalar.

Presuppozitsiya sintaktik konstruksiyalarning ma'no aspekti bilan uzviy bog'liq.

V.V.Bogdanov presuppozitsiyani gap semantikasi aspekti ekanligini ta'kidlaydi . N.D.Arutyunova ham presuppozitsiya "so'zlovchilarning umumiylilik fondi", "ularning oldindan kelishuvi" sifatida gap semantikasiga kirishini ko'rsatadi . Keyingi tadqiqotlarda semantikadan pragmatika ajratilmoqda. Presuppozitsiya pragmatika tarkibiga kiritilmoqda.

Tadqiqotchilar presuppozitsiyani turlicha tasniflaydilar. Jumladan, V.G.Gak presuppozitsyaning quyidagi tiplarini ko'rsatadi. 1) keng presuppozitsiya, 2) tor presuppozitsiya, 3) lingvistik presuppozitsiya.

Keng presuppozitsiya ostida kishilarning uni qamrab turgan ob'ektiv reallik haqida universal bilimi tushuniladi. Ob'ektiv borliqda har bir predmetning tipik, xarakterli xususiyati, ma'lum narsaga moslanishi mavjud. Predmetlarning ana shunday xususiyatlarini tavsiflashda konkret ma'noli so'z umumiyoq so'z bilan almashinishi yoki butunlay tushib qolishi mumkin. Ammo so'zlovchi va tinglovchi bir-birlarini to'g'ri tushunishlari uchun uning tushib qolishi hech qanday rol' o'ynamaydi. Masalan, shofer haqida gap ketganda, so'zlovchi va tinglovchi, eng avvalo, uni mashina haydovchisi deb biladi. Shuning uchun ham shofer mashinani tez haydadi jumlasida mashina so'zi tushib qolsa ham ma'noga putur yetkazmaydi.

Tor presuppozitsiya ostida esa faqat ma'lum vaziyat doirasidagina ro'y beradigan presuppozitsiya tushuniladi. So'zlovchilarning shu tilni bilish tajribasi natijasida kelib chiqadigan presuppozitsiya lingvistik presuppozitsiya hisoblanadi .

E.V.Paducheva presuppozitsyaning (prezumpsiyaning) ikki turini ko'rsatadi: 1) semantik prezumpsiya - bu yolg'onligi gapning semantik chalaligiga olib keladigan semantik komponent; 2) pragmatik prezumpsiya - bu gapning shunday komponentiki, so'zlovchi uning normal ko'llanilishida tinglovchi uchun ma'lum, deb hisoblaydi .

N.A.Toropova ham presuppozitsiyani ikki guruhga bo'ladi: 1) zidlanuvchi a'zolar presuppozitsiyasi; 2) kutilgan presuppozitsiya.

Shunday qilib, shu kunga qadar presuppozitsyaning bir belgiga asoslangan, hamma e'tirof etuvchi aniq tasnifi mavjud emas. Presuppozitsiya tushunchasi assersiya (tasdiq) tushunchasi bilan bog'liq. N.A.Toropova presuppozitsiya va assersiya tushunchalari o'zaro "aniqlik noaniqlik" belgisiga ko'ra farqlanishini ko'rsatadi. Presuppozitsiya - bu gapning kontekstga xoslangan ma'nosi, assersiya esa unga bog'liq bo'lмаган ma'nosidir. Masalan, predikat ot artist so'zining presuppozitsiyasi sub'ektiv semantik belgisiga muvofiq keladi. Qiylang: Bu yerda bir "artist" bor jumlasidan mantiqan ikki tasdiq kelib chiqadi: 1) bu yerda bir odam

bor; 2) bu odam ustamon (yolg'onchi). Tahlil qilinayotgan gap tarkibidagi ot semantikasi tasniflovchi va xarakterlovchi belgilarni o'z ichiga oladi. "Artist" (yolg'onchi, ustamon ma'nosida) so'zida "odam", "yoshi kattaroq", "erkak kishi" belgilari uning tasniflovchi belgilari hisoblanadi. Bu odam-"artist" jumlasida "odam" ma'nosi "artist" so'zining taksonomik belgisida mavjud. Shuning uchun uning bevosita qo'llanishi presuppozitiv funksiya emas, balki assertiv funksiya bajaradi. Bu yerda "artist" bor tipidagi mavjudlik bildiruvchi gaplardagi otning barcha semantik komponentlari butun jumla uchun xarakterlidir. Shunday qilib, tasniflovchi belgilar ekzistensional ma'lumot uchun ahamiyatlidir. Uning xarakterlovchi belgilari esa sub'ektga xarakteristika beruvchi axborot uchun qimmatlidir.

Presuppozitsnya gapniig aktual bo'linishi bilan ham ma'lum darajada bog'lanadi. Ayniqsa, ularning aloqasi sintaktik konstruksiya tarkibida mantiqiy urg'u stilidagi fokus orqali namoyon bo'ladi.

V.V.Bogdanovning ta'kidlashiga ko'ra, agar gapda fokus bo'lsa u bir vaqtning o'zida rema hisoblanadi. Odadagi sharoitda rema o'z ichiga bir va bir necha so'z-larni birlashtirishi mumkin, fokus esa ularni minimumgacha qisqartiradi. Masalan, Men qiziq kitoblarni o'qiymen jumlasida qiziq so'zi fokus bo'lsa, u rema, boshqa so'zlar esa tema hisoblanadi. Shu bilan birga fokus doimo presuppozitsiya ta'sir doirasida turadi. Xususan, mantiqiy urg'u qiziq so'zagi tushgan yuqoridagi jumladan boshqa kitoblarni o'qimayman presuppozitsiyasi kelib chiqadi.

Aktuallashishning boshqa vositalari: so'z tartibining o'zgarishi yordamida aktuallashish, leksik va grammatik vositalar yordamida aktuallashish va boshqalar ham presuppozitsiya bilan chambarchas bog'liqdir. Bularning hammasi aktual bo'linishi bilan "presuppozitsiya tushunchalarining bir-biri bilan murakkab aloqasi haqnda guvohlik beradi.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, aktual bo'linish va presuppozitsiya shakli va mazmuniy jihatdan o'zaro farqli belgilarga ega. V.V.Bogdanov fikricha, ularning shakliy farqlari shundan iboratki, presuppozitsiya uchun minimum ikki predikat ifodaning bo'lishi, ularning biri ikkinchisi ichida yashirin holda mavjud bo'lishi xarakterlidir. Masalan, Qarim uy quryapti predikat ifodasi ichida yashirin holda uy qurilyapti predikat ifodasi mavjud. Ikkinchchi ifoda birinchisining presuppozitsiyasidir.

Aktual bo'linish komponentlari esa bir predikat ifoda doirasida ajratiladi. Ular o'rtasndagi mazmuniy farq shundan iboratki, aktual bo'linish ma'lum va yangilarni jumla tarkibidan ajratishga mo'ljallangan. Ma'lum shu jumlani oldingi jumлага bog'lab, tekst hosil qilish uchun xizmat qilsa, yangi shu jumla ma'nosini olg'a siljitadi. Presuppozitsiya esa gapning funksional prespektivasi bilan bog'lanmaydi. Aktual struktura gapning shakliy tomonini ham qamrab olsa, presuppozitsiya bunday xususiyatga ega emas (masalan, L.Shcherbaning "Glakaya kuzdra shteks budlanula..." "jumlesi"da "sintaktik elementlarnn aktual jihatdan ajratish mumkin, ammo "pesuppozitsiya bunga ta'sir qilmaydi).

Demak, gapning aktual bo'linishi va presuppozitsiya bog'liq xodisalar bo'lsa ham, ammo ular o'rtasida mazmuniy va shakliy tomondan muhim farqlari bor.

Ko'pincha o'zaro semantik yaqin bo'lgan, bir sinfga kiruvchi, bir-biriga nisbatlanuvchi tushunchalar presuppozitsiyaga yo'l ochadi. Masalan, "Ahmad ham keldi" jumlasida "Ahmad" tushunchasiga shu tushunchaga yaqin bo'lgan boshqa shaxslar (Qarim, Halim, Salim) tushunchasi qo'shilmoqda. Nisbatlanayotgan Ahmad va boshqa shaxslar (Karim, Halim, Salim) shaxs bildiruvchi so'zlar sifatida bir sinfga kiradi "Faqat Ahmad keldi" jumlasida esa faqat yuklamasi yordamida Ahmad tushunchasi u mansub bo'lgan boshqa shaxslar sinfidan ajratiladi.

So'zlovchi va tinglovchi uchun boshqa kishilar (bu kishilar kim ekanligi ham suhbатdoshlar uchun ma'lum) kslmaganligi faqat yuklamasining ma'nosи va zid a'zolar (Ahmad - boshqa kishilar) orqali ma'lum bo'ladi. Uzaro nisbatlanayotgan a'zolar zid a'zolar hisoblanadi.

Zid a'zolar turli moddiy ifodalanish xususiyatiga ega. 1.Zid a'zolardan faqat bittasi moddiy jihatdan ifodalanib, boshqa zid a'zoni assotsiativ ravishda taqozo qiladi. Masalan:

1. Ko'priki biz qurdik.
  2. Biz faqat ko'priq qo'rdik.
  3. Byaz ko'prikkina qurdik.
  4. Biz ko'priq ham qurdik.
  5. Biz yana ko'priq qurdik.
  6. Biz hatto ko'priq qurdik.
- Yuqoridagi jumlalar quyidagi presuppozitsiyalarga yo'l ochadi:

1. Boshqalari kurmadik, 2. 3. Boshqa narsa qurmadik. 4. Boshqa narsa ham qurdik. 5. Ilgari ham ko'prik qurganmiz. 6. Boshqa narsa ham qurdik. Ostiga chizilgan bo'laklar bir-birini taqozo qiluvchi, o'zaro assotsiativ bog'langan zid a'zolardir. Uzaro zidlanuvchi a'zolar o'rtasida quyidagicha munosabat mavjud: 1-, 2-, 3-gaplarda ayirish, 4-, 5- gaplarda qo'shish, 6- gapda Darajalash munosabati bor.

2. Zid a'zolarning har ikkisi ham moddiy jihatdan ifodalanadi, lekin ularning biri predikat ifodanining nominallashgan transformasi hisoblanadi va tishqari, boshqa, bilan, birga, o'rniga ko'makchilari va emas, tugul yuklamalari bilan birga keladi. Bu ko'makchi va yuklamalar presuppozitsiyaga yo'l ochadi. Shuninr uchun ham ular presuppozitsiya signallari sanaladi Masalan: 1. Sendan tashqari hamma keldi. 2. O'qish o'rni g'a ishladi. 3. O'qish bila nabi rga ishladi. 4. Karim emas, Halim keldi. 5. Karim tulih a t-to Halim keldi. 6. Nafaqat Karim, hatto Halim keldi. 7. Bu qovun emas, asal. Ostiga chizilgan bo'laklar zid a'zolar sanaladi. Kontr chiziq esa presuppozitsiya signallarini ko'rsatadi. Yuqoridagi jumlalar quyidagi presuppozitsiyalarga yo'l ochadi: 1. Sen kelmading. 2. o'qimadi. 3. o'qidi. 4. Karim (keliish kerak edi) kelmadi. 5-, -6. Karim keldi. 7. Qovun shirinligi asalga o'xshaydi.

Shunday qilib, presuppozitsiya gap semantikasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan pragmatikaning o'rgannsh ob'ektidir. Nutq vaziyati bnlan kontekst pragmatik tadqiqotlarning asosiki tashkil qiladi. Shuning uchun ham sintaktik qurilma ifodalagan propozitsianing so'zlashuvchilarga tushunarli bo'lishi uchun nutq vaziyati yokk kontekst zarur bo'lgan joyda pragmatikaga ehtiyoj ortadi.

## M U N D A R I J A

Gap semantikasining propozitiv aspekti.....	7
Vaziyat elementlari.....	10
Relyasion struktura.....	12
Sintagmatika.....	15
Predikat.....	20
Fe'l predikatlar.....	27
Argumentlar.....	29
Bir predikatli qurilmalar.....	30
Sub'ektlilik mikromaydoni.....	30
Sodda gapning predikat xarakteriga ko'ra tiplari.....	34
Fe'l asosli gaplar.....	34
Nisbat shakllari va gap semantikasi.....	37
Ot asosli gaplar.....	39
Mavjudlik bildiruvchi (ekzistensional) gaplar.....	40
Ko'p predikatli qurilmalar.....	49
Qo'shilma predikatlar.....	49
Ko'p predikatli qurilmalarda predikativlik.....	52
Qo'shuvchi predikatlar.....	56
Gapning modal aspekti.....	57
Predikativlik va modallik.....	63
Mantiqiy va grammatick modallik.....	64
To'ldiruvchili yoyiq gaplar semantikasi.....	67
Holli yoyiq gaplar semantikasi.....	70
Predmetning murakkab nomlari (deskripsiya) va ularning tuzilishi.....	71
Gapning kommunikativ aspekti.....	72
Aktual tuzilishi.....	72
Jumla padigmatikasi va sintagmatikasining aktual bo'linish bilan munosabati.....	78

Aktuallashish.....	84
Yoyiq jumlalarda ikkinchi darajali bo'laklarning o'rni.....	87
Gapning presuppozitsiya aspekti.....	93